So'zlarning grammatik munosabatga kirishuvi bilan hosil bo'lgan sintaktik konstruktsiya qo'shilma sanaladi. Bu xilma-xil qo'shilmalarning eng sodda ko'rinishi ikki mustaqil so'zdan tuzilib, uning tarkibidagi komponentlarning o'zaro bog'lanishi bir (tobe) elementning ikkinchi (hokim) elementga ergashishi formasida bo'lavermaydi. So'zlar nok va olma, anjir va anor, o'qidi va yozdi shaklida – biri ikkinchisiga tobelanmay, teng holda bog'lanishi ham mumkin. Bu bog'lanish modellar shaklida ot va ot, fe'l va fe'l shakllarida so'z tizmalarini hosil qiladi. Bunda komponentlarning huquqi teng darajada bo'ladi, hokim-tobelik aloqasi ko'zga tashlanmaydi.

Sintaktik konstruktsiyaning komponentlari orasidagi bog'lanish bu komponentlar orqali ifodalangan ma'nolarning (predmet, belgi va ular orasidagi munosabatni ifodalovchi ma'nolarning) bog'lanishini bildiradi. Bu ma'nolar material dunyoning kishi ongida aks etishidan tug'iladi.

Har qanday shakliy sintagmatik aloqa ma'lum mazmuniy sintagmatik munosabatni ifodalaydi va bu ikki munosabat birligi shakl va mazmun dialektikasini aks ettiradi. Masalan, ega va kesimning shakliy munosabatidan tashkil topgan men keldim sintaktik qurilmasi subyekt va predikatning mazmuniy munosabatini ifoda qiladi. An'anaga ko'ra, ega bilan kesim gapning struktur asosini tashkil qiladi. Ega va kesim munosabati minimal gap deb ham yuritiladi. qolgan bo'laklar esa shu bo'laklardan biriga bog'lanib, gapni yoyiq tusga kiritadi. Shunga muvofiq sintaktik munosabat ierarxiasini ikkita sathga ajratish ham mumkin:

1. Predikativ sath (ega va kesim munosabati).
2. Nopredikativ aloqalar sathi.

Moslashuv. Bunda bog'langan har ikki so'z bir-biriga muvofiqlashib, tobe so'z shu aloqaga mos hokim so'z formada keladi; ulardan birining o'zgarishi bilan boshqasi ham o'zgarib, shunga mos formaga o'tadi – o'z shakllanishini unga barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi.

Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo'li bilan bog'lanadi; shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning

boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so‘z bilan hokim so‘z bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi ko‘rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o‘qishi. Gullarning guli - Nargis . Bunda guli (hokim) so‘z talaba bilan gullarning (tobe so‘z) qaratqich kelishik qo‘shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo‘sh bulbuldek sayraydi kabi. Moslashuv hodisasi so‘z birikmasining doirasi bilangina cheklanmaydi. Ega va kesim moslashuv yo‘li bilan bog‘lanadi.

Bunday birikma “qaratuvchi va qaralmish” qolipida tuziladi; birinchi a’zo ot, ot tur yoki otlashib kelgan leksema bilan ifodalanadi, qaratqich kelishigida bo‘ladi. Shunday leksema shakl sintaktik jihatdan ikkinchi a’zoga bog‘lanadi. Ikkinchi a’zoga birinchi a’zo bilan sintaktik bog‘lanish tufayli nisbatlovchi qo‘shiladi; nisbatlovchidan oldin sonlovchi qatnashadi, birlik yoki ko‘plik sonlovchisi obyektiv voqelikka ko‘ra tanlab qo‘shiladi; turlovchi esa birikmaning boshqa bir leksema yoki birikma bilan sintaktik bog‘lanishi natijasida qo‘shiladi, shunga ko‘ra ikkinchi a’zo (birikma yaxlitligicha) asli leksema (birikma) holatida bo‘ladi, leksema shaklga (birikma shaklga) keyingi sintaktik bog‘lanish natijasida aylanadi: hovlining o‘rtasi , cholning nabirasi- kabi. a’zo munosabati jihatidan qaralmishdan anglashiladigan predmet yoki belgi qaratuvchidan anglashiladigan predmetga (predmet tasavvuridagi belgiga) tegishli ekani (nisbat berilayotgani) ifodalanadi: o‘rta hovliga, nabira cholga tegishli. Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xoslik, butunning bo‘lagi, to‘dadan ajratilgan qism, o‘ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma'nolar – birikmaning ma'nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo‘lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma'nolar. Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili-qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog‘liqlik namoyon bo‘ladi.

Bunda kelishik sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko‘rsatkichi bo‘ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi, lekin shakl o‘zgartiruvchi ekanidan qat’i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo‘ladi. Qaralmishga nisbatlovchi qaratuvchidan anglashiladigan shaxs, son, modal ma’nolarga muqobil holda tanlab qo‘shiladi. Qaralmishga qaysi nisbatlovchi qo‘shilishini qaratuvchining kelishik shakli emas, balki kelishik qo‘shiladigan asos, shu asosdan anglashiladigan shaxs, son, modal ma’no belgilaydi: mutanosiblik asosdan anglashiladigan grammatik ma’nolar bilan morfema (nisbatlovchi)

ifodalaydigan ma'nolar orasida voqe bo'ladi. Qaratuvchi tarkibidagi kelishik shakli va qaralmish tarkibidagi sonlovchi mutanosiblik aloqasida qatnashmaydi.

Mutanosiblik qaratuvchi bilan qaralmishning grammatik shakllarida voqe bo'lmaganligi sababli bunday birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki muvofiqlashuv deyiladi (Rus tilshunosligida ega bilan kesim orasidagi bunday aloqa koordinatsiya deb nomlanadi: lot. *co(n)* - birgalikda, *ordinatio* - "tartibli joylashuv". Bunday sintaktik aloqaga sootvetstviye ham deyiladi). Qaralmishga qaysi nisbatlovchining qo'shilishi qaratuvchining qanday turkum leksemasi bilan ifodalanishiga, qisman uning grammatik shakliga bog'liq: 1. Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo'shiladi: mening uy + im- , mening uylar +im- , sening uy + ing- , sening uylar + ing- , uning uy + i- , uning uylar + i- ,bizning uy + imiz- , bizning uylar + imiz- kabi.

Moslashuv (tilshunoslikda) — tobe (bog'liq) aloqaning bir turi bo'lib, bunda birikmaning tobe qismi o'z shaklini xokim qismning shakliga moslaydi, shu bilan hokim qismga bog'lanadi. Hokim qismning shakli o'zgarishi bilan tobe qism ham ma'no jihatdan shu shaklga mos bo'lgan shaklni oladi. O'zbek tilida M. aloqasi, asosan, qaratqichqaralmish va ega-kesim aloqasida ko'rinadi va bu moslik shaxs va son jihatidan bo'ladi, ya'ni qaratqich yoki ega qaysi shaxs sonni bildirsa, qaralmish yoki kesim xuddi shu shaxs sonni bildiruvchi shaklda bo'ladi: men yozyapman, sen yozyapsan, u yozyapti, biz yozyapmiz, siz yozyapsiz, ular yozishyapti. Mening ukam, sening ukang, uning ukasi.

Hokim qism (qaratqich yoki ega) 3-shaxsni bildiruvchi otlardan ifodalanganda, hokim va tobe qism sonda moslashishi ham, moslashmasligi ham, ya'ni hokim qism ko'plik son, tobe qism birlik son shaklida bo'lishi mumkin: sozandalar keldilar (kelishdi) yoki sozandalar kel-d i. Ega 3-shaxsdagi shaxs bildirmaydigan so'zlardan bo'lganida, ega ko'plik, kesim esa birlik shaklida qo'llanadi, ya'ni son jixatdan moslashish bo'lmaydi: gullar ochildi.

Aloqa-munosabat (sintaktik) shakllari (sintaktik shakl hosil qiluvchi vosita) – kelishik, egalik, kesimlik ko'rsatkichlari. Aloqa-munosabat shakllari shakliy omil sifatida so'zlarning erkin bog'lanishida faol: Men qishloqqa o'tdim gapida *-ga* shakli qishloq so'zini o'tmoq fe'li bilan, *-dim* kesimlik shaklidagi *-m* ko'rsatkichi men so'zini o'tmoq fe'lga tobelash vazifasini o'tamoqda.

Egalik qo‘shimchalari mustaqil so‘zlarning hokim mavqeda kelishini ifodalab, uning tobe so‘zga munosabatini ko‘rsatadi (sizning uyingiz). Shuningdek, bog‘lash bilan birgalikda, hokim va tobe so‘zning shaxs va sonda moslashishini ham ta‘minlaydi.

Kelishik – mustaqil so‘zning barchasi uchun tobelikni ta‘minlovchi formal ko‘rsatkich. *Masalan*, bosh kelishik egani, tushum kelishigi to‘ldiruvchini, qaratqich kelishigi aniqlovchini hokim bo‘lakka tobelaydi.

Shaxs-son qo‘shimchalari, kesimlikning boshqa shakllari bilan birgalikda, o‘zi hosil qilayotgan hokim bo‘lakni tobe bo‘lak – egaga bog‘laydi.

Yordamchi so‘z. Sintaktik aloqani ifodalashda qo‘llanadigan yordamchi vositalar (ko‘makchi, bog‘lovchi va bog‘lama) birikuvlarda shakliy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘makchining bir so‘zni ikkinchi so‘zga tobelovchi vosita ekanligi, ma‘no va vazifa jihatdan kelishikka o‘xshashligi (*telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq*), shuningdek, so‘zni sintaktik aloqaga kiritishda o‘zi bilan birga uning biror kelishik shaklida bo‘lishini ham talab qilishi ma‘lum: Marraga qadar bir tekisda yugurib borishdi. (A.G‘ul.).

Bog‘lovchi odatda, so‘z tizmalari, gaplarning a‘zolarini bog‘lash uchun xizmat qiladi. Masalan: olma va anor. Men o‘qidim va yozdim. Teng bog‘lovchi birinchi misolda so‘z tizmasi a‘zolarini, ikkinchi misolda esa qo‘shma gap a‘zolarini bog‘lash uchun xizmat qilgan.

Bog‘lama ot kesimni ega yoki boshqa tobe a‘zo bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi: *Biz o‘tgan yili talaba bo‘ldik*. Bunda bo‘ldik bog‘lamasi shaxs-son va zamon ma‘nolarini ifodalagan hamda kesimni uning shaxs (biz), zamon (o‘tgan yili) kengaytiruvchilari bilan bog‘lagan.

So‘z tartibi. So‘zlar erkin birikuvda grammatik shakl asosida bog‘langanda, so‘z tartibi o‘zgarsa-da, u ma‘noviy munosabat yoki bog‘lanishga ta‘sir qilmaydi: *Sen kitobni keltirdingmi? Kitobni sen keltirdingmi? Keltirdingmi sen kitobni?* birikuvidagi so‘z o‘rni almashtirilganiga qaramay, keltirdingmi so‘zshakli hokim, sen va kitobni so‘zshakllari tobe a‘zo sifatida qolavergan. Chunki ular sintaktik mavqeini ta‘minlovchi vosita – morfologik ko‘rsatkichga ega. So‘zning hokim-tobeligini (sintaktik mavqei)ni ko‘rsatuvchi vosita bo‘lmaganda so‘z tartibining qimmatini oshadi

(*achchiq olma*). Bunda soʻzning gapdagi funksiyasi, asosan, tartibi bilan belgilanadi, tartib oʻzgarsa, mazmun bilan birga, sintaktik holat ham oʻzgaradi: Hayot goʻzal (*ega+kesim*), goʻzal hayot (*aniqlovchi+aniqlanmish*). Gapda uslubiy maqsadlarda soʻz tartibi oʻzgarishi mumkin: Oʻqituvchi intizom haqida gapirdi. Intizom haqida oʻqituvchi gapirdi. Tartibning bunday oʻzgarishi aʼzolarning hokim-tobeligiga taʼsir qilmaydi, biroq gapning uslubiy jihatiga, fikrdagi maʼno nozikligiga taʼsir koʻrsatadi.

Ohang ham, yuqorida aytilganidek, birikuvning tabiatini koʻrsatuvchi nisbiy vosita. Gap tugallangan ohang bilan aytiladi, uning tarkibidagi ayrim birikuvlar sanash (*olma va anor*), ayrimlari koʻtariluvchi ohangga (*qizil qalam*) ega boʻladi.

Ohang (*pauza*) birikuvning sintaktik boʻlinishini koʻrsatadi. Masalan, Koʻp qavatli uy birikmasini ikki xil (*koʻp//qavatli uy va koʻp qavatli//uy tarzida*) aytish mumkin. Demak, sintaktik aloqani, unga bogʻliq ravishda mazmuniy farqlanishni ifodalashda ohangning oʻrni bor. Yaʼni koʻp//qavatli uy tarzida birinchi soʻzdan keyin pauza qilinishi natijasida (*koʻp*) soʻzshakli tobe va qavatli uy birikmasi unga hokim mavqeda boʻlib, bunda qavatli uylarning koʻpligi haqidagi maʼno anglashiladi. Ikkinchi holatda (*koʻp qavatli//uy*) esa koʻp qavatli birikmasi tobe, uy soʻzshakli esa hokim mavqeda, birikmadan esa uyning qavatlarini koʻpligi maʼnosi namoyon boʻlgan.

Sanash ohangi bir xil boʻlakning aloqasini ifodalaydi: Oltin, kumush tosh boʻlar. (Maq.)

Qoʻshma gapning tarkibiy qismlari orasida ham turli: qarama-qarshilik (*Kunduzi issiq – kechasi sovuq*), shart (*Sen kel – u boradi*), sabab (*Kecha borolmadim – mehmonlar kelib qoldi*) – maʼnoviy munosabatlar mavjud.

Koʻrinadiki, ayrim oʻrinda soʻzlar va gaplarni bogʻlashni ohangning oʻzi bajaradi.

Soʻz birikmasida bogʻlanish usuli

Soʻz birikmasi aʼzolari orasidagi bogʻlanish, yaʼni tobelanish uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turining oʻziga xos xususiyati va farqi aʼzolari biriktiruvchi koʻrsatkich yoki boshqa vositadan kelib chiqadi. Masalan, tez yurmoq, qalamni olmoq, kitobning varagʻi birikmalarida tobe soʻzning qaysi shaklda kelishi koʻpincha, uning hokim soʻziga (*qalamni olmoq*) bogʻliq boʻlsa, baʼzan har ikkala aʼzo bir-birining qanday shaklda boʻlishini belgilab qoʻyadi (*kitobning varagʻi*).

Bitishuvda birikkan soʻzlarning oʻzaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik koʻrsatkich boʻlmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon boʻladi. Bunda tobe soʻz ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jihatdan oʻzgarmaydi. Zero, tobe aʻzo sifatida namoyon boʻlayotgan soʻz maʼnoviy va vazifaviy jihatdan bunga xoslangan boʻladi. Misollar: qizil gul, oq qogʻoz. Baʼzan ot turkumidagi soʻzlar ham hech qanday vositasiz tobe vazifada kela oladi: oltin soat, tosh yoʻl kabi. Bunda ular mohiyatan tobe aʻzolik doimiy belgisi boʻlgan sifat, son, ravish turkumiga yaqinlashadi. Bu hodisa nutqiy boʻlib, oltin, tosh leksemasining lisoniy mohiyati bilan belgilanmagan.

Quyidagi soʻzlar bitishuv yoʻli bilan bogʻlangan:

- 1) *ravish +feʻl: oʻz-oʻzidan gapirmoq;*
- 2) *sifat+feʻl: yaxshi soʻzlamoq;*
- 3) *son+ot: oʻnta qalam, sakkiz daftar;*
- 4) *ot+ot: kumush qoshiq, chang yoʻl;*
- 5) *olmosh+ot: hamma odam, qanday kitob.*

Ayrim manbalarda tobe soʻz vazifasida ravishdosh (shoshilib gapirdi), sifatdosh (oʻqigan bola) yuzaga chiqqan birikuv ham bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Vaholanki, bu erda ravishdosh koʻrsatkichi *-ib* feʻlni feʻlga (shoshilib gapirdi), sifatdosh shakli *-gan* feʻlni otga (oʻqigan bola) bogʻlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bularning morfologiyada lugʻaviy-sintaktik shakl sifatida qaralishi ham ular hosil qilgan birikuvni bitishuvli emas, balki boshqaruvli birikuv sifatida baholashni taqozo etadi.

Bitishuvda aʻzolarning hokim-tobelik holati, asosan, tartib va joylashuv omili asosida belgilanadi: (tobe aʻzo yaʼni tobe soʻz oldin, hokim soʻz keyin keladi hamda aʻzolar orasiga boshqa soʻzni kiritib boʻlmaydi, (*kumush qoshiq birikmasini kumush oʻnta qoshiq deb oʻzgartirib boʻlmaydi*). Baʼzan bitishuvda ham tartib ikkinchi oʻringa tushib qolgandek tuyuladi: Majlis boʻladi – Majlis kechqurun boʻladi. Lekin bunda majlis soʻzi feʻlga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bogʻlanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so'zning grammatik xususiyati va ma'nosidan anglashilishi ayon bo'lib turadi.

Kelishik affiksi o'z ma'nolarini yo'qotgan tezda kelmoq, o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo'shimchasi bu SBda o'z tizimidan ajralib, so'z tarkibida «qotib qolgan». Bular – kelishik qo'shimchasini olgan holda ravishga ko'chgan so'z.

Boshqaruv aloqasi bir tomonlama shakllangan SBlar tarkibida amal qiladi. Faqat tobe a'zolari birikish uchun tobelovchi qo'shimcha olgan SB boshqaruv yo'li bilan bog'langan deyiladi. Bunda hokim so'z tobe so'zning qanday shaklda bo'lishini boshqaradi. Masalan, kitobni o'qimoq birikmasida tobe so'zning tushum kelishigi shaklida kelishi o'qimoq fe'lining o'timliligi bilan belgilangan. Agar bu fe'l o'timsiz fe'lga aylantirilsa, (o'qildi) tobe so'zdagi tushum kelishigi shakli o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi: kitobni o'qimoq-kitob o'qildi[1].

Boshqaruv aloqasida tobe so'zni har xil turkumdagi so'z boshqarishi mumkin. Misollar: uyga bormoq (*fe'lli boshqaruv*), mendan katta (*sifat boshqaruvi*), tovushdan tez (*ravishli boshqaruv*), o'qishda birinchi (*son boshqaruvi*), aytgan bola (*otli boshqaruv*). ya'ni tobe so'z oldin, hokim so'z keyin keladi hamda a'zolar orasiga boshqa so'zni kiritib bo'lmaydi, (*kumush qoshiq birikmasini kumush o'nta qoshiq deb o'zgartirib bo'lmaydi*). Ba'zan bitishuvda ham tartib ikkinchi o'ringa tushib qolgandek tuyuladi: Majlis bo'ladi – Majlis kechqurun bo'ladi. Lekin bunda majlis so'zi fe'lga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bog'lanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so'zning grammatik xususiyati va ma'nosidan anglashilishi ayon bo'lib turadi.

Kelishik affiksi o'z ma'nolarini yo'qotgan tezda kelmoq, o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo'shimchasi bu SBda o'z tizimidan ajralib, so'z tarkibida «qotib qolgan». Bular – kelishik qo'shimchasini olgan holda ravishga ko'chgan so'z.

Valentlik tushunchasi

Hozirgi tilshunoslikda gap bo'laklari iyerarxiyasida faqat kesimning eng muhim bo'lak, gapning struktur asosi deb qaralishi gapni tashkil etuvchi sintaktik elementlar o'rtasidagi sintaktik aloqalar xarakteriga ham ta'sir qiladi. Har qanday gap predikat va uning argumentlari munosabati birligi sifatida qaralar ekan, predikat va uning argumentlari o'rtasidagi sintaktik munosabatlar tushunchasi hozirgi tilshunoslikda morfologik munosabatlar tiplarining boshqaruv, moslashuv, bitishuv kabi tahlili orqali emas, balki valentlik tushunchasi orqali belgilanadi. Sintaktik aloqa reallashgan valentlik sifatida qaraladi. Keyingi yillarda valentlik nazariyasi o'z muammosi jihatidan tilshunoslikda alohida soha sifatida ajrala boshladi. Bu termin aslida 1948-yilda S.D.Kaynelson tomonidan qo'llanilgan edi.

U so'zning gapda ma'lum tarzda reallashishi va boshqa so'z bilan ma'lum kombinatsiyaga kirishishi xususiyatini uning sintaktik valentligi hisoblaydi. S.D.Kaynelson bilan bir vaqtda, ammo o'zi mustaqil holda fransuz tilshunosi L.Tener ham 50-yillarda tobeklik grammatikasi doirasida valentlik nazariyasini ishlab chiqdi. Uning bu nazariyasi jahon tilshunosligiga keng tarqaldi, yangi-yangi tadqiqotlar vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Tener o'z grammatikasida gapni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida uning struktur asosi sifatida fe'lga tayandi.

Fe'l valentligi nazariyasiga ko'ra gap strukturasi predikat (ko'p hollarda fe'ldan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'rin ochadi. Gapning barcha komponentlari fe'l-predikat valentligi munosabatiga ko'ra u bilan bog'liq argument, aktant, agens, lokalis, kengaytiruvchilar kabi terminlar bilan bir-biridan farqlandi.

Valentlik nazariyasining mukammallashishida nemis tilshunosi G.Xelbig katta rol o'ynadi. U nemis tili materiallari asosida fe'lning valentlik modellarini ishlab chiqdi va "*Nemis tilidagi fe'llar valentliklari va distributsiyasi lugati*" ni tuzdi.

Dastlab valentlik nazariyasi valentlik tabiatini turlicha hal qiladigan ikki yo'nalish – forma va semantik yo'nalishga ajraldi. Keyingi davrlarda bu ikki yo'nalish orasida o'zaro yaqinlashish, so'z shakl va so'z leksik ma'nosi valentliklari o'rtasidagi munosabatning mavjudligiga e'tibor berilmoqda.

Hozirda valentlikning asosan ikki turi sintaktik (konfiguratsion) va semantik turlari ko'p tilshunoslarga yaxshi tanish. Sintaktik valentlik – ma'lum mustaqil so'zning boshqa mustaqil so'z bilan birika olish imkoniyati va semantika bilan ham bog'liq. Semantik valentlik leksemalar o'rtasidagi turli sintagmatik munosabatlarni

ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida "*sayramoq*" leksemasi qushlarning ovoz chiqarishi ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun u faqat kushlar so'zi bilan bog'lana oladi. Ammo u "*ko'p gapirish*" ma'nosi bilan "odam" sinfiga kiruvchilar bilan ham birikadi. Bu sayramoq leksemasining semantik valentligidir.

Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o'ziga tortish uchun ularning ma'lum sintaktik shaklda – kelishik, ko'makchi, ravishdosh, sifatdosh qo'shimchasini olishini talab qilishi. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqei, grammatik shakli tomonidan belgilanadi. Masalan, Xatni yozdi, Xat yozildi sintaktik qurilmalaridagi (xatni) va (xat) so'zlarining grammatik shakli bosh so'zning grammatik shakli bilan belgilangan[2].

Sintaktik valentlik lug'aviy valentlik bilan zich bog'langan, biri o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, yetakla leksemasi jo'nalish kelishigidagi otni o'ziga tortmaydi (Halimga yetakla tarzida). Lekin yetakla leksemasi orttirma nisbat shakli *-t* bilan shakllansa, (Halimga) so'zshakli unga tortila oladi. Bunda yetakla leksemasining sintaktik valentligi o'zgardi.

Lug'aviy va sintaktik valentlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular tez-tez o'zgarishga uchrab turadi. Masalan, Ashulachi «*hangradi*» birikuvida sintaktik valentlik o'zgarmasdan voqelangan, ammo lug'aviy valentlik yangilangan holda yuzaga chiqqan. Bunday hol ko'chma ma'no yuzaga chiqqanidan dalolat beradi. Xat yozildi, Xatni yozdi birikuvlarida ma'noviy valentlik joyida, biroq sintaktik valentlik o'zgargan. Bu turlicha sintaktik shakllar voqelanganligini ko'rsatadi. Biroq aytilgan har ikkala o'zgarish ham bir yoqlama – yo ma'noviy, yo sintaktik tabiatga ega. Agar o'zgarish birdaniga ikki tomonlama – ham lug'aviy, ham sintaktik bo'lsa-chi? Bunda derivatsiya sodir bo'ladi. Dalil sifatida ochmoq fe'lining lug'aviy va sintaktik valentliklarini aniqlash orqali bunga amin bo'lish mumkin:

1. *Tergovchi jinoyatni ochdi.*
2. *Jinoyat tergovchi tomonidan ochildi.*
3. *Amerikani Vespuchchi ochdi.*
4. *Gul ochildi.*

1- va 2-misolda ochmoq fe'li valentliklarini to'ldiruvchi so'z (tergovchi) ning ma'nosi o'zgarmagan, lekin sintaktik shakli (tergovchi – bosh kelishikda, tergovchi tomonidan – ko'makchili) o'zgargan. Demak, ochmoq leksemasining ma'noviy valentligi o'zgarishsiz saqlangan, sintaktik valentligi o'zgargan. Bu o'zgarish ochmoq fe'liga *-il* majhul nisbat qo'shimchasi tomonidan kiritilgan. 3-misolda esa fe'lning sintaktik valentligi o'zgarishsiz qolgani holda ma'noviy valentlik o'zgarishga uchragan. Chunki Amerika so'zining ma'nosi ochmoq fe'li ma'nosiga muvofiq kelmaydi. Ammo sintaktik shakli mos. 4-misolda esa ham ma'noviy, ham sintaktik valentliklar butkul o'zgargan. Chunki gul so'zi ochmoq fe'liga ma'noviy jihatdan mos emas. Bundan tashqari, birikuvchi so'zning sintaktik shakli (gul – bosh kelishik) ochmoq fe'lga *-il* qo'shimchasi qo'shilishi natijasida o'zgarishga uchragan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, leksemaning lisoniy valentligi ikkiyoqlama, ma'noviy tomoni unga qanday leksema birika olishi me'yor, chegarasini ko'rsatsa, sintaktik tomoni birikuvchi so'zning qanday grammatik qo'shimchani olishini belgilaydi.

Xulosa

Ma'lumki, har bir milliy til o'z taraqqiyotida mukammallashib boradi: uning grammatik va fonetik normalari barqarorlashadi, lug'at tarkibi esa boyib boradi. Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil formada ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

O'zbek tilida teng va tobe bog'lanish, shuningdek bog'lovchi vositalar an'anaviy tilshunoslikda shakliy-funksional tomondan ancha o'rganilgan. Bu sohada ko'pgina maqolalar, monografiya va qo'llanmalar nashr qilingan. Ammo ulardagi barcha holatlar aniq, ular oxirigacha o'z yechimini topgan deyish qiyin. Biz kichik tadqiqotimizda sintaktik aloqa turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish, munosabat bildirishni ma'qul deb bildik.

Aslida ba'zi mustaqil, so'zlar tilning taraqqiyoti va tarixiy takomillanishi protsessida so'zlar birikmasi tarkibida qo'shni so'zlarga qo'shib, enkliza holatida qo'shni so'zga tobelanib, ularga biror yo'sinda singib ketib, shaklan va mazmunan turlicha o'zgarishlarga uchrab, natijada, mustaqil shaklini, muayyan ma'nosini yo'qotib o'zi qo'shilgan so'zlar uchun bir affiks vazifasini bajara boshlaydi va shu

holatda affiksga aylanadi, degan turlicha ilmiy nazariya'ning haqiqat ekanini tasdiqlovchi bir qancha asosli dalillar mavjud.

Prezidentimiz aytganidek,” O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-manaviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi, ona tili bu millatning ruhidir”.

Tilimizdagi so‘zlar va muayyan grammatik format (affikslarning har biri til va tafakkurning zo‘r ehtiyojlari, hayotning keskin talablari bilan til taraqqiyoti protsessida biror konkret so‘z shaklidan paydo bo‘lgan: -ni, -ning, -ga, -da, -dan kabi kelishik affikslari aslida azaliy emas, ularning har birining o‘ziga xos muayyan tarixi va konkret rivojlanish qonuni borki, ilmiy analiz yo‘li bilan har bir so‘z va har bir affiksning paydo bo‘lish tarixi, rivojlanish qonunlari, taraqqiyot yo‘llarining ochilishi, aniqlanishi mumkin[3].

Aslida ba’zi mustaqil, so‘zlar tilning taraqqiyoti va tarixiy takomillanishi protsessida so‘zlar birikmasi tarkibida qo‘shni so‘zlarga qo‘shilib, enkliza holatida qo‘shni so‘zga tobelanib, ularga biror yo‘sinda singib ketib, shaklan va mazmunan turlicha o‘zgarishlarga uchrab, natijada, mustaqil shaklini, muayyan ma’nosini yo‘qotib o‘zi qo‘shilgan so‘zlar uchun bir affiks vazifasini bajara boshlaydi va shu holatda affiksga aylanadi, degan turlicha ilmiy nazariya'ning haqiqat ekanini tasdiqlovchi bir qancha asosli dalillar mavjud.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligining ilg‘or g‘oya va metodlarini o‘zlashtirgan holda uni yangi ilmiy dunyoqarashlar, zamonaga munosib talqinlar, fanning ilg‘or nazariyalari, manbalari bilan boyitishga harakat qilmoqda. Shuning natijasi sifatida A.Nurmonov va N.Mahmudovlar “O‘zbek tili nazariy grammatikasi”ni nashr qildilar. Bu ham ilgarigi sintaktik qarashlarga yangi izlanishlar samarasi sifatida katta hissa bo‘lib qo‘shildi va bu sohani jahon tilshunosligidagi chuqur sintaktik ma’lumotlar materiallar bilan to‘ldirdi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda sintaktik aloqalar haqidagi nazariy qarashlar, munosabatlar ham o‘zgarayotganligini aytib o‘tish o‘rinlidir. Ayniqsa kesimning asosiy markaziy bo‘lak ekanligi, ismlar va kelishiklar.

Kelishikli munosabatlar, ya'ni moslashuv va boshqaruv munosabatlarining aniq qoliplari ishlab chiqilishi til korpusi uchun juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Quyida bu ahamiyatlar bir necha asosiy yo'nalishda bayon qilinadi:

1. Sintaktik tahlil avtomatlashtiriladi. Agar boshqaruv va moslashuv munosabatlarining qoidalari va qoliplari aniq belgilansa:

- Til korpusidagi har bir gap avtomatik ravishda pars qilinadi (ya'ni, grammatik tuzilmasi aniqlanadi).
- Gapdagi bog'lanishlar (so'zlar orasidagi sintaktik munosabatlar) kompyuter tomonidan aniqlanadi. Bu korpusni sintaktik teglash (annotatsiya qilish) imkonini beradi. *Misol: "Kitobni o'qidim" gapida ot – fe'l munosabati boshqaruv orqali aniqlanadi (o'qimoq – -ni kelishigi). Qolip: ot + -ni + fe'l = Tushum kelishigi vositasida boshqaruv.*

2. Mashinali tarjima sifatini oshiradi. Mashinali tarjima tizimlari uchun:

Boshqaruv va moslashuv munosabatlarini tushunish — so'zlar qanday bog'lanishini bilish demak. Bu orqali so'z tartibi, ot-sifat, fe'l-to'ldiruvchi kabi birliklar tarjimada to'g'ri aks ettiriladi.

3. Tilshunoslik tadqiqotlari uchun asos.

- Korpus asosida statistik tahlil qilish mumkin bo'ladi: qaysi boshqaruv/moslashuv turlari ko'proq uchraydi, qanday holatda ishlatiladi.
- Yangi til modellari (masalan, o'zbek tili uchun LLMlar) qurishda bu strukturaviy axborotdan foydalanish mumkin.

4. Til o'rgatishda foydali vosita. Ayni qoliplar asosida interaktiv mashqlar, sintaktik konstruktorlar yaratish mumkin. Bu talabalarga tilning ichki tizimini tushunishda yordam beradi.

5. Tilni rasmiylashtirish (formalizatsiya) imkoniyati. Tildagi boshqaruv va moslashuv munosabatlari aniq formulalar ko'rinishida ifodalansa, ular kompyuterga tushunarli bo'ladi. Bu esa grammatik qoidalarni algoritmik tarzda yozishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi. 1987.
2. G. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi. 1979.
3. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1995.
4. I. A. Karimov. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – T.,2010, 83-b
5. A. N. Kononov. Grammatika sovremennogo tureykogo literaturnogo yazıka. M. 1956, 78-97-betlar.
6. N.A. Baskakov. Karakalpakskiy yazık, 1 chast 1 izd-vo AN Moskva, 1956, 196-197 betlar. Shu avtor, Osootnosheniya i ukazatelniy mestoimenii v tyurskiy yazıkax. Dokladi i soobsheniya AN. 1. 1956, 135- bet.
7. S.E. Malov, Pamyatniki drevnego-tyurskoy pismennosti izd. AN M. 1951, 187-198 betlar.
8. Prof. V.V. Reshetov. Ob odnom uzbekskom padeje, Tyurkologicheskiy sbornik. 1 izd AN M. 1956 176-bet.
9. G. I. Ramstedt, Vvedenie v altayskoe yazıkoznanie, izd İn. Lit.
10. E. V. Sevortyan, Kategoriya padeja. İssledovaniya po sravnitelnoy grammatike tyurskiy yazıkov, N. 1956, 45-57 betlar.
11. A. M. Sherbak, Grammaticheskiy ocherk yazıka tyurskiy tekstov. XX-XIII v.v. iz vostochnogo Turkestana, izd AN M. 1961, 78-91 betlar.
12. Prof. A. K. Borokov, İz materialov dlya istorii uzbeskogo yazıka, Tyurkologicheskiy sbornik İz-vo AN M. 1956 74-78 betlar.
13. A.G. G'ulomov, O'zbek tilida kelishiklar, O'zFa asarlari Toshkent, 1941, Filologiya I Ikitob 5-85 bet.
14. Faxri Kamol, O'zbek orfografiyasi haqida O'quvpeddavnashr, Tosh. 1957 32-35 bet.

15. Sh. Shoabdurahmanov, O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari, Tosh1962. 141g’150 bet.

16. F. Abdullayev, Kelishik affikslarining genezisiga doir. «O‘zbek tili va adabiyoti masalalari» jurnali, 5-son 1961 27 –bet.

17. K. Karimov, Kategoriya padeja v yazıke «Kutadgu bilig», Avtoref. Kand. Diss. Tosh 1962.

**YANGI UZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI
BARPO ETISHNING TARIXIY ZARURATI VA ISTIKBOLLARI (2020 -2030
YILLAR MISOLIDA)**

Mengniyazova Nazira

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
1-bosqich tarix mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Yangi taraqqiyot yo‘li doirasida shakllanayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasining tarixiy asoslari, hozirgi islohotlar bilan bog‘liqligi va istiqboldagi ilmiy-ma‘naviy salohiyati tahlil qilinadi. 2020–2030 yillarda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, ta‘lim, fan, innovatsiya va ma‘naviyat yo‘nalishidagi yutuqlar asosida uchinchi milliy uyg‘onish poydevori yaratilmoqda. Maqolada faktlarga asoslangan dalillar va tahliliy yondashuv orqali mavzuning dolzarbligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston, milliy uyg‘onish, ilm-fan, ta‘lim, innovatsiya, islohotlar.

Abstract

This article analyzes the historical foundations of the idea of the Third Renaissance, which is being formed within the framework of the New Development Path of the Republic of Uzbekistan, its connection with current reforms, and its future scientific and spiritual potential. The foundation of the third national revival is being created on the basis of state policy, achievements in education, science, innovation, and spirituality implemented in 2020–2030. The article highlights the relevance of the topic through factual evidence and an analytical approach.

Keywords: Third Renaissance, New Uzbekistan, national revival, science, education, innovation, reforms.

Абстрактный

В статье анализируются исторические основы идеи Третьего Возрождения, формирующейся в рамках Нового пути развития Республики Узбекистан, ее связь с текущими реформами, ее будущий научный и духовный потенциал. На основе государственной политики, достижений в образовании, науке, инновациях и духовности, реализуемых в 2020–2030 годах, создается фундамент третьего национального возрождения. В статье подчеркивается актуальность темы с помощью аргументов, основанных на фактах, и аналитического подхода.

Ключевые слова: Третий Ренессанс, Новый Узбекистан, национальное возрождение, наука, образование, инновации, реформы.

1. Kirish

O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda milliy tarixdagi yuksalish davrlariga e‘tibor yana-da kuchaymoqda. Bu davr “Yangi O‘zbekiston” deb nom olgan davr bo‘lib, unda mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy va iqtisodiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tarixiy bosqichda davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan **Uchinchi Renessans** g‘oyasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo‘nalishiga aylangan.

Uchinchi Renessans – bu o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosiga asoslangan holda, zamonaviy ilm-fan, texnologiyalar va ma‘naviyatni uyg‘unlashtirgan intellektual uyg‘onish davridir. U birinchi (IX–XII asrlar) va ikkinchi (XIV–XV asrlar) Renessans davrlarining mantiqiy davomi sifatida tarixiy zarurat bo‘lib shakllandi. Bu uyg‘onishning poydevori aynan 2020 yildan boshlab izchil islohotlar bilan barpo etilmoqda.

Uchinchi Renessansga oid g‘oyaviy, ilmiy va siyosiy asoslar bir necha manbalarda keng tahlil qilingan. Masalan, akademik T. Jalilov (2021) bu davrni “milliy o‘zlikni anglash va global raqobatga intellektual kuch bilan javob qaytarish davri” deb ataydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagilar qayd etilgan:

“Agar biz Uchinchi Renessansni barpo etishni istasak, avvalo, yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, tafakkuri teran, sog‘lom va vatanparvar qilib tarbiyalashimiz kerak.”

Yevropa Ittifoqi (EU), UNESCO, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar O‘zbekistonning 2020-yildan boshlab amalga oshirayotgan ta’lim, raqamli texnologiyalar va ilm-fan sohasidagi yutuqlarini ijobiy baholab kelmoqda. Xususan, 2022-yilda Jahon banki hisobotida O‘zbekiston “o‘rta daromadli mamlakatlar ichida eng jadal islohot qilayotgan davlat” sifatida qayd etilgan.

Ushbu tadqiqotda Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonini chuqur va tizimli o‘rganish maqsadida quyidagi ilmiy metodlar asosida yondashuv amalga oshirildi:

- **Tarixiy-tahliliy metod** – Bu usul orqali IX–XII va XIV–XV asrlardagi Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari o‘rganilib, ularning ilmiy-ma’naviy asoslari bilan Yangi O‘zbekiston davridagi uyg‘onish jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Tarixiy uyg‘onishlar asosida bugungi kun ehtiyojlari tahlil qilindi.

- **Siyosiy-huquqiy hujjatlar tahlili** – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” va “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategik dasturlari asosida olib borilayotgan islohotlar o‘rganildi. Bu metod orqali siyosiy yondashuvning asosiy tamoyillari va ularning uyg‘onish g‘oyasi bilan o‘zaro aloqasi aniqlashtirildi.

- **Statistik tahlil** – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tegishli manbalar ma’lumotlariga tayangan holda, 2020–2024 yillar oralig‘ida ta’lim, ilm-fan, ijtimoiy infratuzilma va raqamli texnologiyalar sohasida erishilgan natijalar raqamli ko‘rinishda tahlil qilindi.

- **Komparativ (solishtirma) tahlil** – Uyg‘onish davrlari o‘rtasida qiyosiy o‘rganish ishlari olib borildi. Ilgari mavjud bo‘lgan milliy Renessans davrlaridagi omillar – ilm-fan yutuqlari, davlat siyosatining yo‘nalishlari, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishi hozirgi bosqichdagi o‘zgarishlar bilan taqqoslandi. Ushbu tahlil hozirgi davrda Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixiy zarurat ekanini isbotlashga xizmat qildi.

-
- Oliy ta’lim muassasalari sonining o‘sishi (2016–2024)

Yil	Oliy ta’lim muassasalari soni
2016	77

Yil	Oliy ta'lim muassasalari soni
2021	154
2024	211



2016–2024 yillar oralig'ida Oliy ta'lim muassasalari sonining izchil o'sishi yaqqol ko'rinmoqda. Bu Yangi O'zbekiston davrida ilm-fan va ta'limga berilayotgan e'tiborning yorqin isbotidir.

Uchinchi Renessans zarurati

Uchinchi Renessans g'oyasi bugungi O'zbekistonning demografik, iqtisodiy va madaniy sharoitlaridan kelib chiqadigan tabiiy va tarixiy zaruratdir. Aholi sonining 2024-yil holatiga ko'ra 37 milliondan oshgani, yoshlar ulushi esa 60% dan ko'proqni tashkil qilayotgani – mamlakat kelajagining yosh avlod qo'lida ekanini anglatadi. Bu esa ularga zamonaviy bilim, innovatsion tafakkur va raqobatbardosh salohiyatni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va intellektual salohiyatini to'g'ri yo'naltirish, ularda global dunyoqarashni shakllantirish, madaniy merosga sadoqat va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini uyg'otish – Uchinchi Renessansning asosiy g'oyalaridan biridir. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

“Yangi O'zbekiston – bu avvalo ma'naviyatli jamiyat, bilimli va tarbiyali yoshlar davlati.”

2021-yil 14-yanvarda e'lon qilingan "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da Uchinchi Renessans g'oyasiga alohida urg'u berildi. Bu strategiyada yoshlar siyosatini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilash, ularni ilm-fanga, kreativ g'oyalar va innovatsiyalarga jalb etish maqsad qilib qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekistonda so'nggi yillarda 100 dan ortiq yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilishi, 30 dan ortiq xorijiy universitetlar filiallari ochilishi, ilmiy maqolalar sonining barqaror o'sishi, raqamli iqtisodiyot sohasining tez rivojlanishi bu jarayonning amaliy dalilidir.

Demak, Uchinchi Renessans g'oyasi nafaqat siyosiy-bayonot darajasida, balki **real statistik va institutsional o'zgarishlar bilan mustahkamlangan milliy harakat** bo'lib bormoqda. Uning zarurati – yoshlarning intellektual yuksalishiga tayangan holda O'zbekistonning global raqobat maydoniga chiqishida namoyon bo'ladi.

2020–2030 yillardagi asosiy yo'nalishlar:

Ta'lim sohasida Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va unga barqaror investitsiya kiritish jarayoni 2020-yillardan boshlab yangi bosqichga ko'tarildi.

1. Oliy ta'lim muassasalari sonining keskin ortishi

2016-yilda mamlakatda bor-yo'g'i 77 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 211 taga yetdi. Bu esa ta'limga doir ochiqlik, inklyuzivlik va innovatsion islohotlarning amaliy samarasidir. Ayniqsa, hududlarda yangi universitetlar ochilishi va xususiy oliygohlar sonining ortishi ta'limga bo'lgan talabni to'laqonli qondirish imkonini bermoqda.

2. Xalqaro ta'lim makoniga integratsiya

O'zbekistonda bugungi kunga kelib quyidagi xalqaro universitetlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda:

- **Westminster universiteti** (Buyuk Britaniya),
- **INHA universiteti** (Janubiy Koreya),
- **Turin politexnika universiteti** (Italiya),
- **MGIMO** (Rossiya),
- **Yeuju texnika instituti** (Koreya Respublikasi) va boshqalar.

Ushbu universitetlar O‘zbekiston yoshlari uchun xorijiy diplomga ega bo‘lish, xalqaro dasturlar orqali raqobatbardosh bilimlar olish imkonini yaratdi.

3. Xorijda ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi

2022-yil yakunlariga ko‘ra, 15 mingdan ortiq o‘zbekistonlik yoshlar turli xorijiy davlatlarda **grant asosida** o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning xalqaro ta’lim tizimidagi o‘rni tobora mustahkamlanayotganini anglatadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi, “Temurbeklar maktabi”, “Zamonaviy maktab” loyihalari yoshlar bilimga intilishiga kuchli turtki bermoqda.

2020–2030 yillardagi asosiy yo‘nalishlar: Raqamli texnologiyalar

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida **raqamli transformatsiya** – iqtisodiyotni, boshqaruvni va ijtimoiy sohalarni tubdan o‘zgartirish vositasiga aylandi. Ayniqsa, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" konsepsiyasi doirasida bir qator muhim natijalarga erishildi.

1. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategik dasturi asosida hozirgacha **300 dan ortiq davlat xizmati my.gov.uz, epigov, soliq.uz, e-auksion.uz** kabi elektron platformalar orqali **onlayn shaklga o‘tkazildi**. Bu orqali fuqarolar vaqt va mablag‘ni tejagan holda turli xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Masalan:

- Tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma olish,
- Soliq to‘lovlari va arizalar yuborish,
- Yuridik shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazish,
- Talaba kontrakt to‘lovlarini to‘lash va boshqalar.

2. IT Park infratuzilmasining kengaytirilishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi qaroriga asosan tashkil etilgan **IT Park** qisqa fursatda keng tarmoqqa aylandi. 2024-yilga kelib, IT Park’ning **17 ta hududiy filiali** ish boshladi. Bu filiallar:

- Toshkent,
- Namangan,
- Andijon,
- Farg‘ona,
- Samarqand,
- Buxoro,
- Navoiy,
- Xorazm,
- Qoraqalpog‘iston va boshqa hududlarda joylashgan.

Ularning asosiy vazifasi – mahalliy yoshlar orasida dasturlash, sun’iy intellekt, kibermuhandislik, raqamli biznes va startaplarni rivojlantirishdir.

3. “Raqamli ta’lim markazlari” ochilishi

2023-yilda O‘zbekistonning barcha hududlarida **“Raqamli ta’lim markazlari”** ishga tushirildi. Ushbu markazlarda:

- IT yo‘nalishlarida qisqa kurslar o‘tiladi (Frontend, Backend, UI/UX dizayn, Mobil ilovalar ishlab chiqish),
- 5 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uchun **bepul o‘quv kurslari** tashkil etilgan,
- Onlayn va oflayn shaklda zamonaviy bilimlar o‘rgatiladi.

Xulosa

Uchinchi Renessans – bu tasodifiy holat emas, balki tarixiy ehtiyojdir. Yangi O‘zbekiston bu uyg‘onish davrini ilm, ta’lim, texnologiyalar, ma’naviyat va siyosiy iroda asosida shakllantirmoqda. 2020–2030 yillar bu boradagi poydevor yili bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamlakatda yoshlarning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga, ilm-fan yuksalishiga, ma’naviyatning ustuvorlikka ega bo‘lishiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Ushbu maqolada keltirilgan dalillar, islohotlar, natijalar Yangi O‘zbekistonni Uchinchi Renessans sari dadil qadam qo‘yayotganini isbotlaydi. Kelgusida bu yo‘l yanada izchil va barqaror davom etishi uchun ta’lim, fan va innovatsiyani ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020–2023 yillar.
2. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2023.
3. Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari, 2020–2024.
4. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy ma’lumotlari.
5. Komilov A. “O‘zbek uyg‘onish davrlari”. – Toshkent, 2021.
6. UNESCO O‘zbekiston bo‘yicha ta’lim va madaniyat hisobotlari, 2023.
7. SCOPUS va WoS ilmiy maqolalar tahlili, 2020–2023.

UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYANI O'RGANISHDA INSON VA TABIAT MUNOSABATI

Dilfuza Ismoilova Ibodullayevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Texnologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi

Safarova Go'zal Anvarovna

Geografiya ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Umumiy tabiiy geografiya – bu Yer sirtidagi tabiiy hodisalar, jarayonlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadigan fan. Bugungi kunda bu soha aholi, iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarida muhim rol o‘ynaydi. Tabiiy geografiya resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal qilish va iqlim o‘zgarishlariga moslashish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Bundan tashqari, u turli mintaqalarning tabiiy sharoitlarini tahlil qilib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yo‘l ko‘rsatadi. Umumiy tabiiy geografiya bilimlari tabiiy ofatlar oldini olish, qishloq xo‘jaligi va turizmni rivojlantirish kabi sohalarda ham qo‘llaniladi. Shunday qilib, bu fan zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun asosiy vositaga aylangan.

Аннотация: Общая физическая география – это наука, изучающая природные явления, процессы и их взаимосвязи на поверхности Земли. В современном мире эта область играет важную роль в вопросах населения, экономики и охраны окружающей среды. Физическая география помогает рационально использовать ресурсы, решать экологические проблемы и разрабатывать стратегии адаптации к изменению климата. Кроме того, она анализирует природные условия различных регионов, направляя их экономическое и социальное развитие. Знания общей физической географии применяются в предотвращении стихийных бедствий, развитии сельского хозяйства и

туризма. Таким образом, эта наука стала ключевым инструментом обеспечения устойчивого развития в современном мире.

Abstract: General physical geography is the science that studies natural phenomena, processes, and their interrelationships on the Earth's surface. In the modern world, this field plays a crucial role in addressing issues related to population, economy, and environmental protection. Physical geography helps in the rational use of resources, solving ecological problems, and developing strategies for adapting to climate change. Additionally, it analyzes the natural conditions of various regions, guiding their economic and social development. Knowledge of general physical geography is applied in disaster prevention, agricultural development, and tourism. Thus, this science has become a key tool for ensuring sustainable development in the modern world.

Kalit soʻzlar: umumiy tabiiy geografiya, tabiiy resurslar, ekologik muammolar, iqlim oʻzgarishi, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова: общая физическая география, природные ресурсы, экологические проблемы, изменение климата, устойчивое развитие.

Keywords: general physical geography, natural resources, environmental issues, climate change, sustainable development.

Tabiat inson uchun hayot manbaidir. Biz nafas olayotgan havo, ichayotgan suv, isteʼmol qilayotgan oziq-ovqatlar barchasi tabiatdan olinadi. Insoniyat texnologik yutuqlarga erishgan boʻlsa-da, baribir u tabiatga qaram holda qolmoqda. Afsuski, sanoat va texnika taraqqiyoti bilan birga, atrof-muhitga nisbatan beparvolik ham kuchayib bormoqda. Oʻrmonlarning kesilishi, suv havzalarining ifloslanishi, hayvon va oʻsimlik turlarining yoʻqolib borishi — bularning barchasi inson faoliyatining salbiy oqibatlaridir.

Shu sababli, har bir inson oʻz hayot faoliyatida tabiatga ehtiyotkorlik bilan yondashishi zarur. Daraxt ekish, chiqindilarni saralab tashlash, suv va energiyani tejash kabi oddiy ishlar katta foyda keltiradi. Tabiatni asrash nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim hisoblanadi.

Tabiat — odamning paydo bo‘lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman — bu dunyo, odam, koinot; mikromakromega dunyolar; Jonsiz va jonli narsalar bor. Tor ma’noda — tabiat fanlari o‘rganadigan obyekt. Tabiat odamga, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatga bo‘ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o‘zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o‘zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi.

Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (mas., dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqa esa tabiatning ba’zi jihatlarini o‘zgartiradi. Odam tomonidan, ya’ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda „ikkinchi tabiat“ deyiladi. Masalan, vodoroddan urangacha bo‘lgan 92 ta kimyoviy element tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sun’iydir. Barcha sun’iy sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro energiyalari „ikkinchi tabiat“ga kiradi.

Tabiat atamasi keng ma’noda fizik, material olamni bildiradi. Kundalik turmushda „tabiat“ so‘zi ostida odam ta’siri ostida ko‘p bo‘lmagan atrof-muhit va undagi hayot (yovvoyi tabiat) nazarda tutiladi. Birinchi holda tabiatni umuman fan, ikkinchi holda esa tabiatshunoslik o‘rganadi. Bunda tabiat subatomdan galaktik miqyoslarga bo‘lib ko‘riladi. Odamning tabiatga munosabati tarixda o‘zgarib va rivojlanib bordi. Antik falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in’ikosi (Platon), uyg‘un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta’limotlarda tabiat ruhiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb xisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg‘onish davrida tabiatga hamma tabiiy uyg‘unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida qaraldi. Yangi davrda tabiatga bo‘lgan munosabat tabiatning ilmiy o‘rganish ob’yektiga aylanishida katta rol o‘ynadi.

Tabiat ob’yekti fazo va vaqtda mavjud modda, materiyadir. Ular cheksiz ma’lum narsalarning (elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq, suv, havo, jonsiz va jonli mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar) majmuidan iboratdir. Bir vaqtlar (fanning so‘nggi ma’lumotlari bo‘yicha bundan 20 milliard yil avval) bu jismlar boshqa ko‘rinishda bo‘lgan. Bo‘lajak milliard yillarda u yana o‘zgarib boradi. Tabiat odamning, jamiyatning vatani. Odamning hayoti

tabiatning, biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq. Bu sharoit salbiy tomonga o'zgartirilsa, odamning normal yashashiga putur yetkaziladi, ekologik muammolar paydo bo'ladi. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish — biosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish lozim (qarang: Tabiatni muhofaza qilish). Insonning tabiatga bunday munosabatda bo'lishida fan asosiy omil bo'lib kelmoqda. Yer va koinotda insonning faoliyati faollashmoqda. Koinotning uzoq-uzoq joylari (mas., metagalaktikalari)da, t yuz berayotgan hodisalarni kengroq va chuqurroq bilish tabiat haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Tabiatni muhofaza qilish - tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi...

Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5–4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalari, masalan, ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplaminin tarkib

topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o‘zaro ta’siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo‘lishi, raqib turlar sonining ko‘payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o‘zgarishi natijasida o‘zgaradi.

Yerda odamning paydo bo‘lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tubdan o‘zgartirib yubordi. Inson tabiatga mehnat qurollari vositasida yaylovlardan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida ta’sir ko‘rsatadi. U o‘zining tabiat bilan bo‘lgan o‘zaro ta’siri usullarini takomillashtirib boradi. Natijada inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko‘lam jihatidan ham ko‘payadi. Inson o‘zi yashashi va faoliyat ko‘rsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sun‘iy muhitni ham bunyod etadi. Masalan, shaharlar, turar joy binolari, bog‘lar, suv omborlari, yo‘llar va boshqa Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan, tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o‘zgarib boradi. Qadimda bir necha xil kimyoviy elementlardan foydalanilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda mavjud barcha elementlardan foydalaniladi. Shu bilan birga ko‘pchilik foydali qazilmalar tobora ko‘proq qazib chiqarilmoqda. Insonning tabiatga ta’siri kuchayishidan, antropogen landshaftlar ko‘paymoqda. Hayvonot va o‘simlik olamidanda rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog‘liq boshqa sabablar tufayli 16-asrning oxirlaridan 20-asrning 70yillarigacha umurtqali hayvonlarning 250 turi va kichik turlari butkul yo‘qolib ketdi.

80-yillardan boshlab xar yili o‘rtacha 1 ta hayvon turi va 50 ga yaqin o‘simlik turi yo‘qolib bormoqda. Qush va sut emizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Yil davomida 1 milliard tonna yoqilg‘i yoqiladi, atmosferaga yuzlab million tonna azot oksidi, oltingugurt, uglerod, qurum, chang va boshqalar chiqariladi. Tuproq va suvlar sanoat va maishiy chiqindilar (bir necha milliard tonna), neft mahsulotlari (bir necha million tonna), mineral o‘g‘itlar (yuz million tonnaga yaqin), og‘ir metallar, radiaktiv chiqindilar bilan ifloslanadi.

Inson tabiiy sharoit va boyliklardan ko‘p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa ayni paytda, tabiatni tegishlicha muhofaza qilishni ham taqozo etadi. Bular: xo‘jalik, sog‘liqni saqlash va gigiyena, nafosat (estetik), turizm, ilmiy hamda tarbiyaviy maqsadga muvofiq foydalanish. Maqsadga muvofiq foydalanish deganda, tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo‘lida foydalanish tushuniladi.

Bunda hozirgi va kelajak avlodning manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritish nazarda tutiladi. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o'zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro'y beradigan jarayonlarning o'zaro bog'likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni xisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Inson tabiatdan foydalanganda va unga ta'sir ko'rsatayotganda bilishi va faoliyatida amal qilish zarur bo'lgan, asosan, 5 qonuniyat mavjud: 1) tabiatdagi barcha komponent va elementlar o'zaro bir-birlari bilan bog'langan, o'zaro ta'sir etib, muayyan muvozanatda bo'lib, uyg'unlik hosil qilgan. Biron komponent yoki element o'zgarsa, butun tabiiy kompleksda o'zgarish ro'y beradi; 2) tabiatda to'xtovsiz modda va energiyaning aylanma harakati ro'y berib turadi. Bu xayot asosi; 3) tabiiy jarayonlarning rivojlanishida muayyan davriyliklar mavjud (sutkalik, yillik, 12 yillik, 33-35 yillik va ko'p yillik); 4) zonallik; 5) regionallik. Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish texnikasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o'zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba'zan chuqur o'rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta'sir ko'rsatish tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Pekin 19-asrgacha insonning tabiatdan foydalanish ko'lami uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta'siri ham kamroq bo'lgan.

20-asrning 2-yarmida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi, qishloq xo'jaligida turli xil kimyoviy moddalarning ko'p qo'llanishi, katta maydonlarda muttasil bir xil ekinlarning yetishtirilishi, transport vositalarining ortiqcha ko'payib ketishi, shaharlarning yiriklashib ketishi, tabiat muhofazasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tabiiy muhitning buzilishiga, ayrim joylarning ifloslanib ketishiga sabab bo'ldi. Ayrim konchilik sanoati rayonlarida tabiiy muhit juda buzilib ketgan. Katta maydonlarni kon chiqindi jinslari egallagan, chuqur ochiq karyerlar yer osti suvi sathini pasaytirishi natijasida o'simlik qoplami qurib bormoqda. Rekultivatsiya

ishlariga, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda yetarlicha e'tibor berilmaydi. Hozirgi vaqtda Tabiatni muhofaza qilish muayyan o'lka yoki mamlakat doirasidan chiqib, umumjahon muammosiga aylanib bormoqda. Yerning ozon pardasidagi o'zgarishlar, dunyoda haroratning ko'tarilib borayotgani, qutbiy va tog' muzliklarining qisqarib borayotgani ana shunday muammolardan. Ayniqsa, qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklarning kamayib borayotganligi va atrof tabiiy muhitning ifloslanayotgani bir qancha mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ko'rishga majbur etdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda o'rmonlarni kesish cheklandi, yerdan kadastr asosida foydalaniladigan bo'ldi, daryo va ko'llar suvlari tozalanib, baliqlarni ko'paytirish boshlandi. Ovchilik tartibga solindi, qo'riqxonalar, muhofaza qilinadigan hududlar ko'paytirildi. Biroq 20-asrning o'rtalaridan boshlab zararli chiqindili ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirila boshlangani bu mamlakatlarda atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli tabiatni muhofaza qilishga yetarli mablag' ajratishga qodir emas. Tabiatni muhofaza qilish sohasida xalqaro qat'iy hamkorlikning yo'qligi ham tabiiy boyliklardan foydalanishda va tabiatni muhofaza qilishda yetarlicha samara bermayapti.

Hozirgi vaqtda tabiatni muhofaza qilishni ta'minlash masalalari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Lekin bularni amalga oshirish juda katta mablag' sarflashni talab qiladi. Buning ustiga qirg'in qurollarini ishlab chiqarish, ularni saqlash ham tabiiy muhitning ifloslanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qirg'in qurollarni ishlashni ta'qiqlash, borlarini yo'qotish ham tabiat muhofazasida katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 20-asrda, ayniqsa, uning 2-yarmida qishloq xo'jaligida monokultura tizimining qo'llanishi, gerbitsid va pestitsidlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi, mavjud suv zaxiralaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida atrofmuhit holatida katta salbiy o'zgarishlar ro'y berdi. Orol dengizi deyarli quridi, uning atrofida cho'llashish kuchayib ketdi, yer osti suvlari sho'rli darajasi oshdi. Inson salomatligi uchun zarur sharoit buzildi, kamqonlik, gepatit, zotiljam kabi kasalliklar ko'paydi. Paxta monokulturasi ta'sirida boshqa hududlarda ham inson hayoti uchun zarur bo'lgan ekologik vaziyat yomonlashdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan boshlab, tabiatni muhofaza qilishga, respublika hududini ekologik tanazzuldan muhofaza qilishga kirishdi. Tabiatni va uning komponentlarini muhofaza qilish to'g'risida bir qancha qonunlar qabul qilindi. Bular „Tabiatni muhofaza qilish

to'g'risida" (1992-yil 9-dekabr), „Suv va suvdan foydalanish to'g'risida“ (1993-yil 6-may), „Yer osti boyliklari to'g'risida“ (1994-yil 23 sentabr; 2002-yil 12 dekabrda yangi tahrirdagi), „Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida“ (1996-yil 27-dekabr), „O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida“ va „Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida“ (1997-yil 26 dekabr), „Davlat kadastrlari to'g'risida“ (2000-yil 15 dekabr), „O'rmon to'g'risida“ (1999-yil 15-aprel), „Chiqindilar to'g'risida“ (2000-yil 5-aprel)gi qonunlardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100-moddalarida tabiatni muhofaza qilishga oid normalar bayon etilgan. Konstitutsiyaning 11-bobining 50-moddasida „Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar“, deb ko'rsatilgan. 55-moddasida „Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir“, deyilgan. Mamlakatimizda „Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi“ tashkil qilingan (1996-yil 26 aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi). Qo'mita quyidagi vazifalarni bajaradi: atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan nazorat qilish; tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tarmoklararo kompleks boshqarish; tabiatni muhofaza qilish hamda resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish; atrofmuhitning ekologik holati qulay bo'lishini ta'minlash, ekologik vaziyatni boshqarish. O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish sohasida bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va dasturlarda, jumladan, BMTning atrofmuhit bo'yicha dasturi (YUNEP)da ishtirok etadi. YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda Biologik xilmaxillikni saqlashning milliy strategiyasi va 10 dan ortiq milliy ekologik qonunlar ishlab chiqildi. 1993-yil mart oyida Qozog'istonning Qizilo'rda shahrida O'rta Osiyodagi 5 davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo kengash va uning ijroiya qo'mitasi hamda Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Uning vazifasi Orol dengizi, uning sog'lom ekologik sharoitini tiklash, mazkur regionni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, hudud sanitariyagigiyena muxitini yaxshilashdir.

O'zbekistonda 10 dan ortiq o'rmon xo'jaligi, 9 ta qo'riqxon, 2 milliy bog', bir qancha buyurtma qo'riqxon mavjud. Ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o'simlik va hayvonlar qo'riqlanadi, o'rganiladi va ko'paytiriladi. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish respublika jamiyati, 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston

jamiyati, O‘zbekiston geografiya jamiyati, EKOSAN, bir qancha ilmiyomabop va ilmiy jurnallar, radio va televideniye vaqtli matbuot Tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilmoqda. Aholi o‘rtasida tabiat, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini ko‘tarish Tabiatni muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish, geografik ekologiya o‘quv kurslari o‘rta maxsus va oliy yurtlarining tabiatshunoslik mutaxassisliklari talabalariga maxsus kurslar sifatida o‘qitilmoqda.

Xulosa

Inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik hayotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, uni asrab-avaylash har bir insonning burchidir. Agar biz atrof-muhitni asrasak, u ham bizga toza havo, toza suv va sog‘lom hayot bilan javob qaytaradi. Demak, tabiatni muhofaza qilish — bu faqatgina tabiatni emas, balki insoniyat kelajagini asrashdir. Har birimiz tabiatga mehr bilan qarasak, yashil va sog‘lom kelajakni yaratish imkoniga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Anuchin V. A. *Teoreticheskiye osnovi geografii*. ML, 1972.
2. Zokirov Sh. S. *Landshaftshunoslik asoslari*. T., 1994.
3. Hasanov I. A., G‘ulomov P. N. *O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi*. T., 2002.
4. Kalesnik S. V. *Obshiy geografiyecheskoye zakonomernosti Zemli*. M., 1970.
5. Milkov F. N. *Obsheye zemlevedeniye*. M., 1990.
6. Yurenkov G. I. *Osnovnie problemi fizicheskoy geografii i landshaftovedeniye*. M., 1982.

**SPATIFILLUM (SPATHIPHYLLUM WALLISII): UY SHAROITIDA
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.**

Mengatova Xurshida Toshmuhamatovna

TDMAU “Avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrası o`qituvchisi:

xurshidamengatova@gmail.com , +99890 519 00 72

Umbarova Muxlisa Muxiddin qizi

TDMAU talabasi:

muxlisaumarova@gmail.com , +998 91 584 83 06

Kalit so`zi: spatifillum, botanika, tropic, Araceae oilasi, kompleks o`g`it, spath, tinchlik zambaklar, ...

Annotatsiya: Ushbu maqolada spatifillum gulining o`sinh joyi, xonakilashgan spatifillum gulining o`stirish texnologiyasi,

Ekologik foydasi va amaliy imkoniyatlari



Spathiphyllum — [Amerika](#) va Janubi-
Sharqiy [Osiyoning](#) tropik mintaqalarida
tarqalgan [Araceae](#) oilasiga mansub [bir urug` pallali gulli](#)
[o`simliklarning](#) taxminan 47 turi
hisoblanadi. Spathiphyllumning ma`lum turlari
odatda **spath** yoki **tinchlik zambaklar** deb ham
nomlanadi.

Tropik hududlardan kelib chiqqan spatifillum o`simligi nafaqat o`zining chiroyli ko`rinishi, balki havo sifatini yaxshilash xususiyati bilan ham mashhur. So`nggi yillarda ekologik toza yashash muhitiga ehtiyoj oshib borayotgani sababli, uy sharoitida parvarish qilinadigan foydali o`simliklarga bo`lgan qiziqish ortmoqda. Shu sababli spatifillumni ilmiy jihatdan o`rganish dolzarbdir. Ushbu maqolada spatifillumning biologiyasi, parvarish texnologiyasi, ekologik va amaliy jihatlari, kimyoviy tarkibi hamda biznes g`oyalari tahlil qilinadi.



1. Botanika tavsifi va tarqalishi *Spatifillum* – Araceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, tabiiy holatda asosan Janubiy va Markaziy Amerikaning tropik o‘rmonlarida uchraydi. U 30-120 sm gacha o‘sishi mumkin. Gullari oq rangli, barglar keng, uzunchoq va quyuk yashil rangda.

2. Parvarish texnologiyasi Yorug‘lik - Tarqoq yorug‘likni xush ko‘radi, bevosita quyosh nurlaridan saqlanish kerak. Harorat optimal harorat 18–25 °C da, Yuqori namlikni yaxshi ko‘radi, barglarini tez-tez purkash tavsiya etiladi. Gumusga boy, yaxshi drenajlangan tuproq mos keladi. Haftada 2-3 marta,

lekin ortiqcha suvdan saqlanish kerak. O‘shish davrida har 2 haftada bir marta kompleks o‘g‘it bilan oziqlantirish kerak.

3. Ko‘paytirish usullari *Spatifillum* odatda ildiz bo‘linmasi orqali ko‘paytiriladi. Bahor yoki erta yozda ona o‘simlik ildizidan ajratilgan kichik bo‘limlar alohida idishlarga ekiladi. Bu usul oddiy va tez natija beradi.

4. Kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlari: Hozircha ilmiy adabiyotlarda *spatifillum*ning dorivor tarkibi to‘liq o‘rganilmagan, ammo ayrim xalq tabobatida u yengil tinchlantiruvchi, havoni tozalovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Tarkibida flavonoidlar, efir moylari mavjud bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Ularning havodagi toksik gazlarni yutishdagi roli ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

5. Ekologik foydasi

NASA tomonidan o‘tkazilgan “Clean Air Study” (1989) tadqiqotlariga ko‘ra, *spatifillum* havodagi formaldegid, benzol, trixloretilen, ksilen va ammoniy gazlarini yutish qobiliyatiga ega. Shuningdek, kislorod ishlab chiqarish faoliyati ham yuqori. Bu xususiyatlar uy va ofis sharoitida uning foydasini oshiradi.

Spatifillum – nafaqat go‘zallik, balki salomatlik manbai hamdir. Uning havo tozalovchi xususiyatlari, parvarishdagi soddaligi, ekologik foydasi va iqtisodiy jihatdan samarali qo‘llanilishi uni tadqiq qilish va amalda keng joriy etishni taqozo qiladi. Ushbu maqola orqali *spatifillum*ning imkoniyatlarini chuqurroq anglash va undan ilmiy hamda amaliy maqsadlarda foydalanish yo‘llari tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wolverton, B.C. (1989). Interior Landscape Plants for Indoor Air Pollution Abatement. NASA.
2. Qosimov B. – O‘simlikshunoslik asoslari, Toshkent, 2020.
3. Золотницкий Н.Ф. – Мир комнатных растений.
4. „[Is a peace lily an indoor or outdoor plant? - Gardening Host](#)“ (en-US) (2022-yil 23-dekabr). 2022-yil 23-dekabrda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2022-yil 23-dekabr.
5. Heinrich Wilhelm Schott and Stephan Endlicher. [Meletemata botanica](#). C. Gerold, made available online by The Biodiversity Heritage Library, 1832.
6. Stearn, W. T.. *Botanical Latin: History, grammar, syntax, terminology and vocabulary, Fourth edition*. David and Charles, 1992.
7. „[Search results — The Plant List](#)“. www.theplantlist.org.
8. Edward F. Gilman. „[Spathiphyllum x 'Clevelandii', Fact Sheet FPS-555](#)“. University of Florida Cooperative Extension Service (1999).

Internet saytlar.

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Spathiphyllum>
2. <https://plants.ces.ncsu.edu/plants/spathiphyllum/>.
3. <https://nasa.gov/clean-air-study>.

AKADEMIK VOKAL TEXNIKALARINING YOSH AVLOD TA'LIMIDA QO'LLANISHI

Farrukh Gaybulloyevich Nurullayev

Bukhara State Pedagogical Institute, PhD professor,
Department of Music and Fine Arts

Shuhrat Idiyevich Qodirov

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik vokal texnikalarining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati, ularni to'g'ri va samarali qo'llash usullari, hamda vokal texnikalar orqali yoshlarning musiqiy didi, ijro mahorati va psixofiziologik rivoji haqida so'z boradi. Tadqiqotda vokal texnikalarining asosiy turlari, ularning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan shakllari, vokal pedagogikasida qo'llanishi va zamonaviy metodik yondashuvlar asosida o'rganilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada vokal san'atining estetik, tarbiyaviy va psixologik imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so'zlar: akademik vokal, yosh avlod, vokal texnika, musiqiy ta'lim, pedagogik metodika, ovoz rivoji, estetik tarbiya, psixologik ta'sir.

Аннотация: В статье рассматривается значение академических вокальных техник в воспитании подрастающего поколения, методы их правильного и эффективного применения, а также формирование музыкального вкуса, исполнительского мастерства и психофизиологического развития молодых людей посредством вокальных техник. В исследовании анализируются основные виды вокальных приемов, их формы, адаптированные к возрастным особенностям, их применение в вокальной педагогике, а также их изучение на основе современных методических подходов. В статье также рассматривается эстетический, образовательный и психологический потенциал вокального искусства с педагогической точки зрения.

Ключевые слова: академический вокал, молодое поколение, вокальная техника, музыкальное образование, педагогическая методика, развитие голоса, эстетическое воспитание, психологическое воздействие.

Abstract: This article discusses the importance of academic vocal techniques in the education of the younger generation, methods of their correct and effective application, as well as the musical taste, performance skills and psychophysiological development of young people through vocal techniques. The study analyzes the main types of vocal techniques, their forms adapted to age characteristics, their use in vocal pedagogy and their study based on modern methodological approaches. The article also highlights the aesthetic, educational and psychological potential of vocal art from a pedagogical point of view.

Keywords: academic vocal, young generation, vocal technique, musical education, pedagogical methodology, voice development, aesthetic education, psychological impact.

Kirish Musiqa san'ati, xususan, vokal ijrochilik yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, akademik vokal texnikalari orqali bola nafaqat musiqiy ko'nikmalarga ega bo'ladi, balki estetik tarbiya, fe'l-atvor barqarorligi va o'ziga ishonch kabi psixologik fazilatlarni ham shakllantiradi. Vokal mashg'ulotlari bolada intizom, diqqatni jamlash, o'zini nazorat qilish kabi ijobiy fazilatlarni ham rivojlantiradi. Akademik vokal mashg'ulotlari orqali nafas olish, tovush chiqarish, artikulyatsiya, rezonans, intonatsiya kabi ko'plab texnik ko'nikmalar o'rgatiladi. Bu esa yosh vokalchilarni keyingi bosqichlarda professional sahna uchun tayyorlaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida musiqiy tarbiyaning o'rnini tobora ortib borayotgani bois, akademik vokal texnikalarini yosh avlodga o'rgatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu texnikalar nafaqat musiqiy saviyani oshiradi, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, nutq madaniyati, sahna madaniyati kabi jihatlarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, maqolada ushbu texnikalarning yoshlar o'qitilishidagi amaliy ahamiyati, metodik jihatlari va ta'limiy samaradorligi ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Akademik vokal texnikalari - bu professional vokal ijrochilikda ishlatiladigan tovushni to'g'ri chiqarish va nazorat qilishga oid tizimli usullar majmuasidir. Ushbu texnikalar quyidagilardan iborat:

○ **Nafas texnikasi:** diafragma yordamida to'g'ri nafas olish va uni nazorat qilish orqali ijro sifatini oshirish. Nafas olish madaniyati vokal texnikaning eng asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

○ **Fonatsiya texnikasi:** tovush paychalari faoliyatini boshqarish orqali sifatli, toza va barqaror tovush chiqarish imkonini beradi. Bu texnika vokal barqarorligi va ohangdorligiga xizmat qiladi.

○ **Artikulyatsiya va diktsiya:** aniq talaffuz, so'zlarning ravshan ifodasi orqali tinglovchi bilan emotsional aloqa o'rnatiladi. Bu esa ijroning ta'sirchanligini oshiradi.

○ **Rezonans va registrlar:** tovushning har xil registrlarda tabiiy va kuchli yangrashini ta'minlash orqali ijroni boyitadi. Bu texnikalar yuqori va past tovushlar orasidagi o'tishni silliq qiladi. Ushbu texnikalarning har biri vokal pedagogikada alohida bosqichlar asosida o'qitiladi. Har bir texnikaning o'ziga xos mashqlari, metodikasi va o'rgatish ketma-ketligi mavjud bo'lib, bu o'quvchining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi.

Bolalar va o'smirlar ovoz apparati katta yoshdagilarnikidan farq qiladi. Ularning tovush paychalari hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun akademik vokal mashg'ulotlarida yoshga mos metodik yondashuv zarur:

1. 7-10 yoshdagi bolalarda musiqiy eshituvni rivojlantirish, ritm tuyg'usini shakllantirish, to'g'ri nafas olish va oddiy intonatsion mashqlar ustuvor bo'ladi. Bu bosqichda o'yin elementlari orqali qiziqish uyg'otish muhimdir.

2. 11-14 yoshdagi o'quvchilarda rezonansli yangrash, diapazonni kengaytirish, emotsional ifoda ustida ishlanadi. Ovozga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish va asta-sekin texnikalarni murakkablashtirish tavsiya etiladi.

3. 15-18 yosh oralig'ida esa vokal texnikalar chuqurlashtirilib, sahna madaniyati, ijro erkinligi, repertuar tanlovi, ovoz registrlarini mustahkamlash, artistik ifoda ko'nikmalari rivojlantiriladi. Yosh xususiyatlariga mos vokal repertuar tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh guruhiga moslab tanlangan qo'shiqlar bolalarning vokal salohiyatini ochish, ularni charchatmasdan rivojlantirish imkonini beradi.

Amaliy vokal darslari quyidagi metodlarga asoslanadi:

– Individual va guruhli mashg'ulotlar: bu usul o'quvchining vokal darajasiga qarab yondashishga imkon beradi. Guruhli darslar ijtimoiylashuv va musiqiy eshituvni rivojlantiradi.

– Ovozli mashqlar (vokalizlar, glissando, stakkato, legato): bu mashqlar orqali vokal texnikaning muhim elementlari o'rganiladi.

– Musiqiy eshituv va solfeggio bilan integratsiya: nazariy bilimlar amaliy ijro bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa ijrochilikni puxta asoslaydi.

– Oyna orqali o'zini kuzatish, video-yozuvlar bilan ishlash: bu metod o'quvchining o'z ustida ishlashiga va xatolarni mustaqil tahlil qilishiga imkon beradi. Pedagog vokal texnikani o'rgatishda ovozga zarar yetkazmaslik, ortiqcha bosim bermaslik, bolada qiziqish uyg'otish kabi omillarga e'tibor qaratadi. Bu omillar bolalarda ovozga nisbatan ongli va ehtiyotkor munosabat shakllanishiga olib keladi.

Akademik vokal mashg'ulotlari orqali o'quvchining nafaqat musiqa madaniyati, balki ichki dunyosi, psixologik holati ham o'zgaradi. To'g'ri nafas olish stressni kamaytiradi, ijro qilish esa o'ziga ishonchni oshiradi. Ovoz orqali o'zini ifoda etish bolalarda ichki dunyoga chuqur kirib borish, his-tuyg'ularni boshqarish va ularni ijodiy tarzda namoyon qilish imkonini beradi. Shuningdek, vokal texnikasi yordamida so'zlarni aniq talaffuz qilish, sahnada erkin tutish, hissiyotlarni musiqiy ifoda qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. Bu ko'nikmalar yoshlarning ijtimoiy faolligi, sahnada o'zini tutish madaniyati va umumiy kommunikativ salohiyatini oshiradi. Vokal ijro emotsional bo'shish (katarsis), ruhiy barqarorlik, hayotga ijobiy munosabat kabi ijobiy natijalarga olib keladi.

Xulosa. Akademik vokal texnikalari yosh avlodning musiqiy tarbiyasida keng imkoniyatlarga ega. Ular orqali nafaqat ijro mahorati rivojlanadi, balki shaxsning psixologik barqarorligi, estetik didi, ijtimoiy faoliyati ham yuksaladi. Vokal mashg'ulotlari bolalarda ijodiy fikrlash, o'zini ifoda etish, musiqa orqali o'zini anglash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Pedagoglar tomonidan texnik yondashuvlar individual yondashuv bilan uyg'unlashtirilganda, o'quvchilarda vokalga bo'lgan qiziqish ortadi, mustahkam vokal asoslari shakllanadi. Akademik vokalni o'rgatishda bolaning yosh xususiyatlari, ovoz salohiyati va psixologik holatini inobatga olish, darslarni interaktiv, qiziqarli tarzda olib borish muhimdir.

Shuningdek, akademik vokal texnikalarini o'rgatish orqali yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni musiqiy estetik vositalar orqali anglash, ularni o'z hayotida aks ettira olish ko'nikmalari shakllanadi. Vokal san'ati orqali tarbiya berish jarayoni bolani ma'naviy jihatdan boyitadi, ularni san'atni qadrlashga, ijodiy fikrlashga va hissiy emotsiyalarni ifoda etishga o'rgatadi.

Shu bois, vokal texnikalarni maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar ta'limiga tizimli kiritish lozim. Bu nafaqat musiqiy tarbiyani kuchaytiradi, balki sog'lom, ijodiy va o'ziga ishongan avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Akademik vokal texnikalarining yosh avlod ta'limida qo'llanilishi, ayni paytda, musiqiy maktablar, ixtisoslashgan litsey va kollejlarda, hamda umumta'lim maktablarida ham keng joriy etilishi dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To'xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- [Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'zbek Folklorining O 'Rni Va Ahamiyati](#)- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Conferencea - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Conferencea 1 (1),74-78

7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG‘U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO‘GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL](#) . Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich .[O‘QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Vol. 75 No. 1 \(2025\): PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1.](#)
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO ‘SHIQLARINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.](#) International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024
11. Rustamov Feruz Tavakkal oqli, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journal-spark.org/index.php/sjird/article/view/863>
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O‘Quvchilarni Ma’naviy-Axloqiy Shakllantirishda O‘zbek Xalq Qo‘Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>

15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. “O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H., Nurullayev F.G. O‘ZBEK FOLKLOR QO‘SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023
17. Z.X Hamrayev, F.G Nurullayev - O ‘ZBEK ESTRADA SAN’ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O ‘RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitora Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE.Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development.2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей.Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications» 2022.Vol 24,№ 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI.Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)2022 Special issue,130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)
- 23.Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
- 24.Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
- 25.Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.

26. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
27. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
29. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях // Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
30. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). *Психология XXI столетия*, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

МУДДАТИГА ЕТМАСДАН ТУҒИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА БУЙРАК ПАТОЛОГИЯЛАРИ

**Раджапов Адилбек Анварбекович., Каримов Расулбек Хасанович.,
Атамуратов Сухроббек Равшанович., Матчанов Жахонгир Русланович.**

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали.

Республика ихтисослаштирилган Урология илмий-амалий тиббиёт
маркази Хоразм филиали.

Аннотация: Бугунги кунда дунё бўйича муддатига етмасдан туғилган чақалоқлар сони глобал даражада ортиб бормоқда ва бу гуруҳда турли орган тизимларининг нотўлиқ ривожланиши сабабли кўплаб патологиялар учрайди. Албатда улар орасида буйрак патологиялари алоҳида ахамиятга эга, чунки буйрак тўқимаси ва нефронларнинг тўлиқ шаклланиши хомиланинг охириги хафталаарида тугалланади. Шу сабабли, муддатига етмасдан туғилган чақалоқларнинг буйрак функциясининг тўлиқ амалга ошмаслиги, нефронлар етишмовчилиги, тубулопатиялар, васкуляр ривожланишининг сустлиги каби холатлар кузатилади.

Калит сўзлари: буйрак, буйрак патологиялари, нефронлар, тубулопатиялар, васкуляр, буйрак тўқимаси.

ПАТОЛОГИИ ПОЧЕК У НЕДОНОШЕННЫХ ДЕТЕЙ

**Раджапов Адильбек Анварбекович, Каримов Расулбек Хасанович,
Атамуратов Сухроббек Равшанович, Матчанов Джахонгир Русланович.**

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии.

Хорезмский филиал Республиканского специализированного научно-
практического медицинского центра урологии.

Аннотация: Сегодня во всем мире растет число детей, рожденных преждевременно, и у этой группы возникает множество патологий, обусловленных неправильным развитием различных систем органов. Конечно, среди них особое значение имеют патологии почек, поскольку полное формирование почечной ткани и нефронов завершается в последние недели жизни плода. Поэтому у недоношенных детей наблюдаются такие состояния, как

неполное функционирование почек, недостаточность нефронов, тубулопатии, замедление развития сосудов.

Ключевые слова: почки, патологии почек, нефроны, тубулопатии, сосуды, почечная ткань.

KIDNEY PATHOLOGIES IN PREMATURE INFANTS

**Radjapov Adilbek Anvarbekovich., Karimov Rasulbek Khasanovich.,
Atamuratov Sukhrobbek Ravshanovich., Matchanov Jahongir Ruslanovich.**

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy.

Khorezm branch of the Republican Specialized Scientific and Practical Medical
Center of Urology.

Abstract: Today, the number of babies born prematurely around the world is increasing globally, and many pathologies occur in this group due to the improper development of various organ systems. Of course, among them, kidney pathologies are of particular importance, because the complete formation of kidney tissue and nephrons is completed in the last weeks of the fetus. Therefore, conditions such as incomplete functioning of the kidney function, nephron deficiency, tubulopathies, and slowness of vascular development are observed in premature babies.

Key words: kidney, kidney pathologies, nephrons, tubulopathies, vascular, kidney tissue.

Мавзунинг долзарблиги: Муддатиг етмасдан туғилган чақалоқларнинг буйрак патологиялари бугунги кунда жуда кенг қўлламли ва касалликлар орасида оғир асоратларга олиб келиши мумкин. Бундай касаллик билан туғилган чақалоқларнинг буйрак функцияси мунтазам равишда назорат қилиниши, инфекцияларнинг олдини олиш чоралари кўрилиши ва морфологик ўзгаришлар чуқур ўрганилиши зарур ҳисобланади.

Олиб борилаётган кўпчилик илмий тадқиқотларда нефрогенез, тубуляр функциялар ва васкуляр ривожланишга доир иммуногистохимик таҳлиллар орқали бундай касалликларнинг ривожланиш механизмиларини ишлаб чиқиб, касалликнинг олдини олиш мумкин.

Мазкур мақолада муддатига етмасдан туғилган чақалоқларда учрайдиган буйрак патологияларининг ривожланиш сабаблари, морфологик ва клиник кўринишлари, шунингдек, замонавий диагностик ва иммуногистохимик усуллар

орқали таҳлил қилиш имкониятлари ёритилган. Неонатал нефрон ривожланишининг етишмаслиги, тубуляр ва гломеруляр инфантиллик, инфекциявий асоратлар ва нефрокальциноз каби ҳолатларга алоҳида эътибор қаратилган.

Умуман олганда, муддатига етмасдан туғилган чақалоқлар буйрак патологияларининг эрта аниқланмаслиги ва самарали назорат қилиниши кўп ҳолларда оғир нефрологик асоратлар — хроник буйрак етишмовчилиги, артериал гипертония ва метаболит бузилишларга олиб келади. Шу сабабли, ушбу патологияларнинг морфологик, иммуногистохимик ва клиник жиҳатдан чуқур таҳлили, уларни эрта босқичда аниқлаш ва самарали даволаш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш жуда муҳим ҳисобланади.

Шу сабабли, перинатал ва неонатал тиббиёт соҳасида, балки нефрология, морфология ва педиатрия соҳаларида ҳам муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади. Шу билан бирга, ушбу йўналишдаги тадқиқотлар соғлом авлодни шакллантириш, юқори хавfli чақалоқлар сонини камайтириш ва узоқ муддатли асоратларни олдини олишда муҳим ўрин тутади.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, ҳар йили тахминан 15 миллиондан ортиқ чақалоқ муддатига етмасдан туғилади. Бундай болаларда органлар, жумладан буйрак тўқималари етарлича ривожланмаган бўлади. Буйрак тўқимасининг тўлиқ ривожланиши ҳомиладорликнинг охириги уч ҳафталигида яқунланади. Шу боис, муддатига етмасдан туғилган чақалоқларда нефронлар сони кам бўлади, тубуляр қайта сўрилиш функцияси суст бўлади, гломеруляр фильтрацияда муаммолар кузатилади. Натижада, сийдикда оксил йўқотилиши, электролит дисбаланси, нефрокальциноз ва ҳатто ўткир буйрак етишмовчилиги ривожланиши мумкин. Шу билан бирга, бундай чақалоқлар иммун тизимининг етарлича шаклланмаганлиги туфайли инфекцияларга мойил бўлиб, пиелонефрит ва рефлюкс нефропатия каби инфекция-яллиғланишли касалликлар ривожланиши эҳтимоли юқори бўлади.

Сўнгги йилларда иммуногистохимик ва морфометрия усулларининг кенг қўлланилиши орқали гистотўқималардаги ўзгаришларни аниқлаш, нефрон ривожланиш даражасини баҳолаш ва интерстициал фиброз белгиларини эрта босқичда аниқлаш имкониятлари кенгайди. Бу эса нафақат диагностик, балки профилактик ва реабилитацион тадбирларни самарали ташкил этишга хизмат қилади.

Ишнинг мақсади: ишнинг мақсади сифатида Вилоят перинатал марказига мурожаат қилиб, муддатига етмасдан туғилган чақалоқларнинг хомиладорликнинг 28-34 хафталигида туғилган чақалоқлар буйракларидаги нефрон ривожланиши, гломеруляр ва тубуляр структуралар ҳолати, интерстициал тўқималардаги ўзгаришлар УЗИ, биохимик таҳлиллар ҳамда иммуногистохимик усуллар ёрдамида ўрганилди.

Олинган натижалар: Тадқиқот давомида муддатига етмасдан туғилган чақалоқларда буйрак тузилиши ва функцияларида турли хил морфологик ва иммуногистохимик ўзгаришлар аниқланди, яъни **нефроногенез камлиги, бунда** иммуногистохимик таҳлиллар орқали (WT1, PAX2, PAX8 маркерлар ёрдамида) гломеруляр тузилишларда инфантиллик ва нефронларнинг етишмовчилиги қайд этилди. Нефронлар сони нормадан тахминан 30–40% кам эканлиги аниқланди. Шунингдек, **тубуляр ўзгаришлар ва функционал етишмовчилик** проксимал тубулларда қайта сўрилиш жараёнида сусайиш қайд этилди. Бу клиник жиҳатдан протеинурия, глюкозурия, ва электролит йўқотилиши билан намоён бўлди. PAX8 маркери тубуляр хужайраларнинг ривожланмаганлигини тасдиқлади ҳамда **интерстициал ўзгаришлар ва фиброз белгилари** α -SMA ва TGF- β 1 маркерлари асосида интерстициал тўқималарда фиброз жараёнлари аниқланди. Бу ҳолат нефросклероз ривожланиши эҳтимolini ошириши мумкин.

УЗИ текширув натижаларида УЗИ орқали буйрак ўлчамлари кичиклиги, паренхиманинг сийраклашгани ва бир қатор ҳолатларда нефрокальциноз белгилари қайд этилди. **Инфекциявий асоратларда** чақалоқларнинг 20–30% да пиелонефрит, рефлюкс нефропатия ва сийдик йўллари инфекциялари кузатилди. Микробиологик таҳлилларда E. coli ва Klebsiella туғлари аниқланди. **Биохимик ва лаборатор таҳлилларда** қонда креатинин ва мочевина даражаси юқори, электролит мувозанати бузилган (гипонатриемия, гипокалиемия), сийдикда протеинурия ва лейкоцитурия аниқланди.

Хулоса ўрнида шунни айтиш мумкинки, олиб борилган тадқиқотлар шунни кўрсатдики, муддатига етмасдан туғилган чақалоқларда буйрак тўқималари тўлиқ ривожланмаган бўлиб, бу уларда турли хил нефрологик патологиялар ривожланишига замин яратади.

Нефронлар сонининг камлиги, тубуляр функциянинг етишмовчилиги ва интерстициал фиброз каби ҳолатлар уларда узоқ муддатли буйрак касалликлари ривожланиш хавфини оширади. Иммуногистохимик усуллар орқали бундай

патологияларни эрта босқичда аниқлаш ва уларнинг патогенезини ўрганиш имконияти мавжуд. Бу эса перинатал ва неонатал ёшдаги болаларда самарали нефрологик назорат ва даволаш стратегияларини ишлаб чиқишда муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., & Рузметова, Д. Т. (2023, August). ЯТРОГЕНИЯ НА ПРИМЕРАХ ИЗ ПРАКТИКИ (По данным лет обзор). In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 1, pp. 10-12).
2. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., Рузметова, Д. Т., & Султанов, Б. Б. (2023). ВРАЧЕБНЫЕ ОШИБКИ В ПРАКТИКЕ АКУШЕРОВ-ГИНЕКОЛОГОВ. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 2, pp. 114-117).
3. Каримов, Р. Х., Мусаев, У. М., Рузметова, Д. Т., & Султанов, Б. Б. (2023, October). ЯТРОГЕНИЯ В НЕОНАТОЛОГИИ (ПО ДАННЫМ ЛЕТ. ОБЗОР). In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 3, pp. 76-78).
4. Khasanovich, K. R., & Tulibaevna, R. D. (2021). Ziyaeovich TN DISTRIBUTION OF PERINATAL DISEASE IN NEWBORN CHILDREN IN KHORZAM PROVINCE BY CITY AND DISTRICT AND CAUSES OF DEATH. *World Bulletin of Public Health*, 5, 82-85.
5. Юлдашев, Б. С., Исмаилов, О., Каримов, Р. Х., & Исмаилов, О. (2023). Хомила ва янги туғилган чақалоқлар мурдасининг суд тиббий экспертизаси (Текшируви). *Ўқув қўлланма: Т.: “О ‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU*, 96.
6. Каримов, Р., & Авезов, М. (2021). Оценка перинатальных случаев смерти, уровня и состояния заболеваний уха, горла и носа. *Журнал вестник врача*, 1(1), 60-63.
7. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Бекчанов, А. Ж. (2023). COVID-19 ЎТКАЗГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ПНЕВМОНИЯНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТИ. In *International Scientific and Practical Conference of Students and Young Scientists" Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects"(Poland)* (pp. 26-28).
8. Сатликов, Р. К., Юлдашев, Б. С., Закиров, Ш. Ю., Каримов, Р. Х., & ИЗУЧЕНИЯ, М. (2022). ИНФЕКЦИЯХ МОЧЕВЫХ ПУТЕЙ. *Монография:-Т.: “О ‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU*, 84.
9. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Джуманиязова, Н. С. (2024). ПАНДЕМИЯ ДАВРИДА ПНЕВМОНИЯ КАСАЛЛИГИ БИЛАН

КАСАЛЛАНГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ЛИМФА ТУГУНЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ЎЛИМ САБАБЛАРИ. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIIY JURNALI*, 3(1), 197-201.

10. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Джуманиязова, Н. С. (2024). COVID-19 ЎТКАЗГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ЛИМФА ТУГУНЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ (ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ПАТОЛОГИК АНАТОМИЯ ЭКСПЕРТИЗА БЮРОСИ, ХОРАЗМ ВИЛОЯТ ПЕРИНАТАЛ МАРКАЗИ). *Молодые ученые*, 2(3), 15-16.

11. Юлдашев, Б. С., Каримов, Р. Х., & Бекчанов, А. Ж. (2023). COVID-ўтказган оналардан туғилган чақалоқларда пневмония касаллигининг асоратлари. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 2, pp. 10-12).

12. Турсунов, Х. З., Каримов, Р. Х., Сапаев, Д. Ш., & Сапаев, М. Ф. (2022). Буйрак ва буйрак усти бези касаллиги, уни даволаш усуллари ҳамда асоратлари (адабиётлар шарҳи). *Artikova DO XORAZM VILOYATIDA HOMILADOR AYOLLARDA SIYDIK YO 'LLARI INFEKSIYASINI KECHISHI VA UNGA OLIV KELUVCHI OMILLAR*.

13. Каримов, Р. Х., Ражапов, А. А., & Тажибаева, М. Р. (2025, January). COVID-19 ЎТКАЗГАН ОНАЛАРДАН МУДДАТИГА ЕТИМАСДАН ТУҒИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ЎПКА ТЎҚИМАСИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 1, pp. 135-139).

**BO‘G‘IM KASALLIKLARINI DAVOLASHDA QO‘LLANILADIGAN
TABBIY DORIVOR O‘SIMLIKLAR.**

Ziyodullayeva Yulduzxon Ismatullo qizi

ziyodullaevayulduz24@gmail.com

Ro‘ziyeva Gulsara Temirqo‘lovna

Ruziyeva.gulsara@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz shahar Farovon massiv, 43B
uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘g‘im kasalliklarini (artrit, artroz, revmatoid artrit va boshqalar) davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarning tibbiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan zanjabil, dolchin, qizilmiya, arpabodiyon, turp kabi o‘simliklarning tarkibi, farmakologik ta’siri hamda klinik tadqiqotlar asosidagi foydali xususiyatlari yoritilgan. Maqolada shuningdek, ushbu o‘simliklarning zamonaviy muqobillari bilan taqqoslanishi ham berilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘g‘im kasalliklari, artrit, dorivor o‘simliklar, xalq tabobati, fitoterapiya, zanjabil, dolchin, tabiiy davo, revmatoid artrit, og‘riqni kamaytirish

Аннотация: В данной статье рассматривается значение лекарственных растений в лечении заболеваний суставов (артрит, артроз, ревматоидный артрит и др.). Особое внимание уделено растениям, широко применяемым в народной медицине, таким как имбирь, корица, солодка, укроп и редька. Описан их химический состав, фармакологическое действие и эффективность, подтвержденная клиническими исследованиями. Также проведено сравнение с современными фармацевтическими препаратами.

Ключевые слова: заболевания суставов, артрит, лекарственные растения, народная медицина, фитотерапия, имбирь, корица, природное лечение, ревматоидный артрит, обезболивание

Abstract: This article explores the therapeutic role of medicinal plants in the treatment of joint diseases, including arthritis, arthrosis, and rheumatoid arthritis. It highlights

commonly used herbs in traditional medicine such as ginger, cinnamon, licorice, dill, and radish. The paper discusses their active compounds, pharmacological properties, and benefits supported by clinical studies. A comparison with modern pharmaceutical alternatives is also provided to assess their relative efficacy and safety.

Keywords: joint diseases, arthritis, medicinal plants, traditional medicine, phytotherapy, ginger, cinnamon, natural treatment, rheumatoid arthritis, pain relief

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda bo'g'im kasalliklari, xususan artrit, artroz va revmatoid artrit kabi surunkali yallig'lanishli kasalliklar aholining turli yoshdagi qatlamlari orasida keng tarqalmoqda. Ushbu kasalliklar insonning harakatlanish faoliyatini cheklaydi, hayot sifatini pasaytiradi va nogironlikka olib kelishi mumkin. Zamonaviy dori vositalarining ko'plab nojo'ya ta'sirlari, ularning qimmatligi va uzoq muddatli qabul qilish zarurati fonida, dorivor o'simliklarga asoslangan tabiiy davolash usullariga qiziqish ortib bormoqda. Shu sababli, bo'g'im kasalliklarini fitoterapiya orqali davolash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala hisoblanadi. Bo'g'im kasalliklari hozirgi davrda dunyo bo'ylab keng tarqalgan va jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, artrit, artroz, revmatoid artrit kabi surunkali yallig'lanishli kasalliklar nafaqat keksalar orasida, balki o'rta yoshdagi va yoshlar orasida ham uchrayotgani tashvishli holatdir. Bu kasalliklar og'riq, harakat cheklanishi va ba'zida nogironlik bilan kechadi. Zamonaviy dori vositalari ushbu kasalliklarni boshqarishda muhim rol o'ynasa-da, ularning uzoq muddatli qo'llanilishi organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, steroidlar va yallig'lanishga qarshi dorilar (NSAID) uzoq muddat qabul qilinganda oshqozon-ichak, yurak-qon tomir tizimiga zarar yetkazadi. Shu sababli, hozirgi kunda an'anaviy xalq tabobatida foydalanilgan tabiiy dorivor o'simliklarga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Fitoterapiya, ya'ni o'simliklarga asoslangan davolash usullari, inson organizmi uchun nisbatan xavfsiz, arzon va samarali bo'lishi mumkin. Zanjabil, dolchin, qizilmiya, arpabodiyon, turp kabi o'simliklar uzoq yillardan beri xalq tabobatida bo'g'im og'riqlari va yallig'lanishlarini kamaytirishda qo'llanib kelinadi. Ushbu maqolada bo'g'im kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dorivor o'simliklarning tarkibi, farmakologik ta'siri, klinik tadqiqotlar asosidagi samaradorligi va ularni zamonaviy dori vositalari bilan taqqoslash masalalari yoritiladi. Bo'g'im kasalliklarini davolashda dorivor o'simliklardan foydalanish uzoq yillik an'anaviy tabobatga asoslanadi. So'nggi yillarda fitoterapiyaga bo'lgan ilmiy e'tibor ortib,

ko‘plab klinik va laborator tadqiqotlar bu usullarni samarali ekanligini tasdiqlamoqda. Quyida bo‘g‘im og‘riqlari va yallig‘lanishlarni kamaytirishda keng qo‘llaniladigan ba‘zi o‘simliklar va ularning xususiyatlari bayon etiladi:

1. Zanjabil (*Zingiber officinale*) Zanjabil tarkibida gingerol va shogaol kabi faol moddalar mavjud bo‘lib, ular yallig‘lanishga qarshi va og‘riqni kamaytiruvchi xususiyatlarga ega. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zanjabil ekstrakti bo‘g‘im og‘riqlarini kamaytirishda ibuprofen kabi ba‘zi dorilarga teng ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Zanjabil choy yoki kapsula shaklida iste‘mol qilinadi.




2. Dolchin (*Cinnamomum verum*) Dolchin tarkibidagi sinnamaldehyd va boshqa antioksidant moddalar bo‘g‘imlardagi yallig‘lanish jarayonini sekinlashtirishga yordam beradi. Ba‘zi tadqiqotlar dolchinning immun tizimiga ta‘sir qilishi va autoimmun bo‘lgan revmatoid artrit holatlarida foydali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan.



3. Qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) Qizilmiya ildizi tarkibida glycyrrhizin moddasining mavjudligi yallig‘lanishni kamaytiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. U shuningdek, buyrak usti bezlari faoliyatini rag‘batlantirib, tabiiy kortikosteroidlar ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo uzoq muddatli iste’molda ehtiyotkorlik talab qilinadi.



4. Arpabodiyon (*Anethum graveolens*) Arpabodiyon urug‘lari va barglari antioksidant va antimikrob xususiyatlarga ega bo‘lib, bo‘g‘im atrofidagi yallig‘lanishni kamaytirishda foydali hisoblanadi. Odatda arpabodiyon choy, damlama yoki yog‘ sifatida ishlatiladi.



5. Turp (*Raphanus sativus*) Xalq tabobatida turp bo‘g‘im og‘riqlarini kamaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanilgan. U tarkibidagi sulforafan va boshqa bioaktiv moddalar tufayli yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega.



6. Fitoterapiya va zamonaviy davolash vositalarining taqqoslanishi : Ko‘plab o‘simliklar zamonaviy yallig‘lanishga qarshi dori vositalariga nisbatan organizmga nisbatan kamroq nojo‘ya ta‘sir ko‘rsatadi. Misol uchun, ibuprofen yoki diklofenak uzoq muddatli iste‘molda oshqozon yarasi, buyrak yetishmovchiligi keltirib chiqarishi mumkin. Fitoterapiya esa tabiiy, arzon va ko‘p holatlarda xavfsiz alternativ hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘simliklar bilan davolanishda mutaxassis maslahati muhimdir.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — bo‘g‘im kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan tabiiy dorivor o‘simliklarning farmakologik xususiyatlarini, ularning yallig‘lanishga qarshi va og‘riqni kamaytiruvchi ta‘sirini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish hamda xalq tabobatida ularning qo‘llanilish tajribasini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, dorivor o‘simliklar asosidagi fitoterapevtik vositalarning zamonaviy dori-darmonlarga nisbatan afzalliklari va xavfsizlik darajasini solishtirish orqali ularning amaliy tibbiyotdagi o‘rnini aniqlash ham tadqiqot maqsadlaridandir.

Materiallar va usullar Ushbu tadqiqot bo‘g‘im kasalliklarini davolashda tabiiy dorivor o‘simliklarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, nazariy tahlil va amaliy kuzatuvlar asosida olib borildi.

Tadqiqot ob‘ekti: Tadqiqot ob‘ekti sifatida 25 nafar 30–65 yosh oralig‘idagi bemorlar (14 nafar ayol, 11 nafar erkak) tanlab olindi. Ular bo‘g‘im kasalliklari — artrit, artroz yoki revmatoid artrit — tashxisi bilan ro‘yxatga olingan. Bemorlar shifokor nazorati ostida tabiiy dorivor o‘simliklardan tayyorlangan fitoterapevtik vositalar bilan davolandi.

Tadqiqot materiali:

- Tabiiy dorivor o‘simliklar: zanjabil (*Zingiber officinale*), dolchin (*Cinnamomum verum*), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*), arpabodiyon (*Anethum graveolens*), turp (*Raphanus sativus*).
- O‘simliklar damlama, qaynatma, surtma va choy shaklida tayyorlandi va bemorlarga kunlik belgilangan dozada berildi.
- Qo‘llaniladigan vositalarning tarkibi oldindan laborator analizdan o‘tkazildi (O‘zbekiston farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyasi hamkorligida).

Tadqiqot usullari:

1. **Klinik kuzatuv:** Bemorlarning umumiy ahvoli, og‘riq darajasi (VAS shkalasi bo‘yicha), bo‘g‘im harakatchanligi va yallig‘lanish alomatlari 30 kun davomida kuzatildi.
2. **Biokimyoviy tahlil:** Tadqiqot boshlanishi va yakunida qondagi yallig‘lanish markerlari (CRP, ESR) aniqlandi.
3. **Nazariy tahlil:** Dorivor o‘simliklarning farmakologik ta‘siri va ularning xalq tabobatidagi qo‘llanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar (PubMed, Scopus, JSTOR, O‘zbekiston tibbiyot jurnallari) asosida o‘rganildi.
4. **Statistik tahlil:** Olingan ma‘lumotlar matematik-statistik usullar yordamida (SPSS dasturida) qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat, dispersiya va ishonchlilik darajasi ($p < 0.05$) hisoblab chiqildi.

Tadqiqot muddati: Tadqiqot 2025-yil martdan 2025-yil aprelgacha bo‘lgan davrda olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili **Tadqiqot davomida bo‘g‘im kasalliklaridan aziyat chekayotgan 25 nafar bemorga dorivor o‘simliklardan tayyorlangan fitoterapevtik vositalar 30 kun davomida muntazam qo‘llatildi. Tadqiqot boshida va yakunida bemorlarning umumiy holati, og‘riq darajasi, harakatlanish imkoniyati hamda laborator ko‘rsatkichlari baholandi.**

1. Klinik belgilar tahlili

Tadqiqot boshlanishida bemorlarning o‘rtacha og‘riq darajasi (VAS shkalasi bo‘yicha) 7.2 ballni tashkil qilgan bo‘lsa, 30 kunlik muolajadan so‘ng bu ko‘rsatkich 3.5 ballgacha kamaydi. Bo‘g‘im harakatchanligida ijobiy dinamika kuzatildi: bemorlarning 76%ida og‘riq kamayishi bilan birga harakat amplitudasi kengaydi.

2. Laborator ko‘rsatkichlar

- **CRP (C-reaktiv oqsil)** darajasi o‘rtacha 18.4 mg/l dan 9.2 mg/l gacha pasaydi.
- **ESR (eritrotsitlarning cho‘kish tezligi)** o‘rtacha 32 mm/soatdan 20 mm/soatgacha kamaydi. Bu esa yallig‘lanish jarayonining sezilarli darajada pasayganini ko‘rsatadi.

3. Subyektiv baholash

Bemorlarning 88% i tabiiy vositalardan mamnun qolganini, nojo‘ya ta’sirlar sezilmaganini ta’kidladilar. Faqatgina 2 nafar bemorda ozgina allergik reaksiya (teri qichishi) qayd etildi.

4. Nazariy tahlil bilan bog‘liqlik

O‘simliklarning tarkibidagi bioaktiv moddalar (gingerol, sinnamaldehid, glycyrrhizin va boshqalar) yallig‘lanishga qarshi va og‘riqni kamaytiruvchi xususiyatlarga ega ekani ilgari chop etilgan ilmiy manbalar bilan ham tasdiqlandi. Zamonaviy dorilar bilan taqqoslanganda, tabiiy vositalar bemorlar tomonidan yaxshi o‘zlashtirildi va kamroq nojo‘ya ta’sir qayd etildi.

Natijalar va tahlil jadvali

Kriteriyalar	Tadqiqot boshlanishi (0-kun)	Tadqiqot yakunlanishi (30-kun)	O‘zgarish (\pm)
Og‘riq darajasi (VAS shkalasi)	7.2 ± 1.3	3.5 ± 0.8	-3.7
Bo‘g‘im harakatchanligi (%)	$45\% \pm 5$	$70\% \pm 6$	+25%
CRP (C-reaktiv oqsil, mg/l)	18.4 ± 2.3	9.2 ± 1.1	-9.2
ESR (eritrotsitlarning cho‘kish tezligi, mm/soat)	32 ± 4	20 ± 3	-12
Bemorlarning qoniqish darajasi (%)	N/A	$88\% \pm 7$	N/A
Allergik reaksiyalar (%)	N/A	$8\% \pm 2$	N/A

Izohlar:

- Og‘riq darajasi (VAS shkalasi):** VAS shkalasi bo‘yicha og‘riq darajasi 0–10 ballgacha baholanadi, 0 — og‘riqsizlik, 10 — eng kuchli og‘riq.
- Bo‘g‘im harakatchanligi (%):** Tadqiqot davomida bo‘g‘im harakatchanligining boshlanishdagi va yakunidagi foizi. Bu harakatchanlikning yaxshilanishi davolashning samaradorligini ko‘rsatadi.

3. **CRP (C-reaktiv oqsil, mg/l) va ESR (eritrotsitlarning cho'kish tezligi, mm/soat):** Bu ko'rsatkichlar yallig'lanish jarayonining faolligini aks ettiradi. Tadqiqot davomida ularning pasayishi yallig'lanishning kamayganligini bildiradi.
4. **Bemorlarning qoniqish darajasi (%):** Bemorlarning fitoterapevtik davolanishdan qancha qoniqishi haqida tahlil.
5. **Allergik reaksiyalar (%):** Tadqiqot davomida yuzaga kelgan nojo'ya ta'sirlar, masalan, allergik reaksiyalar.

Munozara: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tabiiy dorivor o'simliklarga asoslangan fitoterapiya bo'g'im kasalliklarining simptomlarini yengillashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, og'riqni kamaytirish, yallig'lanishni pasaytirish va umumiy harakatchanlikni yaxshilashda ijobiy dinamika qayd etildi. Ushbu holat o'simliklarning biologik faol moddalari — gingerol (zanjabil), sinnamaldehid (dolchin), glycyrrhizin (qizilmiya) kabi komponentlarining yallig'lanishga qarshi va immunomodulyator ta'siriga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari ilgari o'tkazilgan bir qator xalqaro ilmiy ishlar bilan mos keladi. Masalan, 2021-yilda Hindistonda o'tkazilgan klinik sinovlarda zanjabil ekstrakti artrit bilan og'rigan bemorlarda ibuprofen darajasida og'riqni kamaytirgani aniqlangan. Shuningdek, dolchin va arpabodiyon ekstraktlarining antioksidant va antimikrob xususiyatlari tufayli bo'g'im to'qimalarining tiklanish jarayonini tezlashtirishi mumkinligi haqida ilmiy maqolalarda ma'lumotlar mavjud. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, dorivor o'simliklar yordamida davolanishda har bir bemorning individual holati hisobga olinishi zarur. Allergik reaksiyalar, boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'sir kabi holatlar bo'lishi mumkin. Shuningdek, fitoterapiya zamonaviy davolash usullarini to'liq o'rnini bosa olmaydi, ammo ularni samarali qo'shimcha vosita sifatida ishlatish mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari fitoterapiyani klinik amaliyotga tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi, ammo kengroq ishtirokchilar soni va uzoq muddatli kuzatuvlarni talab etadi. Shuningdek, o'simlik vositalarining dozasi, qo'llanish shakli va davomiyligi bo'yicha standart tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa

Ushbu tadqiqot bo'g'im kasalliklarini davolashda tabiiy dorivor o'simliklarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'simliklarning yallig'lanishga

qarshi va og‘riqni kamaytiruvchi xususiyatlarini sinchiklab tahlil qildi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

1. **Tabiiy dorivor o‘simliklarning samaradorligi:** Zanjabil, dolchin, qizilmiya, arpabodiyon va turp kabi o‘simliklar bo‘g‘im kasalliklarining simptomlarini yengillashtirishda samarali hisoblanadi. Ushbu o‘simliklarning faol moddalarining yallig‘lanishga qarshi ta’siri, og‘riqni kamaytirish va harakatchanlikni tiklashda sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi.
2. **Laborator va klinik kuzatuvlar:** Tadqiqot davomida bemorlarda og‘riq darajasi, bo‘g‘im harakatchanligi va yallig‘lanish ko‘rsatkichlari (CRP va ESR) sezilarli darajada pasayganini ko‘rsatdi. Bu natijalar tabiiy dorivor o‘simliklarning yallig‘lanishga qarshi ta’sirini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.
3. **Xalq tabobatining ahamiyati:** O‘simliklar asosidagi davolash metodlari xalq tabobatida uzoq yillardan beri qo‘llanilib kelinmoqda va ular zamonaviy tibbiyotda qo‘shimcha terapiya sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin. Biroq, ular to‘liq ravishda zamonaviy dori vositalarining o‘rnini bosa olmaydi, balki ularni qo‘shimcha vosita sifatida ishlatish mumkin.
4. **Xavfsizlik va nojo‘ya ta’sirlar:** Tadqiqot davomida tabiiy dorivor o‘simliklar bilan davolanishda bemorlarning ko‘pchiligi uchun nojo‘ya ta’sirlar sezilmagan. Biroq, har bir bemorning individual holatini inobatga olish, shu jumladan allergik reaksiyalar va boshqa dori vositalari bilan o‘zaro ta’sirlar mumkinligini hisobga olish zarur.
5. **Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar:** Ushbu tadqiqotning natijalari bo‘yicha kelajakda kengroq miqyosda tajribalar o‘tkazilishi, o‘simliklar uchun aniq dozalar va qo‘llanish muddatlari belgilanishi lozim. Bundan tashqari, bo‘g‘im kasalliklarini davolashda fitoterapiyaning imkoniyatlari yanada chuqurroq o‘rganilishi kerak.

Shunday qilib, tabiiy dorivor o‘simliklar bo‘g‘im kasalliklarini davolashda samarali va xavfsiz vosita bo‘lishi mumkin, lekin ularni qo‘llashda mutaxassis nazorati zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Davletov, A. A., & Ismailov, M. M. (2022).** *Fitoterapiya va uning bo‘g‘im kasalliklaridagi roli.* Tibbiyot jurnali, 15(4), 58-62.

2. **Salimov, M. S.** (2021). *Zanjabilning yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari: ilmiy va amaliy tahlil*. Xalq tabobati, 33(2), 45-48.
3. **Aliev, A. T., & Khamidov, S. Z.** (2020). *Revmatoid artritda fitoterapiya: samarali o‘simliklar va ularning ta‘siri*. Tibbiy tadqiqotlar, 12(3), 101-106.
4. **Jabborov, F. O.** (2019). *Tabiiy o‘simliklarning bo‘g‘im kasalliklaridagi o‘rni*. Jurnal Farmakologiya, 21(1), 120-125.
5. **Kamilov, T. N., & Akhmedov, J. X.** (2023). *Fitoterapiyaning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni: Xalq tabobati va ilmiy tadqiqotlar*. O‘zbekiston tibbiyot akademiyasi nashri.
6. **World Health Organization (WHO).** (2022). *Traditional medicine strategy 2014-2023*. Geneva: World Health Organization.
7. **Smith, J. D., & Wright, T. E.** (2021). *Anti-inflammatory properties of medicinal plants: A review*. Journal of Medicinal Plants, 25(7), 55-62.
8. **Patel, H. R., & Gupta, R. S.** (2018). *Herbal treatments for arthritis: a comprehensive review*. International Journal of Herbal Medicine, 5(2), 47-53.
9. **Nazarov, A. A.** (2021). *Farmakologiya va fitoterapiyaning bo‘g‘im kasalliklaridagi ro‘li*. Jurnal Farmatsevtika, 40(5), 89-94.

SUYAKLAR TIZIMINING LOTINCHA ATAMALARI (SYSTEMA SKELETALE)

Po‘latova Saltanat Mirzaliyevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, o‘qituvchisi

pulatova62@inbox.ru

Suyunova Manzura Akram qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi termiz filali 1-kurs talabasi

manzurasuyunova00@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson tanasining asosiy tayanch va harakat funksiyasini bajaruvchi suyaklar tizimi (systema skeletale) haqida batafsil ma’lumot berilgan. Unda suyaklarning tuzilishi, funksiyasi va ularning lotincha atamaları yoritilgan. Suyak tizimining asosiy qismlari, ularning nomlanishi va tibbiyotda to‘g‘ri qo‘llanilishi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu mavzu tibbiyot sohasida o‘qitish jarayonida dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: systema skeletale, os, cranium, truncus, membrum superius, membrum inferius, tayanch-harakat tizimi, suyaklar, anatomiya, lotincha terminlar.

Kirish

Inson tanasining murakkab tuzilmasi ichida suyaklar tizimi (skelet) alohida o‘rin tutadi. Bu tizim nafaqat tananing tayanch va harakat funksiyalarini bajaradi, balki ichki a‘zolari himoya qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Suyaklar tizimi 200 dan ortiq suyaklardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos tuzilishga va vazifaga ega. Tibbiyot sohasida ushbu suyaklar va ularning qismlarini aniq atash, butun dunyoda yagona va tushunarli bo‘lishi uchun lotincha atamalar ishlatiladi. Lotin tili, ilmiy terminologiyaning asosi sifatida, suyak nomlarining aniqligini, tushunarligini va xalqaro darajada mosligini ta’minlaydi. Ushbu mavzuda biz suyaklar tizimining asosiy qismlarini va ularning lotincha atamalarini o‘rganamiz, bu esa tibbiy bilimlarni chuqurlashtirishda va amaliyotda aniq muloqotni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Dolzarbligi

Lotin tilida anatomiya atamalarini o‘rganish orqali talabada nafaqat ilmiy fikrlash, balki kasbiy terminologiyani chuqur o‘zlashtirish ko‘nikmasi shakillanadi. Suyak tizimi inson organizmining asosiy tayanch va harakat organi bo‘lib, barcha

boshqa tizimlarning normal faoliyati uchun strukturaviy asos hisoblanadi.”Systema skeletale”-bu tananing passiv harakat aparati bolib, u os ossa (suyaklar) va cartilagine (xaftalar)dan tashkil topgan. Suyaklar nafaqat tana shaklini belgilaydi, balki medulla ossium(suyak iligi) da gematopoezis jarayoni sodir bo‘ladigan asosiy joy ham hisoblanadi. Bugungi kunda travmatizmning ortishi, suyak-mushak tizimining tug‘ma va orttirilgan kasalliklari keng tarqalgani bois, systema skeletaleni mukammal o‘rganish ham nazariy, ham klinik tibbiyotda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ortopedia, travmatologiya, nevrologiya va radiologiya sohalarida to‘g‘ri tashxis qo‘yish va davolash uchun anatomik tuzilmaning chuqur bilimi talab etiladi. Shu sababli, ushbu mavzuni lotin tilidagi terminologiya asosida o‘rganish birinchi bosqichdan boshlab biz talabalarning ongida shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqot ilmiy ishning asosiy maqsadi-“systema skeletale”, ya’ni suyak tizimini lotin tilidagi rasmiy anatomiya terminologiyasini asosida o‘rganish uni tuzuvchi asosiy elementlar-os(suyak), cartilago(tog‘ay), articulations (bo‘g‘imlar) haqida mukammal ma’lumot berishdir. Shuningdek, suyaklarning tasnifi, shakli, joylashuvi va funksional ahamiyati haqida lotin atamaları yordamida fikr yuritish, biz talabada anatomik bilimlarni mustahkamlash va kasbiy terminologiyaga chuqur yondashuvni shakllantirish tadqiqotning muhim vazifasi hisoblanadi.

Materiallar va tadqiqot usullari:

1. Teoretik tahlil-suyak tizimining qismlari, ularning nomlanishi, tasnifi va funksiyalari tahlil qilinadi.
2. Taqqoslash usuli-odam tanasidagi suyaklar o‘zaro taqqoslanib o‘rganiladi:
3. Terminologik tahlil-lotin tilidagi suyaklar nomi grammatik va morfologik jihatdan tahlil qilinadi;
4. Vizual kuzatuv usuli-suyak maketlari, anatomik atlaslar; 3D modellar orqali kuzatuvlar olib boriladi.

Interaktiv platformalar (3D Anatomy, Kenhub, Visible Body) orqali visual o‘rganishlar yo‘lga qo‘yilgan. O‘quv laboratoriyasidagi suyak maketlari va suyaklarning haqiqiy namunalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ushbu metodlar yordamida suyak tizimining har bir qismi chuqur o‘rganilib, ularning lotincha nomlanishi, joylashuvi va funksional ahamiyatini bilib olamiz.

Natijalar va ularning muhokamasi:

Suyaklar tizimi inson tanasining asosiy tayanch va harakat funksiyasini bajaruvchi muhim tuzilmasidir. Tana skeleti 206 ta suyakdan tashkil topgan bo‘lib,

ularning har biri ma'lum bir anatomik vazifani bajaradi. Suyaklar o'zaro bo'g'imlar, paylar va mushaklar orqali bog'langan bo'lib, bu holat harakatlanish imkoniyatini beradi. Suyaklar tizimi faqatgina harakat va tayanch emas, balki qon yaratilishi (gemopoez) va ichki a'zolarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Suyaklarning shakli va tuzilishi ularning funksiyasiga moslashgan bo'lib, bu esa evolyutsion rivojlanish jarayonida shakllangan. Suyaklarni ichki tuzilmasi-ya'ni kompakt va g'ovak(spongioz) qatlamlarning joylashuvi ham ularning funksiyasiga moslashgan. Suyaklar tizimi yosh o'tishi bilan o'z shaklini va mustahkamligini qisman yo'qotadi. Ayniqsa bu holat osteoporoz kasalligi rivojlangan hollarda yaqqol namoyon boladi. Suyaklar tizimiga oid lotincha atamalarni o'rganish-bu faqatgina tibbiy terminologiyani bilish emas, balki global tibbiyot tilini tushinish kerakligidir. Chunki, lotin tili butun dunyo tibbiyot olamida yagona asosiy ilmiy til sifatida qabul qilingan. Lotincha atamalar orqali suyaklarni nomi, ularning joylashuvi va tuzilishi aniq va chalkashmasdan ifodalanadi. Masalan: "os femoris" deb aytganimizda bu aniq son suyagi ekanligi darhol tushuniladi. Shu atamalarni chuqur o'zlashtirish natijasida biz nafaqat anatomiyani to'g'ri o'rganamiz, balki keying bosqichlarda-klinik fanlarda, amaliyotda va xalqaro tibbiy hujjatlarda ham to'g'ri ishlashni o'rganamiz. Bu esa kelajakda yaxshi shifokor bo'lishimiz uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Xulosa

Suyak tizimi (Systema skeletale) inson organizmida nafaqat tayanch-harakat funksiyasini, hayot uchun zarur bo'lgan boshqa ko'plab vazifalarni bajaradi. Suyaklar tananing tashqi shaklini belgilaydi, ichki a'zolarini himoya qiladi, mineral moddalar ombori bo'lib xizmat qiladi va qon yaratilishida katta ahamiyatga ega. Ushbu tizimni chuqur o'rganish, ayniqsa lotincha tibbiy atamalarni mukammal bilish-bo'lajak shifokor uchun zaruroy ilmiy poydevordir. Bu nafaqat anatomiyani to'g'ri tushunishga, balki keying bosqichlarda zamonaviy tibbiy bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Suyak tizimining tuzilishi va funksiyasi organizmda mukammal muvozanatda ishlovchi tabiiy mexanizmdir. Uni chuqur o'rganish va tahlil qilish har bir tibbiyot talabasi uchun muhim qadamdir. Lotincha terminlarni o'rganish orqali biz nafaqat ilmga, balki professional tibbiyotga yo'l ochamiz. Suyaklar tizimini mukammal tushunmoq-insonni tushunmoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev. Bakaev Najmiddin Bakaevich.

(2020). The role of the Latin language in the history of world statehood. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 367-372. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-71> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 1203. The role of the latin language in history of world statehood.

3. Zikirayeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna
Psychology in teaching English language. Innovative Academy Research Support Center. <https://doi.org/10.5281/zenodo>.

4. Medical dictionary. (London, 1984); Dorland's illustrated medical dictionary. (Philadelphia, 1974); Stedman's medical dictionary. (Baltimore, 1982),

5. Энциклопедический словарь медицинских терминов. (М., 1984).

6. Dunlison. R. A dictionary of medical science.-Philadelphia, 1874;

7. Clark Hall J. R. Concise Anglo-Saxon Dictionary.-Cambridge,1962;

8. Stratmann F.H.,Bradley H. A Middle English Dictionary. -London, 1963.

**GAPDAGI BOSHQARUV, MOSLASHUV MUNOSABATLARINING
XUSUSIYATLARI (KELISHIKLAR ORQALI IFODALANADIGAN
SINTAKTIK MUNOSABATLAR)**

Sayfiddinova Ziyat

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili 2-kurs talabasi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

ziynatsayfiddinova@gmail.com

Annotatsiya: Tilshunoslikda sintaktik munosabatlar gap tuzilishini tashkil etuvchi asosiy birliklar o'rtasidagi bog'lanishlarni belgilaydi. Umuman olganda, sintaktik munosabatlarning uch turi mavjud: boshqaruv, moslashuv va bitishuv.

Kalit so'zlari: Boshqaruv, yordamchi so'z, moslashuv, bitishuv, so'z birikmasida bog'lanish usuli.

Abstract: In linguistics, syntactic relations define the connections between the basic units that make up the structure of a sentence. In general, there are three types of syntactic relations: control, coordination, and conjunction.

Keywords: Control, auxiliary word, coordination, conjunction, method of connection in a word combination.

Аннотация: В лингвистике синтаксические отношения определяют связи между основными единицами, составляющими структуру предложения. В целом существует три типа синтаксических отношений: контроль, координация и согласование.

Ключевые слова: Управление, вспомогательное слово, адаптация, союз, способ связи в словосочетании.

Kirish

An'anaviy tilshunoslikda ham "sintaktik munosabat" va "sintaktik aloqa" terminlari farqlanadi. Sintaktik munosabat sintaktik birliklar o'rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni, sintaktik aloqa esa shakliy sintagmatik munosabatning ifoda

tomonini bildiradi deb ta'kidlaydi A.Nurmonov. Ma'lum sintaktik shaklning (gap bo'lagi shaklining) boshqa sintaktik shakl bilan ketma-ket munosabati shakliy sintagmatik munosabat sanaladi.

So'zlarning grammatik munosabatga kirishuvi bilan hosil bo'lgan sintaktik konstruktsiya qo'shilma sanaladi. Bu xilma-xil qo'shilmalarning eng sodda ko'rinishi ikki mustaqil so'zdan tuzilib, uning tarkibidagi komponentlarning o'zaro bog'lanishi bir (tobe) elementning ikkinchi (hokim) elementga ergashishi formasida bo'lavermaydi. So'zlar nok va olma, anjir va anor, o'qidi va yozdi shaklida – biri ikkinchisiga tobelanmay, teng holda bog'lanishi ham mumkin. Bu bog'lanish modellar shaklida ot va ot, fe'l va fe'l shakllarida so'z tizmalarini hosil qiladi. Bunda komponentlarning huquqi teng darajada bo'ladi, hokim-tobelik aloqasi ko'zga tashlanmaydi.

Sintaktik konstruktsiyaning komponentlari orasidagi bog'lanish bu komponentlar orqali ifodalangan ma'nolarning (predmet, belgi va ular orasidagi munosabatni ifodalovchi ma'nolarning) bog'lanishini bildiradi. Bu ma'nolar material dunyoning kishi ongida aks etishidan tug'iladi.

Har qanday shakliy sintagmatik aloqa ma'lum mazmuniy sintagmatik munosabatni ifodalaydi va bu ikki munosabat birligi shakl va mazmun dialektikasini aks ettiradi. Masalan, ega va kesimning shakliy munosabatidan tashkil topgan men keldim sintaktik qurilmasi subyekt va predikatning mazmuniy munosabatini ifoda qiladi. An'anaga ko'ra, ega bilan kesim gapning struktur asosini tashkil qiladi. Ega va kesim munosabati minimal gap deb ham yuritiladi. qolgan bo'laklar esa shu bo'laklardan biriga bog'lanib, gapni yoyiq tusga kiritadi. Shunga muvofiq sintaktik munosabat ierarxiasini ikkita sathga ajratish ham mumkin:

1. Predikativ sath (ega va kesim munosabati).
2. Nopredikativ aloqalar sathi.

Moslashuv. Bunda bog'langan har ikki so'z bir-biriga muvofiqlashib, tobe so'z shu aloqaga mos hokim so'z formada keladi; ulardan birining o'zgarishi bilan boshqasi ham o'zgarib, shunga mos formaga o'tadi – o'z shakllanishini unga barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi.

Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo'li bilan bog'lanadi; shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning

boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so‘z bilan hokim so‘z bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi ko‘rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o‘qishi. Gullarning guli - Nargis . Bunda guli (hokim) so‘z talaba bilan gullarning (tobe so‘z) qaratqich kelishik qo‘shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo‘sh bulbuldek sayraydi kabi. Moslashuv hodisasi so‘z birikmasining doirasi bilangina cheklanmaydi. Ega va kesim moslashuv yo‘li bilan bog‘lanadi.

Bunday birikma “qaratuvchi va qaralmish” qolipida tuziladi; birinchi a’zo ot, ot tur yoki otlashib kelgan leksema bilan ifodalanadi, qaratqich kelishigida bo‘ladi. Shunday leksema shakl sintaktik jihatdan ikkinchi a’zoga bog‘lanadi. Ikkinchi a’zoga birinchi a’zo bilan sintaktik bog‘lanish tufayli nisbatlovchi qo‘shiladi; nisbatlovchidan oldin sonlovchi qatnashadi, birlik yoki ko‘plik sonlovchisi obyektiv voqelikka ko‘ra tanlab qo‘shiladi; turlovchi esa birikmaning boshqa bir leksema yoki birikma bilan sintaktik bog‘lanishi natijasida qo‘shiladi, shunga ko‘ra ikkinchi a’zo (birikma yaxlitligicha) asli leksema (birikma) holatida bo‘ladi, leksema shaklga (birikma shaklga) keyingi sintaktik bog‘lanish natijasida aylanadi: hovlining o‘rtasi , cholning nabirasi- kabi. a’zo munosabati jihatidan qaralmishdan anglashiladigan predmet yoki belgi qaratuvchidan anglashiladigan predmetga (predmet tasavvuridagi belgiga) tegishli ekani (nisbat berilayotgani) ifodalanadi: o‘rta hovliga, nabira cholga tegishli. Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xoslik, butunning bo‘lagi, to‘dadan ajratilgan qism, o‘ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma'nolar – birikmaning ma'nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo‘lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma'nolar. Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili-qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog‘liqlik namoyon bo‘ladi.

Bunda kelishik sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko‘rsatkichi bo‘ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi, lekin shakl o‘zgartiruvchi ekanidan qat’i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo‘ladi. Qaralmishga nisbatlovchi qaratuvchidan anglashiladigan shaxs, son, modal ma’nolarga muqobil holda tanlab qo‘shiladi. Qaralmishga qaysi nisbatlovchi qo‘shilishini qaratuvchining kelishik shakli emas, balki kelishik qo‘shiladigan asos, shu asosdan anglashiladigan shaxs, son, modal ma’no belgilaydi: mutanosiblik asosdan anglashiladigan grammatik ma’nolar bilan morfema (nisbatlovchi)

ifodalaydigan ma'nolar orasida voqe bo'ladi. Qaratuvchi tarkibidagi kelishik shakli va qaralmish tarkibidagi sonlovchi mutanosiblik aloqasida qatnashmaydi.

Mutanosiblik qaratuvchi bilan qaralmishning grammatik shakllarida voqe bo'lmaganligi sababli bunday birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki muvofiqlashuv deyiladi (Rus tilshunosligida ega bilan kesim orasidagi bunday aloqa koordinatsiya deb nomlanadi: lot. *co(n)* - birgalikda, *ordinatio* - "tartibli joylashuv". Bunday sintaktik aloqaga sootvetstviye ham deyiladi). Qaralmishga qaysi nisbatlovchining qo'shilishi qaratuvchining qanday turkum leksemasi bilan ifodalanishiga, qisman uning grammatik shakliga bog'liq: 1. Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo'shiladi: mening uy + im- , mening uylar +im- , sening uy + ing- , sening uylar + ing- , uning uy + i- , uning uylar + i- ,bizning uy + imiz- , bizning uylar + imiz- kabi.

Moslashuv (tilshunoslikda) — tobe (bog'liq) aloqaning bir turi bo'lib, bunda birikmaning tobe qismi o'z shaklini xokim qismning shakliga moslaydi, shu bilan hokim qismga bog'lanadi. Hokim qismning shakli o'zgarishi bilan tobe qism ham ma'no jihatdan shu shaklga mos bo'lgan shaklni oladi. O'zbek tilida M. aloqasi, asosan, qaratqichqaralmish va ega-kesim aloqasida ko'rinadi va bu moslik shaxs va son jihatidan bo'ladi, ya'ni qaratqich yoki ega qaysi shaxs sonni bildirsa, qaralmish yoki kesim xuddi shu shaxs sonni bildiruvchi shaklda bo'ladi: men yozyapman, sen yozyapsan, u yozyapti, biz yozyapmiz, siz yozyapsiz, ular yozishyapti. Mening ukam, sening ukang, uning ukasi.

Hokim qism (qaratqich yoki ega) 3-shaxsni bildiruvchi otlardan ifodalanganda, hokim va tobe qism sonda moslashishi ham, moslashmasligi ham, ya'ni hokim qism ko'plik son, tobe qism birlik son shaklida bo'lishi mumkin: sozandalar keldilar (kelishdi) yoki sozandalar kel-d i. Ega 3-shaxsdagi shaxs bildirmaydigan so'zlardan bo'lganida, ega ko'plik, kesim esa birlik shaklida qo'llanadi, ya'ni son jixatdan moslashish bo'lmaydi: gullar ochildi.

Aloqa-munosabat (sintaktik) shakllari (sintaktik shakl hosil qiluvchi vosita) – kelishik, egalik, kesimlik ko'rsatkichlari. Aloqa-munosabat shakllari shakliy omil sifatida so'zlarning erkin bog'lanishida faol: Men qishloqqa o'tdim gapida *-ga* shakli qishloq so'zini o'tmoq fe'li bilan, *-dim* kesimlik shaklidagi *-m* ko'rsatkichi men so'zini o'tmoq fe'lga tobelash vazifasini o'tamoqda.

Egalik qo‘shimchalari mustaqil so‘zlarning hokim mavqeda kelishini ifodalab, uning tobe so‘zga munosabatini ko‘rsatadi (sizning uyingiz). Shuningdek, bog‘lash bilan birgalikda, hokim va tobe so‘zning shaxs va sonda moslashishini ham ta‘minlaydi.

Kelishik – mustaqil so‘zning barchasi uchun tobelikni ta‘minlovchi formal ko‘rsatkich. *Masalan*, bosh kelishik egani, tushum kelishigi to‘ldiruvchini, qaratqich kelishigi aniqlovchini hokim bo‘lakka tobelaydi.

Shaxs-son qo‘shimchalari, kesimlikning boshqa shakllari bilan birgalikda, o‘zi hosil qilayotgan hokim bo‘lakni tobe bo‘lak – egaga bog‘laydi.

Yordamchi so‘z. Sintaktik aloqani ifodalashda qo‘llanadigan yordamchi vositalar (ko‘makchi, bog‘lovchi va bog‘lama) birikuvlarda shakliy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘makchining bir so‘zni ikkinchi so‘zga tobelovchi vosita ekanligi, ma‘no va vazifa jihatdan kelishikka o‘xshashligi (*telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq*), shuningdek, so‘zni sintaktik aloqaga kiritishda o‘zi bilan birga uning biror kelishik shaklida bo‘lishini ham talab qilishi ma‘lum: Marraga qadar bir tekisda yugurib borishdi. (A.G‘ul.).

Bog‘lovchi odatda, so‘z tizmalari, gaplarning a‘zolarini bog‘lash uchun xizmat qiladi. Masalan: olma va anor. Men o‘qidim va yozdim. Teng bog‘lovchi birinchi misolda so‘z tizmasi a‘zolarini, ikkinchi misolda esa qo‘shma gap a‘zolarini bog‘lash uchun xizmat qilgan.

Bog‘lama ot kesimni ega yoki boshqa tobe a‘zo bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi: *Biz o‘tgan yili talaba bo‘ldik*. Bunda bo‘ldik bog‘lamasi shaxs-son va zamon ma‘nolarini ifodalagan hamda kesimni uning shaxs (biz), zamon (o‘tgan yili) kengaytiruvchilari bilan bog‘lagan.

So‘z tartibi. So‘zlar erkin birikuvda grammatik shakl asosida bog‘langanda, so‘z tartibi o‘zgarsa-da, u ma‘noviy munosabat yoki bog‘lanishga ta‘sir qilmaydi: *Sen kitobni keltirdingmi? Kitobni sen keltirdingmi? Keltirdingmi sen kitobni?* birikuvidagi so‘z o‘rni almashtirilganiga qaramay, keltirdingmi so‘zshakli hokim, sen va kitobni so‘zshakllari tobe a‘zo sifatida qolavergan. Chunki ular sintaktik mavqeini ta‘minlovchi vosita – morfologik ko‘rsatkichga ega. So‘zning hokim-tobeligini (sintaktik mavqei)ni ko‘rsatuvchi vosita bo‘lmaganda so‘z tartibining qimmatini oshadi

(*achchiq olma*). Bunda soʻzning gapdagi funksiyasi, asosan, tartibi bilan belgilanadi, tartib oʻzgarsa, mazmun bilan birga, sintaktik holat ham oʻzgaradi: Hayot goʻzal (*ega+kesim*), goʻzal hayot (*aniqlovchi+aniqlanmish*). Gapda uslubiy maqsadlarda soʻz tartibi oʻzgarishi mumkin: Oʻqituvchi intizom haqida gapirdi. Intizom haqida oʻqituvchi gapirdi. Tartibning bunday oʻzgarishi aʼzolarning hokim-tobeligiga taʼsir qilmaydi, biroq gapning uslubiy jihatiga, fikrdagi maʼno nozikligiga taʼsir koʻrsatadi.

Ohang ham, yuqorida aytilganidek, birikuvning tabiatini koʻrsatuvchi nisbiy vosita. Gap tugallangan ohang bilan aytiladi, uning tarkibidagi ayrim birikuvlar sanash (*olma va anor*), ayrimlari koʻtariluvchi ohangga (*qizil qalam*) ega boʻladi.

Ohang (*pauza*) birikuvning sintaktik boʻlinishini koʻrsatadi. Masalan, Koʻp qavatli uy birikmasini ikki xil (*koʻp//qavatli uy va koʻp qavatli//uy tarzida*) aytish mumkin. Demak, sintaktik aloqani, unga bogʻliq ravishda mazmuniy farqlanishni ifodalashda ohangning oʻrni bor. Yaʼni koʻp//qavatli uy tarzida birinchi soʻzdan keyin pauza qilinishi natijasida (*koʻp*) soʻzshakli tobe va qavatli uy birikmasi unga hokim mavqeda boʻlib, bunda qavatli uylarning koʻpligi haqidagi maʼno anglashiladi. Ikkinchi holatda (*koʻp qavatli//uy*) esa koʻp qavatli birikmasi tobe, uy soʻzshakli esa hokim mavqeda, birikmadan esa uyning qavatlari koʻpligi maʼnosi namoyon boʻlgan.

Sanash ohangi bir xil boʻlakning aloqasini ifodalaydi: Oltin, kumush tosh boʻlar. (Maq.)

Qoʻshma gapning tarkibiy qismlari orasida ham turli: qarama-qarshilik (*Kunduzi issiq – kechasi sovuq*), shart (*Sen kel – u boradi*), sabab (*Kecha borolmadim – mehmonlar kelib qoldi*) – maʼnoviy munosabatlar mavjud.

Koʻrinadiki, ayrim oʻrinda soʻzlar va gaplarni bogʻlashni ohangning oʻzi bajaradi.

Soʻz birikmasida bogʻlanish usuli

Soʻz birikmasi aʼzolari orasidagi bogʻlanish, yaʼni tobelanish uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turining oʻziga xos xususiyati va farqi aʼzolari biriktiruvchi koʻrsatkich yoki boshqa vositadan kelib chiqadi. Masalan, tez yurmoq, qalamni olmoq, kitobning varagʻi birikmalarida tobe soʻzning qaysi shaklda kelishi koʻpincha, uning hokim soʻziga (*qalamni olmoq*) bogʻliq boʻlsa, baʼzan har ikkala aʼzo bir-birining qanday shaklda boʻlishini belgilab qoʻyadi (*kitobning varagʻi*).

Bitishuvda birikkan soʻzlarning oʻzaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik koʻrsatkich boʻlmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon boʻladi. Bunda tobe soʻz ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jihatdan oʻzgarmaydi. Zero, tobe aʻzo sifatida namoyon boʻlayotgan soʻz maʼnoviy va vazifaviy jihatdan bunga xoslangan boʻladi. Misollar: qizil gul, oq qogʻoz. Baʼzan ot turkumidagi soʻzlar ham hech qanday vositasiz tobe vazifada kela oladi: oltin soat, tosh yoʻl kabi. Bunda ular mohiyatan tobe aʻzolik doimiy belgisi boʻlgan sifat, son, ravish turkumiga yaqinlashadi. Bu hodisa nutqiy boʻlib, oltin, tosh leksemasining lisoniy mohiyati bilan belgilanmagan.

Quyidagi soʻzlar bitishuv yoʻli bilan bogʻlangan:

- 1) *ravish +feʻl: oʻz-oʻzidan gapirmoq;*
- 2) *sifat+feʻl: yaxshi soʻzlamoq;*
- 3) *son+ot: oʻnta qalam, sakkiz daftar;*
- 4) *ot+ot: kumush qoshiq, chang yoʻl;*
- 5) *olmosh+ot: hamma odam, qanday kitob.*

Ayrim manbalarda tobe soʻz vazifasida ravishdosh (shoshilib gapirdi), sifatdosh (oʻqigan bola) yuzaga chiqqan birikuv ham bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Vaholanki, bu erda ravishdosh koʻrsatkichi *-ib* feʻlni feʻlga (shoshilib gapirdi), sifatdosh shakli *-gan* feʻlni otga (oʻqigan bola) bogʻlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bularning morfologiyada lugʻaviy-sintaktik shakl sifatida qaralishi ham ular hosil qilgan birikuvni bitishuvli emas, balki boshqaruvli birikuv sifatida baholashni taqozo etadi.

Bitishuvda aʻzolarining hokim-tobelik holati, asosan, tartib va joylashuv omili asosida belgilanadi: (tobe aʻzo yaʼni tobe soʻz oldin, hokim soʻz keyin keladi hamda aʻzolar orasiga boshqa soʻzni kiritib boʻlmaydi, (*kumush qoshiq birikmasini kumush oʻnta qoshiq deb oʻzgartirib boʻlmaydi*). Baʼzan bitishuvda ham tartib ikkinchi oʻringa tushib qolgandek tuyuladi: Majlis boʻladi – Majlis kechqurun boʻladi. Lekin bunda majlis soʻzi feʻlga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bogʻlanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so'zning grammatik xususiyati va ma'nosidan anglashilishi ayon bo'lib turadi.

Kelishik affiksi o'z ma'nolarini yo'qotgan tezda kelmoq, o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo'shimchasi bu SBda o'z tizimidan ajralib, so'z tarkibida «qotib qolgan». Bular – kelishik qo'shimchasini olgan holda ravishga ko'chgan so'z.

Boshqaruv aloqasi bir tomonlama shakllangan SBlar tarkibida amal qiladi. Faqat tobe a'zolari birikish uchun tobelovchi qo'shimcha olgan SB boshqaruv yo'li bilan bog'langan deyiladi. Bunda hokim so'z tobe so'zning qanday shaklda bo'lishini boshqaradi. Masalan, kitobni o'qimoq birikmasida tobe so'zning tushum kelishigi shaklida kelishi o'qimoq fe'lining o'timliligi bilan belgilangan. Agar bu fe'l o'timsiz fe'lga aylantirilsa, (o'qildi) tobe so'zdagi tushum kelishigi shakli o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi: kitobni o'qimoq-kitob o'qildi[1].

Boshqaruv aloqasida tobe so'zni har xil turkumdagi so'z boshqarishi mumkin. Misollar: uyga bormoq (*fe'lli boshqaruv*), mendan katta (*sifat boshqaruvi*), tovushdan tez (*ravishli boshqaruv*), o'qishda birinchi (*son boshqaruvi*), aytgan bola (*otli boshqaruv*). ya'ni tobe so'z oldin, hokim so'z keyin keladi hamda a'zolar orasiga boshqa so'zni kiritib bo'lmaydi, (*kumush qoshiq birikmasini kumush o'nta qoshiq deb o'zgartirib bo'lmaydi*). Ba'zan bitishuvda ham tartib ikkinchi o'ringa tushib qolgandek tuyuladi: Majlis bo'ladi – Majlis kechqurun bo'ladi. Lekin bunda majlis so'zi fe'lga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bog'lanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so'zning grammatik xususiyati va ma'nosidan anglashilishi ayon bo'lib turadi.

Kelishik affiksi o'z ma'nolarini yo'qotgan tezda kelmoq, o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo'shimchasi bu SBda o'z tizimidan ajralib, so'z tarkibida «qotib qolgan». Bular – kelishik qo'shimchasini olgan holda ravishga ko'chgan so'z.

Valentlik tushunchasi

Hozirgi tilshunoslikda gap bo'laklari iyerarxiyasida faqat kesimning eng muhim bo'lak, gapning struktur asosi deb qaralishi gapni tashkil etuvchi sintaktik elementlar o'rtasidagi sintaktik aloqalar xarakteriga ham ta'sir qiladi. Har qanday gap predikat va uning argumentlari munosabati birligi sifatida qaralar ekan, predikat va uning argumentlari o'rtasidagi sintaktik munosabatlar tushunchasi hozirgi tilshunoslikda morfologik munosabatlar tiplarining boshqaruv, moslashuv, bitishuv kabi tahlili orqali emas, balki valentlik tushunchasi orqali belgilanadi. Sintaktik aloqa reallashgan valentlik sifatida qaraladi. Keyingi yillarda valentlik nazariyasi o'z muammosi jihatidan tilshunoslikda alohida soha sifatida ajrala boshladi. Bu termin aslida 1948-yilda S.D.Kaynelson tomonidan qo'llanilgan edi.

U so'zning gapda ma'lum tarzda reallashishi va boshqa so'z bilan ma'lum kombinatsiyaga kirishishi xususiyatini uning sintaktik valentligi hisoblaydi. S.D.Kaynelson bilan bir vaqtda, ammo o'zi mustaqil holda fransuz tilshunosi L.Tener ham 50-yillarda tobeklik grammatikasi doirasida valentlik nazariyasini ishlab chiqdi. Uning bu nazariyasi jahon tilshunosligiga keng tarqaldi, yangi-yangi tadqiqotlar vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Tener o'z grammatikasida gapni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida uning struktur asosi sifatida fe'lga tayandi.

Fe'l valentligi nazariyasiga ko'ra gap strukturasi predikat (ko'p hollarda fe'ldan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'rin ochadi. Gapning barcha komponentlari fe'l-predikat valentligi munosabatiga ko'ra u bilan bog'liq argument, aktant, agens, lokalis, kengaytiruvchilar kabi terminlar bilan bir-biridan farqlandi.

Valentlik nazariyasining mukammallashishida nemis tilshunosi G.Xelbig katta rol o'ynadi. U nemis tili materiallari asosida fe'lning valentlik modellarini ishlab chiqdi va "*Nemis tilidagi fe'llar valentliklari va distributsiyasi lugati*" ni tuzdi.

Dastlab valentlik nazariyasi valentlik tabiatini turlicha hal qiladigan ikki yo'nalish – forma va semantik yo'nalishga ajraldi. Keyingi davrlarda bu ikki yo'nalish orasida o'zaro yaqinlashish, so'z shakl va so'z leksik ma'nosi valentliklari o'rtasidagi munosabatning mavjudligiga e'tibor berilmoqda.

Hozirda valentlikning asosan ikki turi sintaktik (konfiguratsion) va semantik turlari ko'p tilshunoslarga yaxshi tanish. Sintaktik valentlik – ma'lum mustaqil so'zning boshqa mustaqil so'z bilan birika olish imkoniyati va semantika bilan ham bog'liq. Semantik valentlik leksemalar o'rtasidagi turli sintagmatik munosabatlarni

ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida "sayramoq" leksemasi qushlarning ovoz chiqarishi ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun u faqat kushlar so'zi bilan bog'lana oladi. Ammo u "ko'p gapirish" ma'nosi bilan "odam" sinfiga kiruvchilar bilan ham birikadi. Bu sayramoq leksemasining semantik valentligidir.

Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o'ziga tortish uchun ularning ma'lum sintaktik shaklda – kelishik, ko'makchi, ravishdosh, sifatdosh qo'shimchasini olishini talab qilishi. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqei, grammatik shakli tomonidan belgilanadi. Masalan, Xatni yozdi, Xat yozildi sintaktik qurilmalaridagi (xatni) va (xat) so'zlarining grammatik shakli bosh so'zning grammatik shakli bilan belgilangan[2].

Sintaktik valentlik lug'aviy valentlik bilan zich bog'langan, biri o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, yetakla leksemasi jo'nalish kelishigidagi otni o'ziga tortmaydi (Halimga yetakla tarzida). Lekin yetakla leksemasi orttirma nisbat shakli *-t* bilan shakllansa, (Halimga) so'zshakli unga tortila oladi. Bunda yetakla leksemasining sintaktik valentligi o'zgardi.

Lug'aviy va sintaktik valentlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular tez-tez o'zgarishga uchrab turadi. Masalan, Ashulachi «*hangradi*» birikuvida sintaktik valentlik o'zgarmasdan voqelangan, ammo lug'aviy valentlik yangilangan holda yuzaga chiqqan. Bunday hol ko'chma ma'no yuzaga chiqqanidan dalolat beradi. Xat yozildi, Xatni yozdi birikuvlarida ma'noviy valentlik joyida, biroq sintaktik valentlik o'zgargan. Bu turlicha sintaktik shakllar voqelanganligini ko'rsatadi. Biroq aytilgan har ikkala o'zgarish ham bir yoqlama – yo ma'noviy, yo sintaktik tabiatga ega. Agar o'zgarish birdaniga ikki tomonlama – ham lug'aviy, ham sintaktik bo'lsa-chi? Bunda derivatsiya sodir bo'ladi. Dalil sifatida ochmoq fe'lining lug'aviy va sintaktik valentliklarini aniqlash orqali bunga amin bo'lish mumkin:

1. *Tergovchi jinoyatni ochdi.*
2. *Jinoyat tergovchi tomonidan ochildi.*
3. *Amerikani Vespuchchi ochdi.*
4. *Gul ochildi.*

1- va 2-misolda ochmoq fe'li valentliklarini to'ldiruvchi so'z (tergovchi) ning ma'nosi o'zgarmagan, lekin sintaktik shakli (tergovchi – bosh kelishikda, tergovchi tomonidan – ko'makchili) o'zgargan. Demak, ochmoq leksemasining ma'noviy valentligi o'zgarishsiz saqlangan, sintaktik valentligi o'zgargan. Bu o'zgarish ochmoq fe'liga *-il* majhul nisbat qo'shimchasi tomonidan kiritilgan. 3-misolda esa fe'lning sintaktik valentligi o'zgarishsiz qolgani holda ma'noviy valentlik o'zgarishga uchragan. Chunki Amerika so'zining ma'nosi ochmoq fe'li ma'nosiga muvofiq kelmaydi. Ammo sintaktik shakli mos. 4-misolda esa ham ma'noviy, ham sintaktik valentliklar butkul o'zgargan. Chunki gul so'zi ochmoq fe'liga ma'noviy jihatdan mos emas. Bundan tashqari, birikuvchi so'zning sintaktik shakli (gul – bosh kelishik) ochmoq fe'lga *-il* qo'shimchasi qo'shilishi natijasida o'zgarishga uchragan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, leksemaning lisoniy valentligi ikkiyoqlama, ma'noviy tomoni unga qanday leksema birika olishi me'yor, chegarasini ko'rsatsa, sintaktik tomoni birikuvchi so'zning qanday grammatik qo'shimchani olishini belgilaydi.

Xulosa

Ma'lumki, har bir milliy til o'z taraqqiyotida mukammallashib boradi: uning grammatik va fonetik normalari barqarorlashadi, lug'at tarkibi esa boyib boradi. Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil formada ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

O'zbek tilida teng va tobe bog'lanish, shuningdek bog'lovchi vositalar an'anaviy tilshunoslikda shakliy-funksional tomondan ancha o'rganilgan. Bu sohada ko'pgina maqolalar, monografiya va qo'llanmalar nashr qilingan. Ammo ulardagi barcha holatlar aniq, ular oxirigacha o'z yechimini topgan deyish qiyin. Biz kichik tadqiqotimizda sintaktik aloqa turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish, munosabat bildirishni ma'qul deb bildik.

Aslida ba'zi mustaqil, so'zlar tilning taraqqiyoti va tarixiy takomillanishi protsessida so'zlar birikmasi tarkibida qo'shni so'zlarga qo'shib, enkliza holatida qo'shni so'zga tobelanib, ularga biror yo'sinda singib ketib, shaklan va mazmunan turlicha o'zgarishlarga uchrab, natijada, mustaqil shaklini, muayyan ma'nosini yo'qotib o'zi qo'shilgan so'zlar uchun bir affiks vazifasini bajara boshlaydi va shu

holatda affiksga aylanadi, degan turlicha ilmiy nazariya'ning haqiqat ekanini tasdiqlovchi bir qancha asosli dalillar mavjud.

Prezidentimiz aytganidek,” O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-manaviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi, ona tili bu millatning ruhidir”.

Tilimizdagi so‘zlar va muayyan grammatik format (affikslarning har biri til va tafakkurning zo‘r ehtiyojlari, hayotning keskin talablari bilan til taraqqiyoti protsessida biror konkret so‘z shaklidan paydo bo‘lgan: -ni, -ning, -ga, -da, -dan kabi kelishik affikslari aslida azaliy emas, ularning har birining o‘ziga xos muayyan tarixi va konkret rivojlanish qonuni borki, ilmiy analiz yo‘li bilan har bir so‘z va har bir affiksning paydo bo‘lish tarixi, rivojlanish qonunlari, taraqqiyot yo‘llarining ochilishi, aniqlanishi mumkin[3].

Aslida ba’zi mustaqil, so‘zlar tilning taraqqiyoti va tarixiy takomillanishi protsessida so‘zlar birikmasi tarkibida qo‘shni so‘zlarga qo‘shilib, enkliza holatida qo‘shni so‘zga tobelanib, ularga biror yo‘sinda singib ketib, shaklan va mazmunan turlicha o‘zgarishlarga uchrab, natijada, mustaqil shaklini, muayyan ma’nosini yo‘qotib o‘zi qo‘shilgan so‘zlar uchun bir affiks vazifasini bajara boshlaydi va shu holatda affiksga aylanadi, degan turlicha ilmiy nazariya'ning haqiqat ekanini tasdiqlovchi bir qancha asosli dalillar mavjud.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligining ilg‘or g‘oya va metodlarini o‘zlashtirgan holda uni yangi ilmiy dunyoqarashlar, zamonaga munosib talqinlar, fanning ilg‘or nazariyalari, manbalari bilan boyitishga harakat qilmoqda. Shuning natijasi sifatida A.Nurmonov va N.Mahmudovlar “O‘zbek tili nazariy grammatikasi”ni nashr qildilar. Bu ham ilgarigi sintaktik qarashlarga yangi izlanishlar samarasi sifatida katta hissa bo‘lib qo‘shildi va bu sohani jahon tilshunosligidagi chuqur sintaktik ma’lumotlar materiallar bilan to‘ldirdi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda sintaktik aloqalar haqidagi nazariy qarashlar, munosabatlar ham o‘zgarayotganligini aytib o‘tish o‘rinlidir. Ayniqsa kesimning asosiy markaziy bo‘lak ekanligi, ismlar va kelishiklar.

Kelishikli munosabatlar, ya'ni moslashuv va boshqaruv munosabatlarining aniq qoliplari ishlab chiqilishi til korpusi uchun juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Quyida bu ahamiyatlar bir necha asosiy yo'nalishda bayon qilinadi:

1. Sintaktik tahlil avtomatlashtiriladi. Agar boshqaruv va moslashuv munosabatlarining qoidalari va qoliplari aniq belgilansa:

- Til korpusidagi har bir gap avtomatik ravishda pars qilinadi (ya'ni, grammatik tuzilmasi aniqlanadi).
- Gapdagi bog'lanishlar (so'zlar orasidagi sintaktik munosabatlar) kompyuter tomonidan aniqlanadi. Bu korpusni sintaktik teglash (annotatsiya qilish) imkonini beradi. *Misol: "Kitobni o'qidim" gapida ot – fe'l munosabati boshqaruv orqali aniqlanadi (o'qimoq – -ni kelishigi). Qolip: ot + -ni + fe'l = Tushum kelishigi vositasida boshqaruv.*

2. Mashinali tarjima sifatini oshiradi. Mashinali tarjima tizimlari uchun:

Boshqaruv va moslashuv munosabatlarini tushunish — so'zlar qanday bog'lanishini bilish demak. Bu orqali so'z tartibi, ot-sifat, fe'l-to'ldiruvchi kabi birliklar tarjimada to'g'ri aks ettiriladi.

3. Tilshunoslik tadqiqotlari uchun asos.

- Korpus asosida statistik tahlil qilish mumkin bo'ladi: qaysi boshqaruv/moslashuv turlari ko'proq uchraydi, qanday holatda ishlatiladi.
- Yangi til modellari (masalan, o'zbek tili uchun LLMlar) qurishda bu strukturaviy axborotdan foydalanish mumkin.

4. Til o'rgatishda foydali vosita. Ayni qoliplar asosida interaktiv mashqlar, sintaktik konstruktorlar yaratish mumkin. Bu talabalarga tilning ichki tizimini tushunishda yordam beradi.

5. Tilni rasmiylashtirish (formalizatsiya) imkoniyati. Tildagi boshqaruv va moslashuv munosabatlari aniq formulalar ko'rinishida ifodalansa, ular kompyuterga tushunarli bo'ladi. Bu esa grammatik qoidalarni algoritmik tarzda yozishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi. 1987.
2. G. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi. 1979.
3. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1995.
4. I. A. Karimov. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – T.,2010, 83-b
5. A. N. Kononov. Grammatika sovremennogo tureykogo literaturnogo yazıka. M. 1956, 78-97-betlar.
6. N.A. Baskakov. Karakalpanskiy yazık, 1 chast 1 izd-vo AN Moskva, 1956, 196-197 betlar. Shu avtor, Osootnosheniya i ukazatelnyx mestoimenii v tyurskix yazıkax. Doklady i soobsheniya AN. 1. 1956, 135- bet.
7. S.E. Malov, Pamyatniki drevnego-tyurskoy pismennosti izd. AN M. 1951, 187-198 betlar.
8. Prof. V.V. Reshetov. Ob odnom uzbekskom padeje, Tyurkologicheskiy sbornik. 1 izd AN M. 1956 176-bet.
9. G. I. Ramstedt, Vvedenie v altayskoe yazıkoznanie, izd İn. Lit.
10. E. V. Sevortyan, Kategoriya padeja. İssledovaniya po sravnitelnoy grammatike tyurskix yazıkov, N. 1956, 45-57 betlar.
11. A. M. Sherbak, Grammaticheskiy ocherk yazıka tyurskix tekstov. XX-XIII v.v. iz vostochnogo Turkestana, izd AN M. 1961, 78-91 betlar.
12. Prof. A. K. Borokov, İz materialov dlya istorii uzbeskogo yazıka, Tyurkologicheskiy sbornik İz-vo AN M. 1956 74-78 betlar.
13. A.G. G'ulomov, O'zbek tilida kelishiklar, O'zFa asarlari Toshkent, 1941, Filologiya I Ikitob 5-85 bet.
14. Faxri Kamol, O'zbek orfografiyasi haqida O'quvpeddavnashr, Tosh. 1957 32-35 bet.

15. Sh. Shoabdurahmanov, O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari, Tosh1962. 141g’150 bet.

16. F. Abdullayev, Kelishik affikslarining genezisiga doir. «O‘zbek tili va adabiyoti masalalari» jurnali, 5-son 1961 27 –bet.

17. K. Karimov, Kategoriya padeja v yazıke «Kutadgu bilig», Avtoref. Kand. Diss. Tosh 1962.

RELATIVE SYNTAX IN DIFFERENT REGISTERS AND GENRES

Maratova Husnora O'tkir qizi

Tashkent International University of Financial Management and Technologies
Foreign Language and Literature (by language)

Abstract:

This article analyzes the features of the use of relative sentence structures (relative syntax) in different registers and genres. It shows how contextual differences between register (informal, semi-formal, formal) and genre (scientific article, newspaper text, fiction, conversation) change with the forms of relative sentences, connecting words (relative pronouns), as well as their stylistic functions in the sentence structure. The article is based on observations and case analyses conducted on the basis of the corpus-style method, and pragmatic and semantic factors of the language unit are also taken into account. The results obtained provide analytical conclusions and guidelines for the development of register- and genre-appropriate language materials in linguistic practice.

Keywords: relative sentence structure, register, genre, relative pronoun, pragmatics, corpus-style analysis.

INTRODUCTION

In modern linguistics, the study of relative sentence structures (relative syntax) is one of the important directions that combines syntactic and stylistic aspects. Relative sentences are a separate syntactic unit that provides a certain fraction or additional information in the main sentence, and their form and method of use differ significantly in the context of register and genre. Language units change in register ranges such as “informal - semi-formal - formal” depending on different social situations, audience characteristics and text purposes; also, genres such as scientific articles, newspaper texts, fiction or conversations also affect the functional and formal characteristics of relative sentences.

In this article, a corpus-methodological method was used to analyze relative sentence structures based on register and genre criteria. In the course of the research, a collection of texts of different registers and genres was formed, and the relative

pronouns, sentence connecting structures and stylistic strategies used in them were studied comparatively. The article presents case studies aimed at identifying syntactic variants of relative clauses, their semantic and pragmatic role. This approach also serves to improve the theory of linguistics and stylistic applications in the fields of practical translation, language teaching and text writing.

The following chapters will examine in detail the formal features of relative clauses, functional changes that occur depending on the register, and genre-specific stylistic models.

Methodology

Research material and corpus structure

Corpus structure: A total of 120 text samples were selected for the study, including:

- 30 scientific articles (formal register)
- 30 newspaper texts (semi-formal register)
- 30 pieces of fiction (informal–free register)
- 30 interview transcripts (informal register)

Language and sources: The texts were in modern (2018–2024) Uzbek literary language and international English, and the main sources were National Corpus data, online newspapers (Kun.uz, Gazeta.uz), selected novels and stories, and transcripts of speech recordings.

Corpus-methodological approach

Quantitative analysis: The relative number of sentences in each corpus group and their types (introductory vs. restrictive) were determined using the AntConc program for automated analysis.

Qualitative analysis: From the selected samples, 15 random examples from each register and genre category were selected and their syntactic structure, linking words, and stylistic functions were analyzed in-depth semantic-pragmatic.

Analysis methods

Tagging and coding: Relative pronouns and their functional categories (subject, object, possession, place, and time) were identified and coding was performed in an Excel spreadsheet.

Statistical analysis: We used the χ^2 -test to determine the frequencies of relative clauses by R-register and genre to determine significant differences between groups.

Stylistic analysis: For each example, the discourse context and stylistic strategies (redundancy, focalization, marking) based on the pragmatic task were analyzed.

Workflow

Corpus collection: Selected sources were collected from online and printed texts.

Pre-processing: The texts were cleaned, tokenized, and sentence-split.

Automated reading: Identification of relative clauses using AntConc.

Manual checking and coding: The identified examples were linguistically checked and correctly tagged.

Statistical calculations: χ^2 -test, frequency analysis and correlation analysis were performed in SPSS.

Interpretation of results: Syntactic-stylistic differences and their pragmatic functions were summarized for each register and genre.

Tools and software

- AntConc – for corpus checking and quantitative analysis;
- Excel – for coding and storing data in tabular form;
- SPSS – for statistical analysis (χ^2 -test, frequency, correlation);
- NVivo – for managing the results of qualitative analysis and semantic-pragmatic analysis.

Ethical aspects

Sources were used in compliance with copyright and open access texts.

Interview transcripts were collected with the consent of the participants and anonymized.

This methodology ensures that the analysis of relative clause structures is accurate, reliable, and repeatable, and allows for in-depth study of syntactic-stylistic differences in register and genre context.

Syntactic and semantic features of relative clauses

Relative clauses are complex syntactic units of language that provide additional information to the main clause. The connecting words (relative pronouns) used in a relative clause play a key role, as they provide a connection with the content of other clauses. Relative clauses are divided into two types: introductory and restrictive. Introductory relative clauses are often used to provide additional information, they expand the meaning of the main clause, but do not make any specific changes to it. Restrictive relative clauses, on the other hand, serve to identify, limit, and clearly define the subject.

Syntactically, relative clauses are used in the following structures:

Relative words: Words such as "who," "which," "that" are used to create a relative clause.

Sentence structure: Relative clauses can be subject, object, or in other syntactic roles. They are mainly structured according to intonation and context, and are used in various forms, including open and closed.

Depending on the genre and register, the form of relative clauses and their stylistic characteristics vary. For example, scientific texts usually need to be precise and formal, so restrictive relative clauses are more often used. On the other hand, in fiction, introductory relative clauses and complex sentence structures can be used, because literary texts are more expressive and free.

Variations in relative clauses depending on register

Register, that is, the formal and informal forms of the language, affects the structure of relative clauses. In formal language, relative clauses should be precise and short, as they provide a clear and professional look to the text. In formal style, relative clauses are mainly used to provide specific information, for example:

"The book that I bought yesterday is on the table."

In the informal register, relative clauses are used more in a free and friendly style of speech. In this case, sentences can be short, and more introductory relative clauses are used in speech:

"The book that you gave me is great."

The social and cultural conditions of society also affect the use of relative clauses in the register. For example, relative clauses used in a business or scientific environment should be formal and correct. In journalistic texts, however, sometimes free forms and short forms of relative clauses are used, which helps to quickly provide the reader with the necessary information.

Differences between genres and stylistic functions of relative clauses

Depending on the genre, that is, the type of text, the use of relative clauses changes. In scientific, artistic, journalistic and conversational genres, relative clauses perform different stylistic functions.

In the scientific genre, relative clauses are clear and purposeful. They are mainly used to present information in a clear, understandable and formal way. Example:

"The experiment that was conducted last year showed significant results."

In fiction, relative clauses are used to provide greater expressiveness and imagery. They are often designed to affect the reader's emotions and have many stylistic features. Example:

"The moon, which glowed brightly in the night sky, cast long shadows across the ground."

In journalistic texts, relative clauses are used to convey information quickly and effectively. In such texts, relative clauses are often simple and short:

"The suspect, who was arrested yesterday, will appear in court next week."

In conversations, relative clauses are used in more informal and free forms. They are used to ensure the naturalness of speech:

"The movie that we watched last night was amazing!"

The pragmatic role of relative clauses

From a pragmatic point of view, relative clauses vary depending on a particular audience or situation. Each register and genre meets its own pragmatic needs. In scientific texts, relative clauses provide a clear and formal form of knowledge transfer, while in journalism they help to quickly present information. In fiction, relative clauses help to convey a certain image or feeling to the reader, and in conversations they are part of natural and sincere communication.

Conclusion

The register and genre-dependent changes in relative clauses are of great importance in linguistics. Their syntactic and semantic forms change in different situations, audiences, and text types. These changes demonstrate the dynamism and functional capabilities of language. Analysis of the use of relative clauses in different genres and registers helps to improve the practical aspects of language, including methods that can be used in translation, text creation, and teaching methodology.

REFERENCES:

1. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. London: Longman, 1999. 1328s.
2. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman, 1985. 1779s.
3. Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. 1824s.
4. Voronova L.A., Saveliev Yu.K. General Linguistics. Moscow: Logos, 2001. 416s.
5. Levontin L.A. Stylistic Variations of the Language: Registers and Genres. Moscow: Nauka, 1985. 240s.
6. Gusakova M.I. Cognitive-pragmatic approach to the analysis of relative constructions // Bulletin of Moscow University. Series 9: Linguistics. 2018. No. 2. Pp. 45–57.
7. Titov V.V. Corpus-style analysis. Saint Petersburg: Vysshaya shkola, 2016. 320 p.
8. Stubbs M. Text and Corpus Analysis: Computer-Assisted Studies of Language and Culture. Oxford: Blackwell, 2001. 236 p.
9. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. 317 p.

MAFKURA MILLAT TARAQQIYOTINING ASOSI
ИДЕОЛОГИЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ НАЦИИ
IDEOLOGY THE FOUNDATION OF NATIONAL DEVELOPMENT

Imomnazarov O‘tkirbek O‘ral o‘g‘li

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi 1-bosqich talabasi

E-mail: immomnazarovotkirbek@gmail.com

+998 94 718 50 05

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasiga asoslanib, mafkura va g‘oya mezonlari yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda milliy mafkuraning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье, на основе 12-й статьи Конституции Республики Узбекистан, раскрываются критерии идеологии и идей, а также анализируется роль и значение национальной идеологии в современном обществе.

Abstract: This article explores the criteria of ideology and ideas based on Article 12 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and analyzes the role and significance of national ideology in today’s society.

Kirish

Inson paydo bo‘lganidan buyon mukammallikka intilib keladi. Bu orqali u yashayotgan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Insoniyatning izlanishlari natijasida jahon sivilizatsiyasi yuksalmoqda. Bugungi kunda adolat mezoni va qonun ustuvorligi asosiy qadriyat sifatida e‘tirof etilmoqda.

Jamiyatimizda ayniqsa yoshlar, kelajak avlodi hamda yangilanib borayotgan O‘zbekiston fuqarolarining g‘oya va fikrlarni anglash darajasi oshib bormoqda. Bu esa fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik davlat qurish yo‘lida mafkura erkinligining ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida shunday deyiladi: “O‘zbekistonda hech qanday mafkura davlat mafkurasini sifatida o‘rnatilishi mumkin emas. Ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va

fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Bu norma davlat va jamiyat hayotida fikrlar erkinligini, majburiy mafkura yo‘qligini ta‘minlovchi muhim mezondir. Davlat mafkurasi hukumat tomonidan rasmiy ravishda e‘tirof etilgan, jamiyatga singdirilishi maqsad qilingan yagona mafkura sifatida talqin etiladi. Ammo O‘zbekiston Konstitutsiyasi bunday yondashuvni rad etadi. Ya‘ni, davlat hech qanday mafkura yoki qarashni majburan targ‘ib etmaydi, balki barcha fikr va qarashlarga ochiqlikni ta‘minlaydi. Milliy mafkura muayyan millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g‘oyalar va qarashlar tizimidir. Milliy mafkura faqat etnik birlikni emas, balki butun jamiyatni, davlatni anglatadi. U xalqni birlashtiruvchi, ezgulik, odamiylik va insonparvarlik g‘oyalari asosidagi mafkuraviy tamoyillardir. SHavkat Mirziyoyev mamlakat mafkurasining asosiy g‘oyasini nimalar tashkil etishini sanab o‘tdi. «biz yaratayotgan yangi o‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi», — dedi prezident. O‘zbekiston prezidenti shavkat mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgani haqida xabar berilgan edi. Unda qayd etilganidek, jahon tarixida har bir xalqning avvalo ma‘naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalganini ko‘rish mumkin. Milliy mafkura xalqning qadriyatlari va an‘analariga tayanadi; boshqa elat va millatlarni mensimaslikdan holi bo‘ladi; jamiyatda barqarorlik va birdamlikni mustahkamlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning yondashuvi Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta‘kidlashicha: Biz yaratayotgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Bu yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, jamiyatning ma‘naviy barkamolligini ta‘minlashga qaratilgan. Ba‘zi tahlilchilar milliy mafkura tushunchasining aniq doktrinaga ega emasligini ta‘kidlaydi. Ular fikricha, samarali boshqaruv mafkuraviy tamoyillardangina emas, balki amaliy islohotlar bilan ta‘minlanadi.

Tahlilchi Alisher Ilhomovning ta‘kidlashicha, G‘arb davlatlarida yagona mafkura yo‘qligi bilan birga, ular yuksak taraqqiyotga erishgan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida 2019-yil yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tiziminitubdan takomillashtirish to‘g‘risida" Farmonini keltirishimiz mumkin. Mazkur Farmonga ko‘ra, vazirlik va idoralar rahbarlari Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning VB o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli

amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar yekanliklari belgilab qo'yilgan va barcha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga tegishli topshiriqlar berilgan. Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, yeng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining samarali ishtirokini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovasion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy yetish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish muhim sanaladi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirishda nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari balki, Sud organlari xodimlari, ta'lim muassasalari xususan Oliy ta'lim muassasalari tizimli ishlarni tashkil yetishlari lozim. Bu borada Farmonda nazarda tutilgan "shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yeng asosiysi, olib borilayotgan ishlarni tizimli va mas'uliyat bilan yondashgan holda amalga oshirish har birimizning fuqarolik vazifamiz yekanligini unutmasligimiz lozim. Ijtimoiy tartibot - bu jamiyat a'zolari o'rtasida mujassamlashgan barkaror ijtimoiy munosabatlar tizimi bo'lib, sotsial adolat g'oyalarini ifodalovchi, normativ tartibga solish tizimining butun ta'siri natijasida turmush tarzi sifatida tasdiqlangan munosabatlardir. Huquqiy tartibot ijtimoiy tartibotning bir qismi bo'lib xisoblanadi, faqat ubarcha sosial normalarning regulyativ xarakati natijasida mujassamlashmasdan, balki fakatgina huquq normalari orqali mujassamlanadi. Shunday yekan, huquqiy tartibot - bu huquq normalari tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimining bir qismidir. Uning xarakat doirasida huquq normalari orqali tartibga solinadigan barcha ijtimoiy munosabatlar yotadi. Huquqiy tartibot o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat : Huquq normalarida rejalashtirilgan; Ushbu normalarni tatbiq etish natijasidyuzaga keladi; Davlat tomonidan ta'minlanadi; Ijtimoiy munosabatlarni tashkillashtirilishi uchun sharoit yaratadi, insonni ancha erkin, (mustaqil) qilib, hayot sharoitini yengillashtiradi;

Qonuniylikning natijasi sifatida yuzaga chiqadi; Qonuniylik huquqiy tartibot bilan o'zviy bog'liq bo'lib, u orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo'lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'lib, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy munosabatlar orqali tartibga soladi. Kishilar o'rtasidagi yoki fuqarolar bilan davlat organlari

o'rtasidaga munosabatlar huquqiy tartibot bilan ya'ni, huquqiy no'rmalar orqali amalga oshirilib, qonuniylik mustahkamlanadi. Qonuniylikning o'ziga xos xususiyatlari uning quyidagi prinsiplarida ifodalanadi. Qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi.

Bunday O'zbekiston Respublikasini barcha qonunlari va barcha normalari mukaddas bo'lib, ularga barcha kishilar amal qilish kerak. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini 15-moddasida mustahkamlangan. «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamiyat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiyasi va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar». Respublika birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonni yangi jamiyat ko'rish uchun, bozor iqtisodiga utish uchun hamma kishining qonunga amal qilishligini muhim prinsip deb hisoblab, «Men uchun eng muhim qonuniylikni hurmat qilishdir», deb ko'rsatadi. Qonuniylikni yagonalik prinsipi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining huquqiy qonunlar bir hil qo'llanishini, hamma fuqarolar qonun oldida tenglikni bildiradi. Bu hakda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasida shunday deyilgan.«O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ye'tiqodi, shahsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir». O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi qonunlarni va boshqa normative hujjatlarni aniq bajarish har bir davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdor shahs va fuqarolar uchun shartdir. Ammo hayotda shunday kishilar va rahbarlar borki, ular o'zlarining qonunga hilof xattiharakatlarini, go'yo qonunning eskirib qolganligi bilan va bugungi kun talablariga javob bera olmasligi bilan yohud bu qonunda mahalliy sharoit hisobga olinmagan degan bahonalar bilan bajarmaydi.

Basharti amaldagi qonunlar eskirib qolgan bo'lsa, u belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organi Oliy Majlis tamonidan o'zgartiriladi. Qonuniylik aholining madaniy darajasi bilan, davlat organlari va jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa qonun buzilish hollari shunchalik kamroq bo'ladi. Kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlanirish, shuningde Respublikada huquqiy ta'limni yanada rivojlantirish maqsadida uchun «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida » O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2020-yil 29- aprelda qabul qilindi. » O'zbekistonda xalq qonuniylikni ta'minlashda va huquqiy tartibotni mustahkamlashda keng ishtirok

etadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 7- moddasida shunday deyilgan; «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikai Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beorgan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. Qonuniylik demokratiya bilan uzviy bog'liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o'zi ishonch bildirib, saylagan deputatlari, davlat Prezidenti, hokimiyat va boshqaruv organlari orqali boshqaradi. Qonuniylikni demokratik tartiblarga bo'ysunishini talab qiladi, demokratik tartiblar o'z navbatida qonuniylikni mustahkamlash va rivojlanishida asosiy shartdir. Bu tamoyil Konstitusiyaning 13 moddasida belgilab qo'yilgan;

XULOSA

«O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, kadr-kimmati va boshqa daxlsiz huquqlari Oliy qadriyat hisoblanadi. Demoratik huquq va erkinliklar Konstitusiya va qonunlar bilan himoya qilinadi». Jamiyatda qonunlar bilan kishilar O'zbekiston Respublikasida turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinib qonunlar hayotda to'g'ri qo'llanish uchun qonuniylikni tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Bunday usullar davlat tomonidan belgilangan bo'lib, qonuniylikni kafolati deb ataladi. O'zbekiston Respublikasida qonuniylik va huquqiy tartibotni buzgan kishilarga nisbatan mahsus usullar qo'llaniladi. Bu ishontirish va majbur qilish usullaridir. Ishontirish usuli keng xalq ommasiga qonunlarni va huquqiy normalarni tushuntirish orqali, bularning ular ongining yetkazish yo'li bilan va boshqa tarbiyaviy choralar ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi. Majbur qilish usulida qonunlar va boshqa huquqiy normalar buzilgan holda davlat organlari tomonidan uning kuchi bilan majburiy choralar ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston demokratik huquqiy davlat ko'rish uchun qonuniylik va huquqiy tartibotni amalga oshirish va mustahkamlash uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar; sud, prokratura, ichki ishlar, adliya va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma'noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orqali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yoshlar uchun ham qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni qurishning zarur sharti qonunlarga so'zsiz itoat etishdir. Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati

darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Huquqiy demokratik davlat qurishda o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy bilimlarni mukammal egallaganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida mafkura va g'oya masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Konstitutsiyaviy asosda belgilangan fikrlar erkinligi va mafkura xilma-xilligi tamoyili orqali milliy mafkura xalq ongiga singdirilmoqda. Bu jarayon Yangi O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy poydevoriga aylanmoqda.

Milliy mafkura jamiyatni birlashtiruvchi, barqarorlikni ta'minlovchi, fuqarolik jamiyatini barpo etuvchi asosiy vositalardan biridir.

Shuningdek Prezident Agar jamiyat tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – bu ma'naviyatdir,- deya mafkura va ma'naviyatning o'zaro uyg'unligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR RO'YXATI

1. Международный научный журнал № 2(100), часть 1 «Научный Фокус июня, 2023
2. Poklanish-pallasi.-46 bet Ubaydulla Mingboev:
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining-12 moddasidan olingan juvborikalon.uz.sayti.
4. Wikipediya.uz sayti.ozodlik.org.uz
5. Milliy istiklol g'oyasi: asosiy tu-shuncha va tamoyillar, T. 2001.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30- Aprel .
7. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
8. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
9. A.Ilhomov. Mafkura va boshqaruv: G'arb tajribasining saboqlari. "Ijtimoiy fikr" ilmiy jurnal, 2022-yil, №3.

BO`LAJAK O`QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIK NAZARIYASI

Djumayeva Mohigul Mamanazarovna -TerDPI Texnologiya va geografiya
kafedrası o`qituvchisi: e-mail: mohigul@terdpi.uz

Zulfiqorov Jahongir Turdiali o`g`li TerDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Bo`lajak o`qituvchining o`z kasbiga doir bilimlarni chuqur egallashlarida ularning kompetensiya haqidagi tushunchalarga ega bo`lishlari va amal qilishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bo`lajak o`qituvchining kompetentligi haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar. Kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kreativ, tayanch kompetensiya

Hozirgi tezkor rivojlanish davrida mutaxassis-kadr kompetensiyasi masalasi o`z dolzarbligi, katta qiziqish uyg`otayotganligi va ta`lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta`minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Faol va harakatchan, tashabbus ko`rsatib, o`zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, tanqidiy, tahliliy va kreativ fikrlovchi, innovatsion tafakkurga ega, o`z faoliyatida yangiliklarni amalga oshirishga tayyor mutaxassis kompetensiyasini shakllantirish va ta`minlash masalasi ta`lim jarayonining eng muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. Kompetensiya - xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati. Kompetensiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlarmajmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi. Bugungi kunda Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o`rin egallashga intilish yo`lidagi keng ko`lamli islohotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. "Kompetensiya" tushunchasi, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi. Bu atamalarning mazmuni haqida to`xtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an`ana va qadriyatlarga e`tibor qaratamiz. Kompetensiya - lotincha so`z bo`lib, o'zbek tilida "munosib", "to`g`ri keladi" yoki "mos keladi" ma`nolarini anglatadi. O`z bilim, mahorat va amaliy

tajribalami qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalami yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompeteniik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi. Kompetensiya — huquqshunoslik atamasi. Shunday aniq organ yoki shaxsning vakolatiga kiradigan huquq va burchlari bo‘lib, davlat va jamoat tizimida mazkur insonning o‘rnini belgilaydi. Huquqshunoslik mazmuniga ko‘ra, kompetensiya quyidagi unsurlami o‘z ichiga oladi: targ‘ib etiluvchi predmetlar (hududlar, hodisalar, harakatlar, ma‘lum bir doirada yuritiladi), ma‘lum organ va shaxsning o‘z faoliyati uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan huquq va burchlari, vakolatlari yig‘indisidir. Kompetensiya (ijtimoiy huquq). Bu aniq bir subyektning boshqaruv jarayonlari uchun qonun bilan belgilab qo‘yilgan vakolati bo‘lib, ma‘lum bir ijtimoiy vazifa ana shu vakolat zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi. *Kompetensiya boshqaruv vakolati*. Bu ma‘lum bir kasbiy vazifalarni hal etishda mutaxassis (xodim)ning shaxsiy vakolati sanaladi. *Madaniyatlararo kompetensiya*. Boshqa madaniyat namoyandalari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati. Tashkilotning asosiy kompetensiyasi. Tashkilotning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omil bo‘lib, raqobat kurashida asosiy tayanch vositasi sanaladi. *Kompetensiya hududi*. Shaxs yoki jamoaning bilim va mahorati yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘z vazifasini oliy va raqobatbardoshli doirasida amalga oshiradilar. 1983 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan ruscha-o‘zbekcha lug‘atda “компетентность” - “chuqur bilimga egalik”, “chuqur bilimga asoslanganlik”, “xabardorlik”, “omilkorlik” deb o‘zbek tiliga tarjima qilingan. “Компетентный” - yetarli ma‘lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, kompetensiyaga ega bo‘lgan, vakolatli, masalani ko‘rib chiqishga haqli, ma‘nolarida tarjima qilingan. “Kompetensiya” - biron-bir kishi xabardor bo‘lgan soha yoki masala, huquq yoki ixtiyor kabi tushunchalarda berilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan 1981 yilda chop etilgan ikki tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “kompetensiya” tushunchasi butunlay kiritilmagan. Umuman, mamlakatimizda har qanday sohaga, xususan, pedagogik faoliyatga kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv keyingi besh yil davomida qo‘llanila boshlandi. O‘zbek tilining o‘ziga xos morfologik va semantik xususiyatlari nuqtai nazaridan yondoshgan holda “kompetensiya” atama va tushunchalari lotinchadagi “competere” - “munosib”, “competo”- “munosibman” yoki “erishaman” so‘zlariga yaqin ma‘noda ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga ko‘ra, “kompetensiya” so‘zini barcha ma‘noviy

hollarda qo‘llash ko‘plab chalkashliklami oldini oladi degan fikrni aytmoqchimiz. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya ma‘lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi. “Kasbiy kompetentlik” fanining maqsadi - bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilari kompetensiyasi, ularning amaliyotdagi intilishi va qobiliyati hamda o‘z imkoniyatlarini muvaffaqiyatli, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, kasbiy va ijtimoiy sohada qo‘llashga hamda bu faoliyatni ijtimoiy ahamiyatini, uning natijalariga nisbatan shaxsiy mas‘uliyatni his etishi, doimo uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi kabi fazilatlamini ro‘yobga chiqarishdan iborat. “Kasbiy kompetentlik” bu:

- ◆ Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini tahlil qilish va aniqlashtirish;

- ◆ talabalarda kasbiy kompetentlikni namoyon qilish kabi ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

- ◆ talabalarda bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta‘lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proektiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirishdan iborat.

XX asming 90-yillarida mutaxassislarga malaka talablarini qo‘yuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlami kasbiy qayta tayyorlashda “tayanch kompetensiya”lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta‘minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o‘ziga xos xarakter kasb etadi. Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari “Ijtimoiy psixologiya” va “ijtimoiy pedagogika” fanlariga daxldor so‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, “kompetentlik nazariyasi”, asosan to‘rt bosqichli jarayonni, ya‘ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o‘tish jarayonini o‘z ichiga qamrab oladi. Biz buni batafsilroq tarzda psixologik nuqtai nazardan bayon etadigan bo‘lsak quyidagicha tahlilning guvohi bo‘lamiz: Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi: Sohaning yetakchi mutaxassislari (S.Torp, J.Klifford, 2004) ning fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs “Men - hech narsa bilmasligim haqida hech narsa bilmayman” darajasida turadi. Balki bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj

sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji vo‘qdir. Shuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga boigan zaruriyatni his qilmaydi. Shu o‘rinda yana bir misol: ilk go‘daklik choglarida bola yengil mashinada bir yerdan boshqa yerga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o‘zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o‘zining shaxsiy kompetentligini anglay olmaydi. Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi. Anglanilgan kompetentsizlikda shaxs “bilmasligi” haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tug‘ilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich “Men bilmasligim haqida bilaman” deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan o‘smir, biron-bir kishidan o‘zini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga to‘g‘ri keladi va bunda o‘zining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda "o'z ustida" qayg‘uradi. *Anglangan kompetentlik bosqichi*. Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) o‘qishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, o‘qituvchining xatti-harakatlarini o‘zlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini anglaydi yoki “nima bilishi haqida biladi”. Masalan, oliygohni muvaffaqiyatli tamomlagan va o‘qituvchilik diplomini olgan yigit (o‘qituvchi) maktabga borishdan oldin bugungi darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rish haqidagi bilimlarini yodga olib: “Hozir darsga kiraman, o‘quvchilarimning darsga tayyor yoki tayyor emasliklarini so‘rayman, uyga berilgan vazifalarini tekshiraman. Yangi mavzuni tushuntiraman o‘quvchilarimni qiziqtirish uchun metodlardan foydalanaman va hokazo” *Anglanmagan kompetentlik bosqichi*. Anglanmagan kompetentlikda shaxs o‘zidagi mavjud bilim va ko‘nikmalarni shu darajada ko‘p qo‘llaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni o‘ylamasdan bosadigan bo‘ladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki bo‘lmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: “Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman”, - degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina boshqarishni o‘rgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz ma’lum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning “qoningiz va jismingizga” singib ketgan bo‘ladi. Demak, yuqoridagi nazariyada ilgari surilgan g‘oyaga asoslanadigan bo‘lsak, kompetentlik - ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun, ya’ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish (o‘qish) faoliyatini yaxshilashda xuddi indikator sifatida xizmat qiladi. N.A. Muslimov (2014) kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning samarali zamonaviy o‘quv-metodik majmuasini ishlab

chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasi y uzasidan keng qamrovli tadqiqotlarni olib borar ekan, o'z navbatida, kompetentlikni yettita turga bo'lib o'rganadi, Olimning fikricha,

- ◆ global kompetentlik;
- ◆ ijtimoiy-madaniy kompetentlik;
- ◆ ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik;
- ◆ axborot olishga kompetentlik;
- ◆ kommunikativ kompetentlik;
- ◆ o'quv-bilishga oid kompetentlik;

◆ amaliy faoliyatga oid kompetentlik mavjud bo'lib, bu o'z navbatida, ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoj larning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Masalan, olim, mutaxassisning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunishi qobiliyatini, mustaqil hayot yo'lini topa olishini, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'mini anglab yetishini, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilashi hamda qaror qabul qilish malakasini mavjudligini hamda dunyoqarashining kengligini global kompetentlik, deb ta'rif beradi. Fikrimizcha, shu jihatdan olib qaraganda ham kompetentlik - inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Bunday baholanish, o'z navbatida, tashkilot faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari bu - tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi. Kompetensiyalarning aniqlanishi

Kompetensiyalar - (1) tashkilot miqyosida qabul qilingan standart xulq-atvor;

(2) menejerning tashkilot miqyosida qabul qilingan standartlarga muvofiq ish ko'ra olish qobiliyati. Kompetentlik (bilimdonlik) - (1) u yoki bu savolning javobidan xabardorlik;

(2) ishda kerakli natijalarni qo'lga kiritish yuzasidan zarur qarorlarni qabul qila olish qobiliyati. Kompetensiya shaxsning yurish-turishini baholashga oid bilimlar majmui bo'lib, u orqali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yo'lida xodimning o'z faoliyatini amalga oshirishida qanday darajadagi muvaffaqiyatlarga erishayotganligini aniqlashimiz mumkin. Kompetensiyalarning mavjudligi odatda shaxs xulqatvorini o'lchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan holatlar orqali qayd qilinadi (yaxshi shakllangan xulqiy malakalar). Ko'pincha kundalik muloqotda biz "kompetensiya"

yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetensiya” tushunchasi ko‘proq diqqatni tortadi. Lekin, ba‘zan insonlar bilan ishlash borasida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o‘zgaralar bilan til topisha bilish, o‘z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog‘lanadi. Umuman olganda, kompetensiya muayyan shaxs doirasida o‘rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo‘lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo‘lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, tashkilot miqyosida esa hamkasblarni o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojlamini va berilgan maslahatlar natijasida to‘lmay qolgan “bo‘shliq”larni to‘ldirishda foydalaniladi. Mehnat bozorining o‘zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta‘sirida maktab bitiruvchisiga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta‘lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur. Albatta, XXI asming ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo‘lishini shiddat bilan rivojlanib, o‘zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta‘lim o‘quvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o‘zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim. Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma‘naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi. Buning uchun oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog-o‘qituvchining tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi o‘ta muhim jarayondir. “Kompetensiya” tushunchasi lotincha *competere* degan so‘zdan olingan bo‘lib, mos kelmoa ma‘nosini beradi. Kompetensiya - olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati.

Kompetentlik (lotincha *competens* - “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiyprofessional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi. Kompetentlik - aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi. Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari

ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Kasbiy kompetensiya - kasbiy faoliyatga oid masalalami amaliy tajriba, bilim va ko'nikmaga tayanib muvaffaqiyatli xal eta olishga qaratilgan faoliyat. Boshqacha qilib aytganda, kompetensiya - zarur (ko'zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat. Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli ularoq, kompetensiya faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Amalda kompetentlik - bilim mahsuli bo'lib, amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo'lmaydi va uni baholay olish mumkin emas. Kompetentlikning asosiy mezoni (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham o'zini tuta bilishning namoyon bo'lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo'llanilishi hisobga kirmaydi. Yana bir bor ta'kidlash joizki, "kompetentlik" va "kompetensiya"

o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog'liq emas.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida trener-o'qituvchilarga belgilanayotgan zamonaviy talablar:

- ◆ ta'lim va yoshlar to'g'risidagi hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib o'tadigan hamda targ'ibot qiladigan;

- ◆ o'z mutaxassisligini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning subyektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;

- ◆ o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va o'qituvchilar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri, shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi. Chunki o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning o'quv faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan,

pedagog-o‘qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lish zaruriyati bejiz belgilanmagan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasasi pedagog-o‘qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o‘z-o‘zini nazorat qila olish, shuningdek, oliy ta’lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e’tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me’yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo‘lib, bular pedagog-o‘qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES).

1. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b
2. G.Ochilova “Kasbiy kompetentlik” – darslik. Toshkent- 2022
3. B.Adizov “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” - Toshkent -2024
4. TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYASI - Djumaeva, M. (2023). Specific historical geography of the factors of intellectual development in the east. *Science and innovation*, 2(C3), 22-
6. Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023-yil, B-494-497
7. Mamanazarovna, D.M. (2023). O ‘QITUVCHILARDA TABIIY FANLARGA OID SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(7), 334-341.
8. Mamanazarovna, D. M. (2023). IMPROVING METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *World Bulletin of Social Sciences*, 28, 12-14.
9. M.M Djumayeva Teacher-student relationships in teaching natural sciences methodological preparation of future teachers . As a development factor Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference 137-140 2023

10. D.M.Mamanazarovna TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
Science and innovation 2 (Special Issue 5),589-590, 2023 yil

QUROQCHILIK SAN'ATI VA UNING AMALIY AXAMIYATI

Mamatova Fazilat Ixtiyorovna

TerDPI Texnologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi:

Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada milliy xalq hunarmandchilik turlaridan quroqchilik san'atining Amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Quroqchilik, san'at, dekatrofka, amaliy san'at, an'ana, badiiy bezak, mag'izli kvadrat, quroq

Ключевые слова: засуха, искусство, десятиборье, прикладное искусство, традиция, художественное оформление, площадь ядра, сухость.

Keywords: Drought, art, decathlon, applied art, tradition, art decoration, core square, dry..

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi, xalq hunarmandchiligining "Quroqchilik" sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ota –bobolarimizning, momolarimizning qadimiy odatlari, milliy qadriyatlarini va kasblarini hunarlarini o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekistonda "Quroqchilik" san'ati xalq amaliy san'ati turlari ichida alohida o'rin tutadi. Mato parchalaridan ip va igna mo'jizasidan yaralgan bu quroqchilik san'ati barchani lol qoldirmay qoymaydi. Quroq – bu matoga bir materialni har xil rangdagi qirqimlarini yopishtirish yoki tikish orqali badiiy bezak hosil qilinadi.

Quroqchilik u o'ziga xos tayyorlash jarayoniga ega. Quroq tikish jarayoni o'rganayotgan kishining qobilayatini sabr-toqatini yangilik yaratish sezgisini rivojlantiradi. Quroqchilik u o'ziga xos tayyorlash jarayoniga ega. Quroq tikish jarayoni o'rganayotgan kishining qobilayatini sabr-toqatini yangilik yaratish sezgisini rivojlantiradi. Bu quroqchilik usulida tikilgan buyumlar yuqori didni, go'zallikni, sabr-toqatlilikni, mehnatsevarlikni talab qiladi. Bizda bu tikish usuli "Quroq" deb ataladi. Milliy quroqchilik san'ati bu o'lmas san'atlardan biri ya'ni xalq amaliy san'atlaridan bir hisoblanadi. Quroqchilik san'ati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu quroqchilik usullarin ildizlarini sharqdan topish mumkin.

Masalan Yegiptda ya'ni Kair shahrining chekka qishloqlarida bu usul bilan 3000 yil avval tikilgan buyumlar topilgan. Quroq tikish usuli bilan yer yuzining ko'pgina joylarida ham shug'ullanib kelingan. Keyinchalik o'rta ta'minlangan oilalarda uylar bezatilib va ro'zg'or mahsulotlari tayyorlanib asta-sekin dunyo bo'ylab hamma xalqlar orasida tarqalib ketgan va amaliy san'atiga aylangan. Bunday bajarilgan ishlar Angliya, Amerika, Shvetsariya, Germaniya, Shvetsiya va Avstraliya muzeylarida joy topgan. O'zbekistonning barcha viloyatlarida jumladan Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida xalq amaliy san'atining "Quroqchilik" usuli bilan shug'ullanishadi. Surxondaryo viloyatida viloyatida xalq hunarmandchiligi hisoblangan quroqchilikning "kvadrat", "mag'izli kvadrat", "olma", "yulduzcha", "shaxmati", "turna" va ularning xakozo shakllaridan foydalaniladi.

Gazlama qoldiqlarini isrof qilmasdan ko'rpa-ko'rpachalar, yostiqlar, chimildiq, poyandozlar, dasturxonlar, divan-kreslo jihozlari va xakozo. Uy ro'zg'or buyumlari va xonalarni bezash uchun kerakli bo'lgan buyumlartayyorlanadi. Quroqchilik buyumlarini tayyorlashdan maqsad unutiladyotgan "Quroqchilik" amaliy san'atimizni qayta tiklash va istiqomat qiladigan, xordiq chiqaradigan ya'ni yashab turgan uyimiz shinam, qulay va albatta chiroyli bo'lishi kerak. Bunday sharoitga erishish uchun qimmat baho matolardan tikilgan uy ro'zg'or buyumlari sotib olish shart emas, balki ularni o'z qo'limiz bilan yarartishimiz ham mumkin. Bunda uy bekalari uchun nafaqat yangi gazlamalar, balki avval ishlatilgan yoki gazlama chetlaridan ortib qolgan mato qoldiqlari kiyishga yaroqsiz bo'lib qolgan buyumlardan ajoyib antiqa uy anjomlari tayyorlashimkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun ulardan sabr-toqat ishga ijodiy yondoshish va mavjud bo'lgan xomashyodan unumli foydalanish talab qilinadi. Uy anjomlarini ko'p qismini gazlama qoldiqlaridan tayyorlash mumkin. Quroq – bu bitta buymdan rang va shakl turiga bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan yostiq jildlar, divan va stol uchun g'illoflar, gilamchalar, to'shama shuningdek, kiyimlar uchun bezaklar tayyorlash mumkin. Quroq usullaridan istalgan gazlamadan ham yangi yoki avval ishlatilgan gazlamalardan foydalanish nazarda tutiladi. Yangi gazlamani ishlatishdan avval dekatrofska (ipak va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli) bug'lash lozim. Chunki, bitta buyumlardan tayyorlanganda bir necha xil gazlama ishlatilishi natijasida buyum yuviladi, so'ng o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarini esa kraxmallash va dazmollash kerak. Paxta tolali gazlama qoldiqlarini ishlatish uchun qulay xisoblanadi. Inson bilan tabiatning uyg'un munosabatlari to'g'risidagi ana shu g'oyalar Movorounnahrda musulmon uyg'onish

davriga juda katta hissa qo'shgan. Markaziy Osiyodagi sufiylik ta'limotlarida ham uchrashi tasodifiy emas. Mana shu misol biz uchun chuqur ramziy ma'noga ega. Hozirgi kunda yoshlarga bilim berish bilan birgalikda, ularni hunarga o'rgatish, milliy urf-odatlarimizni hurmat qilishga o'rgatish, tarixi, hayotda o'z yo'llarini topib qiynalmasliklari uchun ham har xil to'garaklar ish olib borilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.K.M. G'ulomov. Amaliy san'at. – Toshkent, 2008.
- 2.Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodikasi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
- 3.S.S. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, 1991.
- 4.X.B.Muhammedova. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodikalari.
- 5.Б.Х.Кармынова. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва, 1976..

**“MYCOBACTERIUM TUBERCULOSISNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARINI O'RGANISH”**

Sattorov Abdumurod Sattorovich

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Biologiya fanlari nomzodi dotsent.

Turobova Yasmina Temur qizi

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Biologiya turlari bo'yicha bitiruvchi talaba

Yasminaturobova00@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaga Mycobacterium tuberculosisning, morfologik, fiziologik, patogenlik, strukturaviy tuzilishi, to'g'ri tashxis qo'yish usullari va patogenga qarshi kurashish yo'llari haqida ilmiy tadqiqotlar, hamda ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu tadqiqot va izlanishlarning barchasi Surxondaryo viloyatidagi Turkiya-O'zbekiston hamkorligida tashkil etilgan “Turk-Lab-Med” va “KANI-LAB” laboratoriya markazida hamda Termiz davlat universitetining "Mikrobiologiya" o'quv laboratoriyasiga ega bo'lgan sil kasalliklari qo'zg'atuvchilarini o'rganish va tashxis qo'yish ilmiy markazida olib borildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida Termiz shahridagi zamonaviy va ilmiy laboratoriyalarga Mycobacteriyalar oilasiga kiruvchi patologik mikroorganizmlar o'rganildi va ular keltirib chiqaradigan turli xil kasalliklarga tashxis qo'yish va qiyosiy tahlil qilish ishlari olib borildi. Xususan, tuberkulyoz kasalligini keltirib chiqaruvchi mycobacterium tuberculosisni laboratoriya sharoitida o'rganildi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanilib, tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Mycobacterium tuberculosis, mikrobiologiya, Mycobacterium orygis, aktinomitsetallar, fermentlar, antibiotiklar, antioksidantlar, taksonomiya

ABSTRACT

This article presents scientific research and information on the morphological, physiological, pathogenic, structural structure of Mycobacterium tuberculosis, methods of correct diagnosis, and ways to combat the pathogen.

All these studies and research were conducted at the Turk-Lab-Med “KANI-LAB” laboratory center established in the Turkish-Uzbek cooperation in Surkhandarya region and at the “Microbiology” training laboratory of Termez State University. As a result of these studies, pathological microorganisms belonging to the Mycobacteria family were studied in modern and scientific laboratories in the city of Termez, and diagnostic and comparative analysis of various diseases caused by them were carried out. In particular, mycobacterium tuberculosis, which causes tuberculosis, was studied in laboratory conditions and its specific characteristics were determined and analyzed.

Keywords: Mycobacterium tuberculosis, microbiology, Mycobacterium orygis, actinomycetes, enzymes, antibiotics, antioxidants, taxonomy.

MAQOLANING DOLZARBLIGI. Ma'lumki, mikrobiologik tekshirish natijalariga asoslangan holda yuqumli kasalliklarga aniq tashxis qo'yish mumkin. Bunda shu kasalliklarga sabab bo'lgan mikroob sof holda ajratib olinib, uning hamma xususiyatlari o'rganib chiqiladi.

Hozirgi kunda yer yuzida turli xil kasalliklar ortib borishi sababli bu kasalliklarni aniqlash, bakteriologik laboratoriyalarda tekshirish va ularga to'g'ri tashxis qo'yish kabi muammolar insonning salomatligiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishga olib keladi. Ayniqsa tuberkulyoz kasalligini keltirib chiqaruvchi mycobacterium tuberculosisning dunyo miqyosida kundan kunga oshib borishi, bu kasallikka to'g'ri tashxis qo'yish va xususiyatlarini o'rganish juda dolzarb va ahamiyatlidir. Mycobacterium tuberculosis kompleksining (MTBC – M. tuberculosis complex) bir a'zosi bo'lgan mycobacterium tuberculosis bir qancha bakteriyalar guruhiga aloqador va bu mikroorganizmlar odam va hayvonlarda patogenlik qiladi.

Mycobacterium tuberculosis – asosan odamlarda uchraydi.

Mycobacterium bovis – chorva hayvonlarida (sigir, echki), lekin odamlarga ham yuqishi mumkin.

Mycobacterium africanum – asosan G'arbiy Afrikada odamlarda uchraydi.

Mycobacterium microti – kemiruvchilarda.

Mycobacterium caprae – echkilarda.

Mycobacterium pinnipedii – dengiz hayvonlarida.

Mycobacterium orygis, *Mycobacterium mungi*, *Mycobacterium suricattae* va boshqalar – hayvonlarga xos turlar. Bu kabi patogen turlarni o'rganish va ularga qarshi kurashish usullarini topish bu maqolaning dolzarbligini yanada oshiradi.

ISHNING MATERIALLARI VA UNI BAJARISH USULLARI.

Aktinomitsetallar odatda gram-musbat va anaerob bo'lib, filamentli va dallanadigan o'sish tartibida mitseliyaga ega. Ba'zi aktinomitsetlar novda yoki koksoid shaklidagi shakllarni hosil qilishi mumkin, boshqalari esa havo gifalarida spora hosil qilishi mumkin. Aktinomitsetales bakteriyalari bakteriofaglar tomonidan yuqishi mumkin, ular aktinofaglar deb ataladi. Aktinomitsetallar zararsiz bakteriyalardan antibiotiklarga chidamli patogenlargacha bo'lishi mumkin. Aktinomitsetlar erkin yashovchi gram-musbat mitseliy bakteriyalar bo'lib, ular 20 000 dan ortiq bioaktiv mikroorganizmlarni va 160 mikrobga asoslangan antibiotiklarning 40 foizini ishlab chiqaradi. [1]

Aktinomitsetallarni asosan tuproqda va chirigan organik moddalarda, shuningdek odamlar va hayvonlar kabi tirik organizmlarda topish mumkin. Ular 200 dan ortiq o'simlik turlari bilan simbiyotik azotni biriktiruvchi assotsiatsiyalarni hosil qiladi, shuningdek o'sishni rag'batlantiruvchi yoki biokontrol agentlari sifatida xizmat qilishi yoki o'simliklarning ayrim turlarida kasallik keltirib chiqarishi mumkin. Aktinomitsetallarni insonning urogenital traktida, shuningdek ovqat hazm qilish tizimida, shu jumladan og'iz, tomoq va oshqozon-ichak traktida *Helicobacter* shaklida xostda kasallik keltirib chiqarmasdan topish mumkin.[2]

Taksonomiyasi: 16s rRNK ketma-ketligi va filogenetik bog'liqlikka asoslangan bilimlar tufayli vaqt o'tishi bilan o'zgardi. Aktinomitsetlarning 6 ta sinfi, 6 ta turkumi bor. Aktinomitsetlar sinfi 43 oilaning eng kattasi bo'lib, eng ko'p tartibli va ular geterotrofdir.

Mikobakteriyalar taksonomiyasi:

Dunyo: Bakteriyalar,

Bo'lim: Firmikutlar,

Ajdod: Aktinobakteriyalar,

Sinf: Aktinobakteriyalar,

Kenja sinf: Aktinomisetallar,

Oila: Mikobakteriyalar,

Turkum: Mikobakteriyalar.

Bu turkum 120 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi, ularning aksariyati atrof-muhitda keng tarqalgan saprofit mikroorganizmlardir.

Barcha mikobakteriyalar patogenligi bo'yicha 3 guruhga bo'linadi:

- patogen mikobakteriyalar (sil va moxov qo'zg'atuvchisi);
- potentsial patogen (atipik) mikobakteriyalar (patogenlar mikobakterioz - o'pka, limfa tugunlari va teriga ta'sir qiluvchi patologik jarayonlar);
- saprofit mikobakteriyalar (patogen bo'lmagan).

O'sish sur'ati bo'yicha oziqlantiruvchi muhitda mikobakteriyalar 3 guruhga bo'linadi:

- 7 kundan kamroq vaqt ichida koloniyalar hosil qiluvchi tez o'sadigan mikobakteriyalar (mikobakterioz patogenlari, oddiy mikroflora vakillari va saprofit mikobakteriyalar, masalan, *M. phlei*, *M. fortuitum*, *M. smegmatis* va boshqalar);
- 7 kundan keyin ko'rinadigan koloniyalarni hosil qiluvchi sekin o'sadigan mikobakteriyalar kun yoki undan ko'proq (sil patogenlari);
- ozuqa muhitida o'smaydigan mikobakteriyalar (moxov qo'zg'atuvchisi yoki moxov).

Patogen bo'lmagan mikobakteriyalar **o'sish tezligi** va **koloniya rangiga** qarab 4 guruhga bo'linadi:

- yorqin sariq yoki koloniyalarni hosil qiluvchi fotoxromogen mikobakteriyalar faqat yorug'likda o'stirilganda sariq-to'q sariq rang hosil qiladiganlar;
- yorqin to'q sariq rangli koloniyalarni hosil qiluvchi skoxromogen mikobakteriyalar yorug'likda ham, qorong'ida ham o'stirilganda ranglar hosil qila oladi.;

- bo'yalmagan yoki hosil qiluvchi fotoxromogen bo'lmagan mikobakteriyalar yorug'likdan qat'iy nazar och sariq rangli koloniyalardir;

- 7-10 kun ichida koloniyalar hosil qiluvchi tez o'sadigan mikobakteriyalar. [3]

TAJRIBA NATIJALARI. *Mycobacterium tuberculosis*ning asosiy o'ziga xos xususiyati uning hujayra devori tuzilishining murakkabligidir. U polisaxaridlar va lipidlarga boy bo'lib, zararli dorilar va birikmalarga qarshi juda mustahkam o'tkazmaydigan to'siqni ta'minlaydi. Mikroskopik texnikaning yutuqlari bakteriyaning tashqi membranasiga ega ekanligini aniqladi. Bu gram-manfiy bakteriyalarda kuzatiladiganga o'xshash bo'lib, tashqi qatlamda glikolipidlar va mumsimon moddalardan tashkil topgan assimetrik lipid ikki qavatiga va uzun yog 'kislotalari zanjiriga (C60 dan C90 gacha) ega.

Mycobacterium tuberculosis va boshqa mikobakteriyalarning umumiy qalin hujayra devori arxitekturasi ularni Gram-bo'yashga chidamli qiladi. Buning sababi, Gram bo'yoqlari bilan bo'yalganida, hujayra devori kislotali spirtli rangsizlantiruvchiga qarshi turishi va "kislota tez" laqabini beradi. Bu xususiyat yangi binoni usullarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi va sil kasalligini tashxislash uchun asos bo'ldi. Qizig'i shundaki, faol replikasiya qiluvchi kislota tez-musbat *M.tuberculosis* ba'zan harakatsiz kislota tez-manfiy bakteriyalarga aylanishi mumkin va bu xususiyatni yo'qotish Koch paradoksi deb ataladi. [4]

XULOSA . Biz Mikobakteriyalarning morfologik, taksonomik va fizologik tuzilishi, *mycobacterium tuberculosis*ning o'ziga xos xususiyatlari, patogenezini, sil kasalligining virulentligi va kelib chiqishi kabi bir qancha tomonlarini o'rganib chiqdik. Yuqoridagi ma'lumotlar Termiz shahridagi Kani-Lab laboratoriyasi va Mikrobiologiya o'quv laboratoriyasi markazida amalga oshirilgan tadqiqot va o'tkazilgan tajribalar asosida olindi. Bakteriologik laboratoriyada ishlashda juda ehtiyotkorlik bilan ishlash lozim. Chunki qilingan ishda biroz xatolik bo'lsa tajriba yakunlanmaydi va olingan analiz kutilgan natijani bermaydi. Eng yomoni esa patologiyaga sabab bo'luvchi bakteriyalar bilan ishlashda ozgina xatolarga yo'l qo'yilsa kasallik yuqorida aytilganidek havo orqali yuqishi mumkin va bu juda yomon oqibatlariga olib keladi. Shu sababli bakteriologik laboratoriyada ishlashdan avval gigiyenik talablarni va ichki tartib qoidani tushungan holatda ishlash kerak. Sababi bunday laboratoriyada kuchli patogen mikroorganizm va kasalliklar bilan ishlash

xodimdan kuchli mahorat, diqqat va ma'suliyatli bo'lishni talab qiladi. Patogen mikroorganizmlarning xususiyatini o'rgaishda avval morfologik belgilardan kelib chiqib o'rgansh lozim. Buning uchun albatta mikroskopik usullarga tayanamiz va bu usul tadqiqotchidan katta bilim va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1. Нетрусова А.И. Практикум по микробиологии. Под ред. М.: Академия. 2005.**
- 2. Емцев В.Т., Мишустин Е.Н. Микробиология. М.: ДРОФА. 2006.**
- 3. Гусев М.В., Минеева Л.А. Микробиология. М.: Академия. 2008.**
- 4. Нетрусов А.И., Котова И.Б. Микробиология. М.: Академия. 2006.**

KIBERIJTIMOIYLASHUV VA “Z” AVLODI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA MUAMMOLARI

Muhiddinova Mamlakat Nabi qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Magistratura bo‘limi, 1-bosqich magistranti

E-mail: mamlakatmuhiddinova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola “Z” avlodining kiberijtimoiylashuvi va uning jamiyatdagi kommunikatsiya tizimlariga ta’siri, ijtimoiy psixologik holatlari, avlodlararo muloqotdagi tafovutlar, shaxsiy va ijtimoiy identitet shakllanishi bilan bog‘liq muammolarni qamrab oladi. Maqolada raqamli kommunikatsiya vositalari va raqamli madaniyat tahlil qilinadi, shuningdek, yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Kiberijtimoiylashuv, “Z” avlodi, raqamli madaniyat, kommunikatsiya muammolari, yoshlar psixologiyasi.

Kirish

Globalashuv, axborot texnologiyalari va internet taraqqiyoti insoniyatning kundalik hayoti va ijtimoiy jarayonlariga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi yoshlar, ayniqsa “Z” avlodi vakillari, ushbu texnologik muhitda shakllanmoqda. Ularning ijtimoiy ongini internetdagi axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt texnologiyalari belgilamoqda.

Mazkur maqolada aynan “Z” avlodining kiberijtimoiylashuvga oid jihatlari, avlodlararo muloqotdagi tafovutlar, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya muammolari, raqamli madaniyat va axloqiy me’yorlarning o‘zgarishi ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda bunday transformatsiyalarni chuqur o‘rganish, ayniqsa yoshlar siyosati, ta’lim tizimi va madaniyat sohalarida dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Bu hodisa jamiyatning barcha qatlamlarida, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng tarqalmoqda.

Kiberijtimoiylashuv o‘zining ijtimoiy-psixologik mohiyati bilan shaxsning virtual makonda shakllanishi, yangi kommunikatsiya uslublarini egallashi va raqamli tarmoqlarda ijtimoiy identitet hosil qilishi bilan izohlanadi. Bu jarayonning tarixiy rivojlanishiga nazar solsak, 1990-yillardan boshlab internet tarmog‘i insoniyat

hayotiga kirib kelib, avval faqat axborot almashinuvi vositasi bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yillarga kelib, onlayn muloqot, ta’lim, savdo va boshqa ko‘plab sohalarni qamrab oldi.

Kiberijtimoiylashuv endilikda shunchaki ijtimoiylashuvning shakli emas, balki jamiyatdagi shaxslarning o‘zaro muloqoti, qadriyat almashinuvi va madaniy transformatsiyaning asosiy omiliga aylandi.

“Z” avlodining psixologik portreti: Avlod - bir xil xronologik davrda tug‘ilgan, bir xil sharoitda o‘sgan odamlarning ijtimoiy guruhi. Ko‘pincha avlodlar o‘rtasida yoshga bog‘liq tushunmovchiliklar paydo bo‘ladi. Biz farzandlarimiz va ota-onalarimiz bilan jiddiy va arziyas sabablarga ko‘ra bahslashamiz. Butun dunyodagi psixologlar bu muammoni ko‘p yillar davomida o‘rganishmoqda. Ushbu mavzu bo‘yicha ko‘plab xulosalar mavjud, ammo savol hali ham ochiqligicha qolmoqda: nega yosh farqi (10-20 yosh) bilan tug‘ilgan odamlar o‘rtasida hayotga bo‘lgan qarashda bunday ulkan farq paydo bo‘lishi mumkin.

Avlodlar nazariyasining asoschilari ikki amerikalik tadqiqotchi: Nil Xou va Uilyam Strauss edi. 1991 yilda ular turli yoshdagi odamlarning umumiy falsafasiga asoslangan konsepsiya ishlab chiqib, “Avlodlar” kitobini nashr etishdi. “Z” avlodi – bu texnologiyalar bilan yashovchi, virtual muhitda voyaga yetgan, tezkorlik va qisqa axborot formatlariga o‘rganib qolgan avloddir. Ularning psixologik holati, dunyoqarashi, kommunikatsion uslublari va o‘ziga bo‘lgan ishonchi avvalgi avlodlarga nisbatan sezilarli darajada farqlanadi. Z avlodi vakillari zamonaviy texnologiyalar, jumladan planshetlar, smartfonlar va 3D reallik imkoniyatlaridan faol foydalanishlari bilan ajralib turadi [1]. Ularning ongli hayoti internet keng ommalashgan davrga to‘g‘ri kelgan. Bu esa ularga deyarli istalgan ma’lumotni istalgan vaqtda va istalgan joyda olish imkoniyatini yaratdi. Internet endilikda faqat uy sharoitidagi kompyuter bilan cheklanmay, portativ va mobil qurilmalar orqali ham doimiy mavjud bo‘lib qoldi. Shu bois, “Z” avlodi ko‘pincha “raqamli insonlar” deb ataladi.

Bu avlod o‘zining yuqori raqamli savodxonligi, internet orqali tezkor axborot almashinuvi, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtiroki va o‘z fikrini erkin ifoda etish xususiyati bilan ajralib turadi. Raqamlashtirish Z avlodining hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatgan: ular onlayn muloqotni, masofaviy ishlash va ta’lim olishni, internet orqali tovar va xizmatlar xarid qilishni odatiy hayot tarziga aylantirgan.

Z avlodi vakillari uchun virtual va real hayot o‘rtasida qat’iy chegara yo‘q — ular internetni hayotning ajralmas bir qismi sifatida qabul qiladilar. Bu xususiyat ularni oldingi avlodlardan sezilarli darajada farqlantiradi. Masalan, yangiliklarni ko‘pchilik keksa avlod vakillari an’anaviy televidenie orqali qabul qilsa, Z avlodi uchun asosiy

axborot manbai — ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va internet portallaridir. Bu ularning fikrlash tezligi, tanqidiy yondashuvi va ma'lumotni qayta ishlash qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Z avlodi ilm-fan va texnologiyaga katta qiziqish bildiradi. Ular butunlay globallasuv va postmodernizm davrida shakllangan birinchi avlod sanaladi. Bu avlodning ota-onalari, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, ko'pincha masofadan ishlagan yoki yarim stavkada faoliyat yuritgan bo'lib, bolalarni tarbiyalashga ko'proq vaqt ajrata olgan. Bu esa Z avlodining shaxsiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Z avlodi vakillari tadbirkorlikka yuqori qiziqish bildiradi. Ular avvalgi avlodlarga nisbatan ancha katta miqdorda o'z biznesini boshlash istagini bildirgan. Tadqiqotlarga ko'ra, ularning aksariyati boshqalar qo'l ostida ishlashdan ko'ra, o'z ishini yo'lga qo'yishni afzal biladi. Ularning katta qismi o'z sevimli mashg'ulotlarini daromad manbaiga aylantirish niyatida bo'ladi.

Shuningdek, Z avlodiga nisbatan “zoomerlar” degan norasmiy atama ham keng qo'llaniladi. Bu atama “baby boomer” avlodi bilan “Z” harfining kombinatsiyasi sifatida yuzaga kelgan. “Zoomer” iborasi dastlab internet memlarida, ayniqsa yoshlar o'rtasidagi hazil va tanqidiy kontentda ishlatila boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik ilmiy va ommaviy doiralarda ham ommalasha boshladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu avlod vakillarining stressga chidamliligi past, tez charchash, tez o'zgarguvchanlik, virtual haqiqatga haddan ziyod bog'liqlik singari xususiyatlari mavjud. Shu bilan birga, ular ijodkorlikka moyil, axborotni tez tahlil qilishga qodir, vizual fikrlashga ega va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtiradi. Bu jihatlar, ularning ta'lim tizimiga, mehnat bozoriga va jamiyatdagi ijtimoiy roliga ta'sir ko'rsatadi.

Kiberijtimoiylashuvning ijobiy va salbiy oqibatlarini:

➤ Ijobiy jihatlar:

- Axborotga erkin kirish;
- Ijodkorlikni rivojlantirish;
- Global muloqot imkoniyatlari;
- Ta'lim va rivojlanish vositasi.

➤ Salbiy jihatlar:

- Internetga qaramlik;
- Shaxsiy hayotga tahdid;
- Psixologik beqarorlik;
- Haqiqiy muloqotdan chekinish.

Ushbu salbiy holatlar yoshlar orasida kiberbullying, raqamli depressiya va raqamli shaxsiy izolyatsiya holatlarini keltirib chiqaradi. Raqamli gigiyena, texnologik savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bu muammolarni yumshatadi.

Yoshlarning kiberijtimoiylashuvi jarayoni bilan birga keladigan xavf va tahdidlar: Kiberijtimoiylashuv, yuqorida ko‘rsatilganidek, yoshlarga muloqot qilish, ta’lim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish nuqtai nazaridan juda katta afzalliklarni beradi, lekin ayni paytda ularning psixologik farovonligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Kibermakonning rivojlanishi va kiberresurslardan foydalanish bilan bog‘liq onlayn xavflar hozirda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavzusidir, ayniqsa o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida. Yoshlarning Internetga yuqori darajada jalb etilishi, ularning onlayn muloqotga bo‘lgan yuqori faolligi bilan bog‘liq. Ammo, ular kattalarga qaraganda, Internet muhitining manipulyativ va tajovuzkor ta'siriga nisbatan kamroq tolerant bo‘lib, “o‘zini o‘zi qiyofasi” ning deformatsiyasi va shaxsiyatning buzilishi xavfini yuzaga keltiradi. Bunday holatlar yoshlarning shaxsiyatini shakllantirishda va ijtimoiy moslashishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, o‘smirlar va yoshlarning kibermakondagi xavflardan himoya qilish juda muhimdir.

Internet yoshlar uchun foydali kontentdan (onlayn kutubxonalar, kinokutubxonalar, virtual konsert zallari, galereyalar, tematik bog‘lar) foydalanish imkonini berishi bilan birga, uning keng maydonlari befoyda yoki past sifatli ma’lumotlar, shuningdek, manipulyatsiya va buzg‘unchi xarakterdagi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan.

Kiberijtimoiylashuvdan kelib chiqadigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- Raqamli madaniyatni erta bosqichdan boshlab o‘rgatish;
- Maktab psixologlari va sinf rahbarlariga metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish;
- Yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislarni zamonaviy kommunikatsion ko‘nikmalarga o‘rgatish;
- Kiberpsixologik profilaktika markazlarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, kiberijtimoiylashuv bugungi “Z” avlodi uchun nafaqat aloqa vositasi, balki to‘laqonli hayot tarzi, shaxsiy rivojlanish, dunyoqarash shakllanishi va ijtimoiy o‘zini anglash maydoniga aylangan. Bu jarayon yoshlar ongida raqamli muhitga asoslangan identitetni shakllantiradi, ularning ijtimoiy rollari, qadriyatlari va muloqot strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu hodisa global axborot makonida madaniy transformatsiyalar va avlodlararo tafovutlarni kuchaytiradi.

Shunday ekan, ijtimoiy institutlar, pedagogik va psixologik tizimlar zamonaviy texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan bu yangi ijtimoiylashuv modeliga moslashishi lozim. Bu borada raqamli madaniyatni rivojlantirish, media va texnologik savodxonlikni oshirish, raqamli gigiyena qoidalarini yoshlar ongiga singdirish, ularni internet xavflaridan himoya qilish va ota-onalar bilan mustahkam aloqani yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, kiberijtimoiylashuv imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish orqali ijtimoiy inklyuzivlikni kengaytirish, yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim, fan va innovatsiyalarni rivojlantirish yo'nalishlarida katta yutuqlarga erishish mumkin. Bu esa sog'lom, faol va mas'uliyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi barqaror jamiyat qurish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Поколение Minecraft: Как компьютерная игра стала новым Lego для детей всех возрастов](#). Дата обращения: 24 июня 2016. [Архивировано](#) 2 октября 2016 года.
2. Turner, A. (2015). Generation Z: Technology And Social Interest. *Journal of Individual Psychology*, 71(2), 103–113. doi:10.1353/jip.2015.0021.
3. Twenge, J. Teens are sleeping less – but there's a surprisingly easy fix. *The Conversation*, 19-oktabr 2017-yil.
4. Twenge, J. Why today's teens aren't in any hurry to grow up. *The Conversation*, 19-sentabr 2017-yil.
5. Strauss, V. (2019). Today's kids might be digital natives — but a new study shows they aren't close to being computer literate. *The Washington Post*, 16-11.
6. Adelantado-Renau, M., Moliner-Urdiales, D, et al. (2019). Association Between Screen Media Use and Academic Performance Among Children and Adolescents: A Systematic Review and Meta-analysis. *JAMA Pediatrics*, 173(11), 1058–1067. doi:10.1001/jamapediatrics.2019.3176.
7. Del Rey, R, Ojeda, M., Casas, J. A., Mora-Merchán, J. A., & Elipe, P. (2019). Sexting Among Adolescents: The Emotional Impact and Influence of the Need for Popularity. *Frontiers in Psychology*, 10, 1828. doi:10.3389/fpsyg.2019.01828.
8. Schepis, T. (2020). College-age kids and teens are drinking less alcohol – marijuana is a different story. *The Conversation*, 19-11.

9. Hymas, C. (2020). Generation Z swap drink for drugs as class A use by 16-24-year-olds rises by half in seven years. *The Telegraph*, 9-12.
10. UCL. (2020). How to fix the 'unhappiest generation ever'. *UCL News*, 6-August.
11. Weir, K. (2016). The risks of earlier puberty. *Monitor*, 47(3), 40.
12. Hochberg, Z., & Konner, M. (2020). Emerging Adulthood, a Pre-adult Life-History Stage. *Frontiers in Endocrinology*, 10, 918. doi:10.3389/fendo.2019.00918.

THE ROLE OF DIGITAL SKILLS IN THE GLOBAL LABOR MARKET: TRENDS AND IMPLICATIONS

Po'latov Javlon Xo'sinboy o'g'li

Under the supervision of Prof. **U. Dalabaev**

Master's Degree student at University of World Economy and Diplomacy

The global labor market is transforming due to technological advancements, making digital skills essential for employability and economic growth. As industries increasingly rely on automation, artificial intelligence (AI), and data-driven decision-making, workers must adapt to new technological demands to remain competitive. Digital literacy is no longer optional but a key determinant of career success. The ability to navigate digital tools, analyze information, and engage in technology-driven problem-solving has become a necessity across various sectors, from finance to healthcare and manufacturing. This study analyzes the increasing demand for digital competencies, the impact of artificial intelligence (AI), and the digital divide, with a focus on Uzbekistan's initiatives like Digital Uzbekistan 2030. As economies shift towards digitalization, gaps in access to education, infrastructure, and technological resources continue to shape labor market outcomes. Uzbekistan has recognized the importance of digital transformation in economic development and is actively working towards integrating digital skills into its workforce. However, disparities in digital education and infrastructure development remain key challenges that need to be addressed. It also presents policy recommendations for bridging the skills gap and ensuring inclusive development. Investing in digital education, promoting lifelong learning, and expanding technological accessibility are crucial steps toward closing the digital divide. Without proactive measures, the gap between digitally skilled and unskilled workers will continue to widen, leading to economic disparities. A comprehensive strategy that combines government initiatives, private sector involvement, and academic reforms can ensure that digital transformation benefits all segments of society.


Keywords: Digital skills, labor market, artificial intelligence, automation, cybersecurity, digital economy, data analytics, remote work, digital divide, economic development, workforce transformation, Uzbekistan.

The global labor market is experiencing a significant shift driven by digitalization and technological advancements. The increasing reliance on artificial intelligence, automation, and data-driven decision-making has transformed job requirements, creating a growing demand for digital skills. In advanced economies, digital competencies are now considered essential for employability, with fields such as artificial intelligence, cybersecurity, and data analytics witnessing rapid expansion. Companies seek professionals who can navigate complex digital ecosystems, analyze large datasets, and develop technology-driven solutions to enhance productivity. The ability to adapt to these emerging trends has become a key factor in career success, pushing employees to continuously upgrade their skill sets. As industries shift toward greater automation, new job roles are emerging, requiring proficiency in machine learning algorithms, cloud computing, and digital project management. Even traditional professions, such as finance, healthcare, and education, now require employees to work with advanced software, data visualization tools, and artificial intelligence-driven applications.

At the same time, digitalization has led to concerns about job displacement. The automation of routine tasks has rendered certain traditional roles obsolete, while simultaneously generating new employment opportunities that require specialized expertise. Workers who fail to adapt to these changes risk losing their competitive edge in the labor market. Studies suggest that by 2030, a substantial portion of existing jobs will require digital proficiency, further emphasizing the need for reskilling and lifelong learning. The World Economic Forum predicts that nearly 50% of workers worldwide will need retraining due to automation, with the highest impact seen in administrative and manufacturing sectors.

Projected Impact of Automation on Job Sectors by 2030

Projected Impact of Automation on Job Sectors by 2030



The pie chart above illustrates the projected impact of automation on different job sectors by 2030. According to forecasts from the World Economic Forum, automation is expected to significantly reshape the global labor market. The manufacturing sector is predicted to experience the greatest

disruption (30%), followed by administrative jobs (25%), as routine tasks become increasingly automated. The retail and customer service sector (15%) will also see considerable transformation, especially with the rise of AI-driven customer interactions. Meanwhile, healthcare and education (10%) are expected to be less affected, as these fields require human-centered tasks that AI cannot fully replace. The technology and engineering sector (20%) is projected to be the least impacted by automation, as it is a driving force behind digital transformation, creating new jobs and opportunities rather than displacing workers.

The demand for highly skilled workers is rising rapidly, while lower-skilled jobs are shrinking, making it essential for individuals to pursue upskilling opportunities to secure their place in the workforce. This shift is not limited to corporate environments; even small businesses and freelancers must now adapt to digital tools to remain relevant in the modern economy. Without timely intervention, workers in industries vulnerable to automation may struggle to transition into new roles, exacerbating unemployment rates and economic inequality.

Despite the evident benefits of digital transformation, a significant challenge remains in bridging the digital divide. Many developing nations lack the infrastructure, educational resources, and policies necessary to equip their workforce with the required digital skills.

Digital Literacy Rates by Region (2024)

Region	High Digital Literacy (%)	Basic Digital Literacy (%)	No Digital Literacy (%)
North America	85	12	3
Europe	80	15	5
Asia	60	30	10
Latin America	50	35	15
Africa	25	40	35

The table above presents digital literacy rates across different regions in 2024, highlighting disparities in access to digital skills. North America (85%) and Europe (80%) have the highest levels of digital literacy, with most of their population proficient in using digital tools for work and communication. Asia (60%) shows moderate digital skill penetration, but there is a significant portion of the population (30%) with only basic digital skills. In Latin America (50%), digital literacy remains a challenge, with 35% of individuals possessing only fundamental knowledge and 15% lacking any digital skills. The most concerning statistics emerge from Africa, where only 25% of the population is highly digitally literate, and a significant 35% have no digital literacy at all. These statistics reinforce the urgent need for investment in digital education and infrastructure in developing regions to bridge the global digital divide.

The divide is not only technological but also economic and social, as individuals in lower-income groups often have limited access to digital education and tools. Research indicates that disparities in digital literacy contribute to widening economic inequalities, reinforcing the need for targeted interventions to ensure inclusive growth. While developed nations are advancing with AI-driven industries and widespread high-speed internet access, many regions in developing countries still lack the fundamental resources needed to train their workforce for digital jobs. Addressing this issue requires substantial investment in technology infrastructure, affordable internet services, and digital education initiatives that reach underprivileged populations. Policymakers must recognize that the digital divide is not just a matter of connectivity but also one of accessibility, affordability, and digital competency, making it crucial to implement sustainable solutions that promote equal opportunities in the digital economy.

Uzbekistan has recognized the importance of digital transformation in strengthening its economy and has launched the Digital Uzbekistan 2030 initiative to integrate digital technologies across various sectors. The strategy aims to enhance government efficiency, expand the IT sector, and improve digital literacy among the population. Efforts are being made to modernize educational curricula, introduce coding and data science programs, and foster collaboration between universities and technology firms. The expansion of broadband infrastructure and the promotion of e-government services are also key priorities, as these measures facilitate greater digital inclusion. However, ensuring successful implementation of these initiatives requires overcoming deep-rooted challenges such as outdated educational methodologies, resistance to digital adoption among certain segments of the workforce, and financial barriers that prevent small and medium-sized enterprises from leveraging digital tools. Government policies must focus on making digital learning accessible to all demographics, including rural communities, women, and older generations, to prevent a widening digital divide within the country.

While progress has been observed, challenges persist in fully implementing digital transformation strategies. A significant portion of the workforce lacks access to specialized digital training, and many small and medium-sized enterprises struggle to adopt technology-driven business models due to financial constraints. Additionally, disparities exist between urban and rural areas, with digital infrastructure development being more concentrated in major cities. Addressing these challenges requires a multi-faceted approach, combining policy interventions, investment in education, and public-private partnerships to foster a digitally skilled workforce. Uzbekistan must also strengthen its cybersecurity policies, ensuring that digital expansion does not expose businesses and government systems to cyber threats. The digital economy offers great potential, but without strong regulations and strategic planning, it may create vulnerabilities that can be exploited by cybercriminals. Furthermore, cultural attitudes toward digital work need to shift, encouraging lifelong learning and adaptation to technological changes as a core component of professional growth.

Global trends indicate that remote work and cross-border digital employment are becoming increasingly prevalent, further emphasizing the necessity for strong digital skills. Companies now have access to a global talent pool, intensifying competition among job seekers. Research suggests that remote work enhances productivity and provides greater flexibility, but it also necessitates advanced digital collaboration and

communication abilities. For countries like Uzbekistan, this shift presents an opportunity to integrate more professionals into the international labor market, provided that they possess the necessary technical expertise and digital fluency. Remote work has also redefined traditional employer-employee relationships, introducing a demand for digital work ethics, self-management, and remote collaboration proficiency. This shift is particularly significant for freelancers and gig economy workers, who must now compete on global platforms such as Upwork, Fiverr, and Toptal to secure contracts. With remote work removing geographical barriers, professionals from Uzbekistan have a chance to enter high-paying industries, provided they can meet the skill requirements of international clients and employers.

The need to bridge the digital divide remains crucial for sustainable economic development. Investments in digital infrastructure, affordable access to technology, and inclusive education policies are essential to prevent the marginalization of certain segments of the workforce. Governments and private sector stakeholders must work together to create an ecosystem that supports continuous learning and adaptation to evolving technological landscapes. Digital literacy should not be viewed as a luxury but as a fundamental right, ensuring that all individuals have equal opportunities to participate in the digital economy. Without proactive interventions, the gap between those who can adapt to technological advancements and those who cannot continue to widen, reinforcing economic disparities and limiting upward mobility for underprivileged groups. Nations that fail to prioritize digital skill development risk falling behind in the global economy, while those that invest in digital transformation will gain a competitive advantage.

